

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AL – XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK94(575.1)

AHMEDOV G'ULOMJON JUMANAZAROVICH

Xorazm arxaik davri tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi

5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
t.f.n., dots. Q.Masharipov

Urganch - 2013 y.

MUNDARIJA

Kirish.....	1
I Bob. Xorazm arxaik davri tarixiga oid manbalarning o'rganilishi	
tarixi	9
1. Ilk yozma manbalarda Xorazm arxaik davri jamiyati haqidagi ma'lumotlarning aks etishi	9
2. Xorazm arxaik davri tarixiga oid yozma va arxeologik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili natijalari	26
I Bob bo'yicha xulosa.....	32
II Bob. Xorazm arxaik davri tarixining xorij, sovet va mustaqillik davri	
tarixshunosligida aks etishi: yondashuvlar va muammolar.	33
1. Xorij va sovet davri tarixshunosligida Xorazm arxaik davri tarixining aks etishi	33
2. Mustaqillik davrida mavzuning yoritilishi.	40
II Bob bo'yicha xulosa.....	53
III Bob. Xorazm arxaik davri tarixi muammolarining o'rganilishi	
masalasi.....	54
1. Xorazmda ilk davlatchilik muammosi manbashunosligi va tarixshunosligi.....	54
2. Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar va madaniy hayot masalalarining o'rganilishi.....	75
III Bob bo'yicha xulosa.....	92
Xulosa.....	93
Ilova.....	96
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan vatanimiz tarixini, ayniqsa, o'zbek davlatchilik tarixini o'rganish imkoniyatlari kengayishi bilan birga uni imkonini yaratish, unga haqqoniy baho berish nihoyatda muhim vazifaga aylandi. Ayniqsa, O'zbekistonning arxaik (miloddan avvalgi VII – IV asrlar) davr tarixini chuqur o'rganish eng dolzarb vazifalardan bo'lib, bu davr tarixini chuqur o'rganish asosida O'rta Osiyo hududida kechgan eng dastlabki siyosiy jarayonlar, davlatchilikning shakllanishi, qabila va elatlarning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti, shaharlar va shahar madaniyatining shakllanishi tarixi masalalari to'la-to'kis o'z yechimini topgan bo'lar edi. Shuning uchun hamma vaqt arxaik davr tarixini o'rganish tarixchi tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib, eng dolzarb muammo sifatida unga qiziqish katta bo'lgan. Ammo qadimshunos - olimlarning bu sohadagi ilmiy izlanishlari hali to'laqonli o'rganilmagan yozma manbalar va arxeologik yodgorliklar ko'pligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyotida, o'zbek davlatchiligining ilk ildizlarining shakllanishida va keyingi asrlardagi taraqqiyotida muhim rol o'ynagan hamda shaharsozlik an'analari shakllangan Xorazm arxaik davr tarixini chuqur o'rganish va haqqoniy yoritish kelgusida tariximizda mavjud muammolarni, ayniqsa davlatchilik tarixi muammolarini ijobiy hal qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xorazmning arxaik davr tarixi va uning taraqqiyoti masalalari haqida ko'pgina tarixchi olimlar izlanishlar olib borganlar. Ammo yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hozirda mavjud arxeologik yodgorliklar, moddiy va ashyoviy, yozma manbalar bizning mavzumizni to'laqonli o'rganish imkonini bermaydi. Mazkur masalaga tegishli yozma manbalar esa haligacha chuqur o'rganilib, yakuniy xulosalar chiqarilmagan.

Xorazm vohasi va unga tabiiy jihatidan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlarida qadimgi jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishi, ilk davlatchilikning shakllanishi, qishloq va

shaharlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni, ularning tarixini aks ettirgan tarixiy adabiyotlar va yozma manbalardagi ma'lumotlarning mazmun va mohiyatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Sobiq Sovet tuzumi davrida chop qilingan tarixiy adabiyotlar (S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, M. A. Itina, A. V. Vinogradov, B. I. Andrianov, E. E. Nerazik, M. G. Vorobyeva, Yu. A. Rapoport, Yu. P. Manilov, N. N. Vakturskaya, V. N. Yagodin, M. M. Mambetullaev, G'. K. Xodjaniyazov, A. Sagdullaev).

2. Mustaqillik yillarida voha tarixiga oid tarixiy adabiyotlar, maqola va tezislardagi ma'lumotlar (V. N. Yagodin, M. M. Mambetullaev, G'. K. Xodjaniyazov, M. Turabekov, A. Sagdullaev, A. Asqarov, X. Matyaqubov, S. Baratov).

3. Xorijlik tadqiqotchilar ilmiy asarlari va tadqiqotlari.

Birinchi guruhga - Sobiq Sovet hokimiyati yillarida Xorazm vohasi sarhadlarida joylashgan qishloq va shaharlarida turli arxeologik ekspeditsiya va arxeologik guruhlar hodimlari tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini aks ettirgan monografiya, risola, maqola va tezislarda qayd qilingan ma'lumotlar jalb qilinadi. S. P. Tolstov tadqiqotlarida Xorazm vohasining ibtidoiy jamiyat tarixidan to Buyuk Xorazmshohlar davlatigacha bo'lgan tarixiy jarayonda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar, qishloq va shaharlarining joylashish tartibi, me'moriy-topografik tuzilishi va mudofaa tizimi, sug'orish inshootlari tarixi yoritilgan.¹ Ya. G'. G'ulomov tadqiqotlarida esa, Xorazmning arxaik davr qishloq va shaharlarining vujudga kelishi va shakllanishida sug'orish inshootlarining tarixiy o'rni batafsil aks ettirilgan.² Tadqiqotchi B. A. Andrianov esa o'z asarida Xorazmda sug'orilish madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi keng ma'noda yoritgan.³ M. G. Vorobeva, M. S. Lapirova-Skoblo, E. E. Nerazik tadqiqotlarida Hazorasp shaharining rivojlanish tarixiga oid materiallar, E. E. Nerazik tadqiqotlarida Xorazm qishloq

¹ Tolstov S.P. Drevniy Xorezm, «Nauka», 1948. Ego je. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii. M, «Nauka», 1948. Ego je. Po drevnim delam Oksa i Yaksarta. M. «Nauka» 1962.

² G'ulomov Ya. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. T, «Fan», 1959.

³ Andrianov B.V. Drevnie orositelnye sistemi Priaralya. M., «Nauka», 1969.

manzillarining joylashishi, me'moriy-topografik tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar jarayoni yoritilgan.⁴ Yu. P. Manilov Katqal'a (Beruniy), yodgorligi tarixiga doir ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilgan.⁵ Tadqiqotchilar tomonidan nashr qilingan ilmiy ishlarda asosan arxaik davr Xorazm vohasi hududi, qishloq va shaharlarining tarixiy topografiyasi, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ilk davlatchilik masalalari moddiy tomondan tahlil qilinganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xorazm vohasida qadimgi davrda vujudga kelgan madaniy-xo'jalik, dehqonchilik vohalari va ularda shaharmonand va shahar-davlatlarning vujudga kelishi, joylashish tartibi, rivojlanish jarayonini yoritish soyada qolib ketgan. Shu bilan birga, Xorazm tarixi ildizlarining yanada rivojlanishiga manba bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar tarixi yangi jamiyat mafkurasi tamoyillariga tayangan holda yoritilmagan. Ta'kidlash lozimki, xuddi shu manbalar asosida turli tarixiy davrda taraqqiy etgan qadimgi davr qishloq va shaharlarining rivojlanishida o'ziga xos me'moriy xususiyatlari tahlil qilingan yakuniy ilmiy tadqiqot Xorazm tarixshunosligida ko'zga tashlanmaydi.

Ikkinchi guruhga- mazkur tarixiy davr mazmunining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, vatanimiz milliy mustaqillikka erishgandan keyingi o'tgan tarixiy yillarda mahalliy qadimshunoslar tomonidan Xorazm vohasidagi tarixiy obidalarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar asosida chop qilingan monografiya, tadqiqot, risola, maqola va tezislardagi ma'lumotlar bilan izohlanadi. Xorazmning arxaik davr tarixiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar ilmiy jamoatchilikka e'lon qilindi. M. Mambetullaev tadqiqotlarida Xorazm vohasining qishloq va shaharlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar, ularning joylashish tartibi, arxaik davr tarixining ilmiy-nazariy jihatidan ma'lum darajada tahlil qilinganligini qayd qilish lozim.⁶ Xorazmning arxaik davr tarixiga

⁴ Vorobyeva M.G., Lapirova –Skobla M.S. Nerazik E.E. Arxeologicheskie raboti v Xazaraspe v 1958-1960 g.g. MXE, Vip. 6, M, «Nauka», 1963. Nerazik E.E. Selskoe selishe Xorezma. M, «Nauka», 1967.

⁵ Manilov YU.P. K izucheniyu gorodisha Kyat. Vestnik KKF. An UzSSR, 2, 1965. O'sha muallif. Gorodishe Kyat, T, «Fan», Onu. 7-8, 1973. Gudkova A.V. Tokkal'a. T, «Fan», 1967.

⁶ Mambetullaev M. Istoriya i kultura yujnogo Xorezma antichnoy epoxi (goroda i poseleniya v IV v.do.n. – IV v.n.e) Avtoref dok. diss. T, 1994.

doir keng qamrovli ma'lumotlar G'. K. Xo'janiyozov tadqiqotida o'z aksini topdi.⁷ Tadqiqotchi monografiyasida Xorazm arxaik davriga mansub qishloq va shaharlarning me'moriy-topografik tuzilishi, mudofaa inshootlari tarixi batafsil yoritilganini qayd qilganini eslash kifoya. Tadqiqotchi A. Sagdullaev Xorazm toponomikasining Avesto Yashtida-6 marta, Ahamoniy yozuvlari bo'lgan Behistunda 15marta, Suza saroyi devorida-2 marta va Naqshi Rostam bitiklarida-7 marta qayd qilinganligiga e'tiborni qaratgan.⁸ XX asrning 90-yillari oxiridan boshlab, Quyi Amudaryo havzasi va uning hududiy davomi bo'lgan Sariqamishbo'yi havzasini qamrab olgan bepoyon sarhadlarda sodir bo'lgan tarixiy dialektikani yangi zamon ruhi bilan sug'orilgan tadqiqotlar paydo bo'ldi. Xorazm vohasining eng qadimgi dunyosida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar "Avesto" ning ziroatkor xorasmiylarning Quyi Amudaryo havzasiga migratsiyasi tufayli rivojlanganligini, uning mahsuli asnosida vujudga kelgan shaharsozlik madaniyati, uning negizida ilk davlatchilik asoslari, afsonaviy siyosiy birlashma «Katta Xorazm» tarixiy-geografik atamasi tarixi yangicha qarashlar va yondashuvlar akademik A. Asqarov tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁹. Tadqiqotchi S. Baratov janubiy Xorazm sarhadida joylashgan Toshqal'a-2 va Meshekli yodgorliklarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolarga asoslanib vohaning qadimgi dunyosiga oid fikr-mulohazalarini ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.¹⁰ Tadqiqotchilar A. Sagdullayev, U. Abdullayevlarning maqolasida Quyi Amudaryo havzasida bronza davrining oxiri va ilk temir davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayoni tahlil qilinganligini qayd qilish joiz.¹¹ Ammo, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar

⁷ Xo'janiyozov G.K. Fortifikatsiya drevnego Xorezma. Avtoref. kan. diss. Nukus, 1996. O'sha muallif. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Toshkent, "O'zbekiston", 2007.

⁸ Sagdullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., Universitet, 2004, b. 43.

⁹ Asqarov. A. Qadimgi Xorazm tarixiga doir ba'zi bir mulohazalar// O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar// Toshkent, "Fan", 2004. O'sha muallif. Novie podxodi k izucheniyu istorii drevnego Xorezma// O'zbekiston tarixi., Tashkent, №4., 2007, str. 11-13. O'sha muallif. O'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida urbanistik jarayonlarning tarixiy ildizlari haqida mulohazalar(Qadimgi Xorazm misolida)// O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganish bo'yicha materiallar// Toshkent, "Fan", 2009, b. 26-31.

¹⁰ Baratov. S. Nekotorie problemi arxeologicheskix issledovaniy drevnix kultur Xorezma.// O'zbekiston tarixi. Toshkent, "Fan", №4, 2007, str. 27-30

¹¹ Sagdullaev. A., Abdullaev. U. Istoriya Xorezma v svete issledovaniy S. P. Tolstova(Epoxi pozdney bronzi i rannego jeleza). O'zbekiston tarixi., Toshkent, "Fan", №4, 2007, b. 7.

mazmunida Xorazm sarhadlarida turli tarixiy davrda tarkib topgan madaniy-xo'jalik markazlari tabiiy sharoiti va antropogen landshaftining vujudga kelishi, shakllanishi natijasida vujudga kelgan aniq geografik-hududiy sug'orma dehqonchilik vohalarining joylashish jarayoni tahlil qilinmagan. Shu bilan birga, shaharmonand va shahar-davlatlarning tarixiy ildizlari, ularning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoniga manba bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy omillarni izohlash e'tibordan qolib ketganligini qayd qilish joiz. Shu narsani ta'kidlash kerakki, mustaqillikning ilk yillaridan to hozirgacha tadqiqotchilar tomonidan nashr qilingan tarixiy asarlar, risola va maqolalar mazmuni Xorazm vohasi jamiyatini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasining mazmuni eski jamiyat g'oyasi girdobidan chiqib keta olmagan.

Uchinchi guruhga mansub xorij tadqiqotchilari XIX asrning ikkinchi yarmidanoq O'rta Osiyoda qadimgi davlatchilikning paydo bo'lish muammosini (ammo dastlab faqat Baqtriya misolida) ko'rsatib berishga harakat qilgan edilar¹². Lekin mavzuning tarixshunoslik tahlili yuzasidan dastlabki urinishlar XX asrning 30-40-yillari oxirlaridan boshlangan, deb aytish mumkin. 50-60-yillardan boshlab O'rta Osiyoning katta qismini birlashtirgan Xorazm podsholigining vujudga kelishi to'g'risidagi bahs keng yoyildi. Ilk davlatchilikning Xorazmda paydo bo'lganligi V.V. Bartold tomonidan e'tirof etildi¹³. Yozma manbalarni o'rganish asosida yuzaga kelgan bu qarashni I. Markvart¹⁴ rivojlantirdi va keyinchalik ("Katta Xorazm" to'g'risida ta'limot) V.B. Xenning¹⁵, I. Gershevich¹⁶ tomonidan ishlab chiqildi.

Xullas, Xorazmning arxaik davri tarixining boshqaruv tizimi va ilk davlatchilik muammosi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tarix fanida yetarli darajada o'z aksini topmagan.

Shuningdek, qadimgi jamiyatda siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar masalalari, boshqaruv va ilk davlatchilik tarixining o'rganilishi natijalari O'rta

¹² Duncker M. Geschichte des Alterthums. – Bd. IV. – Leipzig, 1867. – S. 15-18.

¹³ Bartold V.V. Iran. – Tashkent, 1926. – S. 17.

¹⁴ Marquart I. Wehrot und Arang... – S. 9-11.

¹⁵ Henning W.B. Zoroaster: politician or witch-doctor? – Oxford, 1951. – R. 40-42.

¹⁶ Gershevitch I. The Avestan hymn to Mitra. – Cambridge, 1959. – 356 p.

Osiyo tarixshunosligida umumlashtirilmagan, mavjud yondashuvlar va asosiy nazariyalar ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada tanqidiy tahlil qilinmagan.

Shu bilan birga mazkur tadqiqot Xorazmning arxaik davri tarixi manbashunosligi va tarixshunosligiga bag'ishlanganligi uchun mavzuning kirish qismida o'rganilish darajasi, ko'pgina tarixchi olimlar ma'lumotlari va tadqiqotlariga qisqa to'xtalib o'tildi.

Tadqiqot predmeti sifatida Xorazmning arxaik davri tarixi, uning siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va moddiy – ma'naviy madaniyati tarixini, arxeologik va yozma manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash, aniqlash, umumlashtirish usullari asosida ilmiy o'rganish vazifasi qo'yildi. Mavzuni ilmiy o'rganish asosida hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlarini shakllantirish borasidagi keng qamrovli ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan nazariy va amaliy xulosalarni chiqarishga harakat qilindi.

Tadqiqotning davriy chegaralari miloddan avvalgi VII asrdan – miloddan avvalgi IV asrgacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi va u O'rta Osiyo madaniyatining ilk taraqqiy etgan davri hisoblanadi. Zero, bu asrlarda Xorazm hududida kechgan tarixiy jarayonlar nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahon sivilizatsiyasi tarixida ham katta ahamiyat kasb etganligi tanlangan mavzuni tadqiq etish uchun ushbu davriy chegarani belgilashni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari sifatida – Xorazmda arxaik davri taraqqiyoti va bu jarayonlarning ilk davlatchilik va shaharsozlikning shakllanishidagi o'rnini o'rganish orqali tariximizni xolisona o'rganish, xalqimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni o'lkashunoslikdan puxta bilim va ko'nikmalariga ega qilish. Mazkur masalalar biz tanlagan mavzuning ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbligini asoslaydi. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda biz mazkur loyiha mavzusi va maqsadi sifatida Xorazm arxaik davri moddiy – ma'naviy madaniyatining o'рни va rolini ochib berish muammosini tanladik. Zero, mazkur muammo haligacha keng miqyosda o'rganilmagan. Xorazm shaharlarining, ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishining, arxaik davr ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari va bu davrda vujudga kelgan tarixiy sharoitlarni

o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan omillarning hamda shaharlarning o'ziga xos uyushtiruvchi tarixini tadqiq qilib, har tomonlama haqqoniy yoritish muammosi qo'yiladi. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi muammolarni obyektiv ravishda yoritishga harakat qilinadi:

— Xorazmda ilk shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari yetilishidagi iqtisodiy va siyosiy omillarini aniqlash;

— Xorazm shaharlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish;

— Xorazmda ilk davlatchilik an'alarining vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari yetilishidagi iqtisodiy va siyosiy omillarini aniqlash hamda o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish;

—Xorazm arxaik davr tarixining madaniy faoliyatini yozma va yangi arxeologik ma'lumotlar asosida haqqoniy yoritish;

— Xorazmliklarning Markaziy Osiyo madaniy hayotida tutgan o'rni va moddiy madaniyat tarixi rivojiga qo'shgan xissasini ko'rsatish va hokazo.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari, maqolalari, fundamental asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz tarixini o'rganish bilan bog'liq qarorlari, taniqli arxeolog, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Xorazm hududida XX asrning 30-yillaridan to XXI asrning boshlarigacha olib borilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar hozircha Xorazm arxaik davr tarixini to'la-to'kis ochib bera olmaydi. Tadqiqot natijalari Respublikamizda ilk bor keng qamrovli ravishda ilmiy muomalaga kiritilib, muzey, maktab, akademik litsey va kollejlarda hamda universitetlarda dars va amaliyot jarayonlariga tatbiq qilinadi. Tadqiqotda yangi arxeologik ma'lumotlardan keng foydalanilgani holda o'rganilayotgan davrda Xorazmdagi arxaik davr tarixi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning yangiligi yana

shundaki, unda Xorazm arxaik davr tarixi va moddiy – ma'naviy madaniyatining rivoji bevosita Osiyo va Yevropa davlatlari shaharlari faoliyati bilan qiyoslash orqali tadqiq etildi.

Tadqiqot manbalari. Mavzuning manbaviy asosini qadimgi Eron, yunon-rim manbalari tashkil etadi. XIX asr o'rtalaridan XX asr 30 – yillarigacha tarixchi, geograflar va sayyohlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar ham mavzuni ochib berishda qisman ahamiyatga ega hamda ular Xorazm ilk shaharlarining xo'jalik hayoti, o'lkada tutgan mavqei to'g'risida aniq tasavvurlarni shakllantirishga imkon bermaydi.

Xorazm arxaik davr shaharlari tarixini arxeolog, geograf, topograf va tilshunos olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasida to'plagan ma'lumotlari va ular chiqargan ilmiy xulosalar asosida o'rganish yuqori samara beradi. Shu jihatdan olganda, biz tanlagan mavzuning asosiy vazifasi mavzuga oid barcha manba va tadqiqotlarni chuqur o'rganish asosida yakuniy ilmiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning amaliy-nazariy ahamiyati. Xorazm arxaik davr tarixini aks ettiruvchi yozma manbalar, arxeologik, numizmatik, lingvistik manbalar ma'lumotlarini to'plash, o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish, Xorazm vohasida (Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari) mavjud arxaik davr yodgorliklari aks ettirilgan eng so'nggi xaritalarni to'plab, yagona arxeologik xarita tuzish, Xorazm viloyatida mavjud arxaik davr yodgorliklarini arxeologik jihatdan o'rganish va shu asosda ilmiy xulosalar chiqarib borish masalalari ishning ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqotning natijalaridan tarix va maxsus tarix fanlari mutaxassislari keng foydalanishlari mumkin. Tadqiqot materiallaridan Oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus bilim yurtlari talabalari uchun yaratiladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, maxsus kurslar uchun, shuningdek, ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlarda keng foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi — kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – Bob. Xorazm arxaik davri tarixiga oid manbalarning o'rganilishi tarixi.

1. Ilk yozma manbalarda Xorazm arxaik davri jamiyati haqidagi ma'lumotlarning aks etishi.

Uch ming yillik tariximizning muhim manbai bo'lgan “Avesto” ma'lumotlari asosida biz o'sha davr ijtimoiy hayotining ko'p qirralarini o'rganishimiz mumkin. “Avesto” olami o'zining boy madaniy qatlami bilan insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunlarda muhim mavzulardan biri - “Avesto” davridagi jamiyat, uning tarkibi va ijtimoiy munosabatlar tarixi, davlatchilik atributikalarini yoritishdan iboratdir.

“Avesto”da ahamoniylargacha bo'lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar, siyosiy tarix, diniy-falsafiy va turli ma'lumotlar saqlangan. Unda, jumladan, shunday deyiladi: “O, Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu yerlarga baxtlik qancha kam bo'lsa-da, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vanxvi Datyo daryosidagi Aryanam Vayjehga asos soldim.

Ikkinchidan, men, Ahuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan Gava So'g'da (So'g'diyona) makoniga asos soldim.

Uchinchidan, men, Ahuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan qudratli Mouruga (Marg'iyona) asos soldim.

To'rtinchidan, men, Ahuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan, baland bayroqlari bo'lgan go'zal Bahdi (Boxtar) ga asos soldim”¹.

“Avesto”da tilga olingan juda ko'plab mamlakatlar – O'rta Osiyo va O'rta Sharq, Afg'oniston, Eronning shimoli-Sharqiy hududlari bilan bog'liqdir. Yasht qismlari ariylarning yerlari haqida quyidagicha e'lon qiladi: “U mamlakatning jasur sardorlari ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko'llar to'lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng

¹ Yozma manbalar haqidagi ma'lumotlar A.Sagdullayevning “Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda” (Toshkent., 1996) kitobidan olinib, qisman tahrir qilindi.

Avesto. Yasht Kitobi. Ashi alqovi (Ord Yasht). 45. (M. Is'hoqov tarjimasi). – B. 44.

daryolarning oqimi Pourutadagi Iskata, Xaravaydagi Mouru, So'g'ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi".¹⁷

“Avesto” ma'lumotlariga ko'ra, eroniy sulolalaridan bo'lgan Kayoniylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg'ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar Kavi Vishtaspni Buxtarda hukmronlik qilganini e'tirof etadilar. “Avesto” ma'lumotlariga ko'ra, Kavi Vishtasp davrida davlat uyushmasi mavjud bo'lgan. Misol uchun, Gohlarda Zardusht kichik hukmdorlarni urushlarni to'xtatishga, kuchli va odil podsho qo'l ostida birlashishga da'vat etadi. Aftidan, o'sha paytdayoq kichik mulklarning yagona podsho hukmronligi ostidagi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarga birlashuvi boshlanadi. Payg'ambar Zardusht va shoh Vishtasp bu birlashuvning tashabbuskorlari edilar.

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab, hozirgi kunga qadar “Avesto” ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari (“Katta Xorazm”), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Buxtarda podsholigi haqidagi ma'lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog'liq bo'lgan mavzularning ko'pgina yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini ahamoniylargacha bo'lgan davrda deb hisoblaydilar va miloddan avvalgi IX-VII asrlar bilan belgilaydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Altxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, M.Dandamaev, Ya.G'ulomov, B.A.Litvinskiy, E.V.Rtveladze, I.V. Pyankov, A.S.Sagdullaev va boshqalar).

Ilmiy adabiyotlar O'rta Osiyoda ahamoniylargacha bo'lgan davrda mavjud bo'lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so'z yuritadi: 1.Aryoshayona – O'rta

¹⁷ Avesto. Yasht Kitobi. Mitra alqovi (10- Yasht: Mehr Yasht). 14. (M. Is'hoqov tarjimasi). – B.47-48. Bundan tashqari, «Avesto» da(Yasht. Ardvi Sura alqovi.Obon Yasht. 5-Yasht. 54.) Qang' muqaddas makoni tilga olingan: – B.23.

Osiyodagi qadimgi viloyatlarning “dahiyosasti” uyushmasi; 2. Aryanam Vayjeh – bu ham Aryoshayonadek yoki uning markazi Ariya va Marg’iyonada bo’lgan “Katta Xorazm” yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati; 3. Qadimgi Boxtar davlati. 4. Ko’chmanchi qabilalar konfederatsiyasi.

Ilk davlatchilik masalasida juda ko’plab ilmiy bahslar bo’lib o’tgan bo’lishiga qaramay, bu masala hanuz o’z yechimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, “Katta Xorazm” (“Avesto” tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, qadimgi yunon tilida Xorasmiya¹⁸) davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo’lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Arxeologik tadqiqotlar ayrim hollarda yozma manbalar ma’lumotlarini tasdiqlamaydi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlar Xorazm madaniyati Amirobod nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatning me’morchilik yodgorliklari, asosan, chayla va yarim yerto’lalardan iborat bo’lib, mustahkam turar joylar uchramaydi. Xorazmdagi dehqonchilikning rivojidan darak beruvchi yirik sug’orish inshootlari, mustahkam mudofaaga ega bo’lgan turar joylar (Ko’zaliqir, Ding’alja) miloddan avvalgi VI-V asrlarga oiddir.

Qadimgi Xorazmning joylashuv hududlari ham ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Tarn, Altxaym) ahamoniylargacha xorazmiylar Parfiya chegaralaridan Sharqiy yo’nalishda Kopetdog’ yonbag’irlarida joylashgan desalar, ayrimlari (Xenning, Gershevich) bu davlatning markazi Marv va Hirot atrofida bo’lib, Kir II bosib olganidan so’ng Quyi Amudaryoga – hozirgi Xorazm hududlariga ko’chib o’tgan deyilar. Ayrim tadqiqotchilar fikricha (S.Tolstov, M.Vorobeva), qadimgi Xorazmning chegaralari hozirgi Xorazm hududlaridan ancha keng bo’lib, O’rta Amudaryodagi Qo’shqal’adan boshlab, Orol dengizigacha bo’lgan hududlarni o’z ichiga olgan.

Umuman, mil. avv. VII asrning oxiri - VI asrda Xorazm davlati mavjud bo’lganligi aniq. Bu davrda Xorazmda qurilish va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Tadqiqotlar natijasida bu hududlardan bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, bronza igna, bigizlar, sopol

¹⁸ Etimologiyasi Xovar zamin, Quyoshning yeri demakdir.

idishlar topilgan. Bu topilmalar qo'shni Marg'iyona, Boxtar va So'g'diyona topilmalariga o'xshab ketadi.

“Avesto” jamiyatni to'rt tabaqaga bo'ladi. Ruhoniylar koinlar (atravanlar); jangovarlar-harbiylar (ratayistralar); peshovar hunarmandlar (xutlar), va kishovarlar – dehqon-chorvadorlar (vastyra-fshuyant). Aynan mulkdorlar va tovongarlar jamoasi bo'lgan “Avesto” olami peshovar va barzgar (qo'shchilar)ni yuqori tabaqa xizmatkorlariga aylantirilgan edi. Jamiyatning bunday tabaqalashuvi qadimgi, ya'ni zardushtiylikkacha bo'lgan an'analarini o'zida aks ettiradi. Bu an'analar ayrim o'zgarishlar bilan ko'p asrlar – “Avesto”dan keyingi davrlarda ham saqlanib qoladi.

Mazkur kitobda munajjimlar, tabiblar, munshiy va dabirlar, ya'ni qalam ahlining tilga olinmasligi hayratlanarlidir.

“Avesto”da aqliy mehnat namoyandalari biror bir tabaqa yoki sinf sifatida tilga olinmagan. “Avesto” davri jamiyatining to'rt tabaqalik tizimi Firdavsiyning “Shohnoma”sida ham tilga olinadi.¹⁹ Bir tabaqadan boshqa bir tabaqaga o'tishni “Avesto” qat'iyon man qilardi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, faqat shohning inoyati va maxsus farmoni bilan biror bir xizmat ko'rsatgan kishiga faqat jangchilar tabaqasiga o'tkazilishi mumkin edi. Ruhoniylar tabaqasiga o'tish mutlaqo mumkin bo'lmagan.

Ruhoniylarning asosiy qismini mo'badlar tashkil qilgan. Ularning asosiy vazifalari otashkadalardagi xizmatlardan, muqaddas olovni saqlashdan, ta'ziya, qurbonlik marosimlarni boshqarishdan, duo, alqovlar, namozlarni ijro etishdan, tug'ilish, o'lish, uylanish marosimlarida qatnashish va ularni boshqarish, diniy bayramlarni tashkil etish, kurash musobaqalarini o'tkazish, yosh bolalarga ta'lim berish, gunohkorlar gunohlarini kaffora evaziga kechirishdan iborat bo'lgan.

Ahamoniylar davrida ruhoniylar faqat diniy ishlar bilan shug'ullanishgan. Biroq ashkoniylar davridan boshlab, ular davlat kengashlari (mehistonda) qatnashib, siyosiy faoliyat ham ko'rsata boshladilar. Sosoniylar davrida esa

¹⁹ Qarang: Shohnoma, jildi II – S. 123.

mo'badlar, asosan, siyosiy va davlat ishlari bilan shug'ullanib, qolgan barcha vazifalarini o'z shogirdlari *zutlar* va *rosbilar*ga yukladilar.

Ruhoniylar quyidagi daraja va maqomga ega bo'lganlar:

Zutar – zaotar (zuta, ashulachilar) “Yasna” matnlarini o'qiydigan, u bilan aloqador rasm-rusumlarni bajaradigan asl mo'bad. Bugungi kunlarda uni faqat bittagina yordamchisi bor. Uni *rasvik* – *raswik* (rosbi, olovga qaraydiganlar) deydilar. “Avesto” hamda sosoniylar davrida uning oltita (olti amshospandga o'xshash) yordamchilari bo'lgan. Yettinchi yordamchi zutarning orqasida turgan va uni «sraqāvarza» - *srushovarza* derdilar. Uning vazifasi butun marosim tartibini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Mubadlar ruhoniylarning muhim bir qatlami sifatida “Avesto” jamiyatida katta mavqe'ga ega bo'lganlar. “Avesto”da ularni “*atharavan*”, paxlaviy tilida “*asrōn*” (*asrōk*) deb ataganlar. Ularning uchinchi nomlari “*kohin*” yoki umuman jamoa ulug'i sifatida “Avesto”da faqatgina bir marta kelgan “*moyu*” (*mag'uy*), qadimiy fors tilidagi “*maguy*” (*mug'*)ga to'g'ri keladi.

Ahamoniylar davrida *mug'lar* yuqori tabaqadagi ruhoniylar sifatida barcha viloyatlarda din boshqaruvi va dinni barcha imperiya hududlarida tarqatish uchun katta hissa qo'shdilar. Somoniylarning birinchi shohanshohlarida *mug'larni* «*magu mart*» - *Magu Mart* derdilar. Ularning ichidan eng yuqori martabali ruhoniylar «*magupat*» (*magu pat*) mo'bad nomi bilan atalgan *kohin* chiqqan. Sosoniylarning oxirgi davrlarida barcha zardushtiy ruhoniylar *mubad* nomini oldilar, biroq eng ulug' mo'badni «*magupaton magupat*» (*Magupatan madupat*) mo'badi *mubadon*, barcha mo'badlar mo'badi deganlar. Bundan tashqari, ruhoniylar martabasiga o'tgan va o'z shogirdlariga ega bo'lganni “*hirpat*” (“Avesto”dagi - *Aeθrapaiti*) deydilar. Bugungi kunlarda hind zardushtiylari birinchi bosqichdagi *hirpat* mo'badni “*novar*” deydilar. *Novar* kam ahamiyatli kichik marosimlarni boshqara oladi. Biroq u “*Videvdod*”, “*Yasna*” va “*Visparad*” marosimlarini boshqara olmasa ham ishtirok etishi mumkin. Ikkinchi darajada *hirpat* “*martab*” (*martab*) maqomiga ko'tariladi va barcha marosimlarni boshqara oladi. Mo'badlardan ham yuqori maqomga “*dastur*”lar turadilar. Ular barcha ibodatxona va otashxonalarini hamda

diniy muassasalarni boshqarardilar. Pahlaviy tilida bu istiloh “mo’badi buzurg” nomi bilan tilga olingan. Dasturi dastur zardushtiylar jamoasining rahbari sifatida faqat shohanshohdan pastroq turgan.

Ardasleri Bobakon davrida barcha ruhoniylar soliqlardan ozod qilindi va ularning foydasiga ushr solig’i joriy qilindi. Ularga mol mulklar va katta imtiyozlar berildi. Natijada, kuchayib ketgan ruhoniylar davlat ishlariga aralashib, shohanshohlarni taxtdan olib, o’zlarining nomzodlarini shohlikka ko’tarardilar. Shopur I, Hurmuz I va Bahrom II davridagi mo’badon mo’badi Kartir/Kardar yozishmalarida (Taxti Rajab, Persepolda) uning qancha katta qudratga ega bo’lganini ko’rish mumkin²⁰.

Ashkoniylar hukmronligining oxirlarida Zardusht dini zaiflashadi, zero Ashkoniylar hukmronlari yunonliklarning urf-odat va dinlariga moyil edilar. Sosoniylar hukmdorlari davriga kelib, din va davlat ishlari birlashtirildi va ruhoniylar eng yuqori hurmat ehtirom darajasiga ko’tarildi. Din va mulkchilikning hamzod hamda bir-birini himoya etishlarini Firdavsiy ham “Shohnoma”da keltiradi. Ardasher Bobakon o’g’li Shopur I vasiyat tariqasida “din va mulkning bir juft ekanliklari va biri ikkinchisini himoya etishini” uqtirib aytgani rivoyat qilinadi²¹.

Shuning uchun ham, aksar Sosoniylar mug’larni o’zlariga yaqinlashtirib, ularga katta mansab va ixtiyor berganlar. Ularni qo’llab- quvvatlaganlar. O’z navbatida, ruhoniylar ham o’z homiylarini qo’llaganlar, ularni maqtab, hukumatlarining kuchayishiga zo’r berganlar. Aks hollarda ruhoniylar shohlarni taxtdan tushirganlar. Masalan, Qubod Mazdakka yon bosgani uchun taxtdan mahrum va o’limga mahkum bo’ldi. Uning o’g’li esa Xusrav I barcha mazdakiylarni o’ldirib, “Odil Anushervon” laqabini oldi; Bahrom I Moniy terisini shilib olgani uchun Halim shoh nomini olgan; Yazdigurd I esa nasroniylarga yon bosgani uchun “Shohi bazahgar” (gunohkor shoh) nomini oldi.

Jangovarlar:

²⁰ Qarang: Avesto. Yasht Kitobi. Mitra alqovi (10- Yasht: Mehr Yasht). 14. (M. Is’hoqov tarjimasi). – B.48.

²¹ Shohnoma, jildi II. – S. 32.

Ular (egallagan mol-mulklariga qarab) ikki toifaga bo'linardilar: yuqori mansab va past mansabdagi jangovar/jangchilar hamda ularning farzandlari va oilalari. Jangovarlik ham meros bo'lib, barchalari aslzoda sanalardilar. Tinchlik vaqtida ular shoh saroyida xizmat qilib viloyat va chegaradagilar astondorlik, marzbonlik qilardilar, yer va molu mulklarining boshqaruvi bilan mashg'ul bo'lardilar. Urush va yurishlar davrida o'z piyoda va suvoriylari bilan saroyga hozir bo'lib, qo'shin qanotlarini boshqarardilar. Past mansabdagi jangovarlar, asosan, otliq askar sifatida qo'shinga qo'shilib, yurish va jangga tayyor bo'lardilar. "Avesto" davridagi qo'shin, asosan, muayyan hudud aholisi (etno-territorial) asosida tuzilar edi. Harbiy unvon va mansablar qo'yidagicha bo'lgan:

1. Vuzur farmondor (ulug' farmondor. Yurishlar vaqtida poytaxtda qolib, shohanshoh noibi bilan birga mamlakatni idora etardi).
2. Eroniyspahad (barcha qo'shin qo'mondoni). 3. Ispahad (otliq qo'shin qo'mondoni). Bayg'onsolor (piyodalar qo'shini qo'mondoni). 4. Artishtoronsolor (armiya/front qo'mondoni). 5. Gundsolor (bir qanot qo'mondoni). 6. Dirafshsolor (dasta/tug' qo'mondoni). 7. Satrap (nohiya shohi). 8. Astondor (aston qo'shinining qo'mondoni). 9. Argbad (qal'abegi).
10. Aronsipahboz (nohiya harbiy ishlarining vaziri).

Manbalarda jangovarlar oilalaridan yetti xonadon Vispuhar nomi bilan tilga olinadi va ulardan eng mashhur sulolalari Spandiyor, Ispahbud, Mehron, Suran va Koran ekani qayd qilinadi.

Bundan tashqari, shohanshohning shaxsiy gvardiyasi (gurdon), sipohi jovid (abadiy shoh xizmatida bo'lganlar), shahriston dastalari, qal'alar va chegaradagi qo'shinlar ham harbiy tizim doirasida amal qilardilar. Yana harbiy tizimda dehqon va rustoqlar aholisi hisobidan yuzlab boshqa amal hamda mansablar bo'lgan (suyursotchi, shotir, mehtar, chopar, borbar, borovodor va hokazo).

Jangovarlar ham barcha soliqlardan ozod edilar, qimmatbaho kiyim kiyish, qurol – aslaha olib yurishga haqlari bo'lib, oila a'zolarini ipak matodan kiyim kiyish, zebu ziynatlar bilan yurish uchun haqlari bo'lgan.

Yilda bir marta shahanshohning shaxsan o'zi qo'shinlarni ko'rikdan o'tkazib, yaxshi xizmat qilganlarni taqdirlagan, harbiy qoidalarini buzganlarni jazolagan. Butun davlat hududi to'rtta harbiy okrugga bo'lingan. Har bir okrug harbiy boshlig'i markazdan tayinlanib, bevosita shahanshohga bo'ysungan. Bosib olingan hududlar va chegara hududlarda harbiy gornizonlar joylashtirilgan. Ahamoniylar qo'shinlarining harbiy tartibi haqida Gerodot va Kursiy Ruf batafsil ma'lumotlar beradilar. Bu ma'lumotlarga ko'ra, ularning asosiy harbiy qurollari qilich, gurzi, o'q-yoy, qalqon, xanjar, harbiy bolta va nayzalardan iborat bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ahamoniylar bosib olgan barcha hududlar satrapiya hokimliklarga bo'lingan bo'lib, ularni fors podsholari tomonidan tayinlab qo'yilgan satrap – hokimlar boshqarganlar. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, Boxtar XII satrapiya bo'lib 300 talant (talant – Bobil pul birligi bo'lib, 1 talant 30 kg dan ziyodroq kumushga teng), saklar va kaspiylar XI satrapiya bo'lib, 200 talant Xorazm, So'g'd, Parfiya va Ariya XVI satrapiya bo'lib, 300 talant miqdorda yillik soliq to'lar edilar. Shuningdek, O'rta Osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham fors podsholariga berib turganlar.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Xorazm ham rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Xorazm tadqiqotlari natijalariga qaraganda, VI-IV asrlarda bu hududda yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Bu davrda Xorazmda inshootlar qurilishida xom g'isht, paxsa ishlatilgan. Manzilgohlar va turar joylardan topilgan topilmalarning boy va qashshoqligi bu yerda mavjud bo'lgan ijtimoiy va mulkiy tengsizlikdan dalolat beradi. Shaharlar aholisining asosiy mashg'uloti hunarmandchilik bo'lgan. Topilgan ko'plab sopol, bronza, temir buyumlar fikrimiz dalilidir. Xorazmda bu davrda mahalliy o'troq aholidan tashqari, ko'chmanchi chorvadorlar ham yashagan bo'lib, ular o'rtasida doimiy harbiy to'qnashuvlar, iqtisodiy va madaniy munosabatlar bo'lib turgan.

O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylar madaniyat yodgorliklari bunyod etilishida katta hissa qo'shdilar. Bu davrda ilk marta O'rta Osiyo xalqlari zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar. O'rta Osiyo hududidan ahamoniylar pul tartibiga oid oltin dariklar va boshqa tangalar topilgan. Ahamoniylar davrida

ko'pgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi – butun jahon tarixida, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim davr bo'lib qoldi. Bu o'rinda O'rta Osiyo hududidagi xalqlar va qabilalarning ham hissassi nihoyatda katta bo'ldi.

Peshavarlar (hunar ahli), asosan, shahar aholisi va hunarmandlardan iborat bo'lgan. Ular yilda uch marta soliq to'lardilar va markaziy davlat tomonidan tayinlangan maxsus mufattish (harbiy va mudofaa ishlar bo'yicha), nozir (soliq masalasi bo'yicha) va mubassir (grajdanlik ishlari bo'yicha) amaldor tomonidan nazorat qilinardi.

Kishovlarlar, ya'ni ziroatchi, qo'shchilar “Avesto” jamoasining eng past tabaqasi hisoblanardilar. Ular jangovarlar va ruhoniylar yerlarida ishlab, mulk egalariga “begor” kabi majburiyatni yil davomida bajarib, davlatga esa yer va jon solig'ini to'lardilar. Urush va harbiy yurishlar paytida piyoda askarlar sifatida xizmatga jalb qilinardilar. Tinchlik paytida mulk egasi yerida yilida bir marta “begor” majburiyatini bajarardilar. Ulardan katta miqdorda soliq olinardi. Masalan, bir jarib (1 ga) ziroatli yerdan bir dirham, bir jarib tokzordan sakkiz dirham, bir jarib sholi ekilgan maydondan besh dirham soliq olinardi. Har bir ziroatchi 30 yoshdan 50 yoshga to'lgunga qadar jon solig'i ham to'lashga majbur edi.

“Avesto” davri jamiyati markazlashgan davlat tomonidan boshqarilgan. Eng oliy hukmdor shohanshoh bo'lib u barcha qudratni mutlaq o'z qo'liga olgan edi. Doro I (eramizdan oldingi 521-486) kitobalarida shunday yozuvlar uchraydi: Ahuramazdo yer ishlarida xalalni ko'rdi va uni menga topshirdi va men uni to'g'ri tartibga keltirdim. Shuning uchun Ahuramazda fazli ila men Forsdan tashqari mening tasarrufimdagi o'lkalarga ham hukmronlik qilaman, menga ular boj to'laydilar, aytganimni bajo keltiradilar, u yerlarda qonun hukmronidir”²².

Behistun bitiklarida ham u yozgan: Ahuramazdo shohlikni menga ato etdi. Ahuramazdo menga yordam berdi, toki bu mamlakatlarni qo'lga kiritsam. Ahuramazdo fazli ila men saltanatga ega bo'ldim... Xuziston menga qarshi isyon ko'tardi... Qo'zg'alganlar sardorini huzurimga olib keldilar, uni qatl

²² M.M. Dyakonov. Ocherki istorii drevnego Irana. – M., 1974, S.104.

ettirdim...Shundan so'ng xuzistonliklar mendan qo'rqdilar va Ahuramazdo ularni menga berdi va men Ahuramazdo irodasini bajo keltirib, xohlaganimni qildim²³.

Uning ramziy ilohiy hukumati "farrahi ezidiy" ("Avesto"dagi "farra Ahuramazda") bo'lib, Ahuramazda tomonidan odamlar ustidan boshqaruv huquqini olganining belgisi edi. Shohanshoh hukumati faqatgina Ashkoniy shohlari davrida mo'badlar tomonidan birmuncha cheklandi. Biroq tez orada shoh mutlaq hokimiyatini qayta tikladi. "Avesto" ham shoh hokimiyati va mulkdorlarni himoya qiladi va unda podshohlar haqqiga keltirilgan duolar juda ham ko'pdir²⁴. Ahmoniylar davrida shohning xohish-irodasi barcha qonun va diniy hukmlardan ham ustun bo'lgan. "Shohanshohlik davlat va diniy boshqaruvining eng oliy ko'rinishi, barcha fikr va jamoalardan ustun bo'lgan narsadir"²⁵.

Shohdan keyin eng yuqori amal bu Vuzruk faromodorga tegishli bo'lib, u ming nafardan iborat shoh soqchilarining qo'mondoni hisoblanib, "hazorbad" (ming kishidan iborat qo'shinning qo'mondoni) unvoniga ega edi. Shu bilan birga, u barcha saroy ishlariga mas'ul va vazirlarning ustidan boshliq bo'lgan. Keyingi vazifa va amallar:

Shohhomordabir (barcha boyliklar vaziri), ganjhomordabir (xazina vaziri), doddabir (adliya vaziri), kodohomordabir (siyisxona dabiri, miroxur), otashhomor (otashxonalar ta'minoti bo'yicha vazir), ravangondabir (vaqf mulklari vaziri), erondabirbad (devon boshlig'i), artishtoronsolor (barcha qo'shinlar qo'mondoni), andarzbadospvargon (otliqlar o'qituvchisi), suturpizishk (baytor) va hokazo.

Hududiy bo'linish. Qoyatosh bitiklari va Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, ahamoniylar davlati hududi 20 ta qaram-ma'muriy qismlarga – satraplarga bo'lingan. Tadqiqotchilarning fikricha, forslar davlat boshqaruvining bu an'alarini midiyaliklardan o'zlashtirganlar. Satraplar yirik hududlarga ega bo'lib, ko'pincha bir necha viloyat va o'lkalarni o'z tarkibiga birlashtirgan. Masalan, Parfiya, Girkaniya, Areya, Xorasmiya va So'g'diyona bitta satrap tarkibiga kirgan. Satraplarning chegaralari ayrim hollarda o'zgarib turgan.

²³ O'sha joyda.

²⁴ Avesto. Yasht Kitobi. Mitra alqovi (10- Yasht: Mehr Yasht). 14. (M. Is'hoqov tarjimasi). – B.47-48.

²⁵ Avesto. Yasht Kitobi. Mitra alqovi (10- Yasht: Mehr Yasht). 14. (M. Is'hoqov tarjimasi). – B. 105.

E'tibor berish lozimki, ahamoniylar davlatida satraplar etnik kelib chiqishiga qarab emas, balki iqtisodiy salohiyatiga qarab tashkil etilgan. Satraplar shahanshohning noibi sifatida asosan forslardan tayinlangan. Satrapning ma'muriyati va boshqaruvi shahanshoh ma'muriyati hamda markaziy boshqaruv apparatini qisqartirilgan holda takrorlagan. Ya'ni, satrapda ikkita yordamchi, devonxona va mirzalar bo'lgan. Bir vaqtning o'zida satrap o'zi noiblik qilib turgan hududda bosh qozi vazifasini ham bajargan. Ayrim hollarni istisno qilganda, satrap harbiy boshliqlik vazifasini bajarmagan. Misol uchun, Doro I barcha satraplarning harbiy vazifalarini bekor qilgan va ularga faqat o'ziga bo'ysinuvchi harbiy boshliqlarni jo'natgan. Satraplarning faoliyati markazdan qattiq nazorat ostiga olingan. Hattoki, shahanshoh huzuridagi amaldorlar tez-tez kelib satraplar faoliyatini tekshirib turganlar.

Adliya ishlarining barchasini shohning o'zi nazorat qilardi. Navro'z va Mehrgon bayramlarida hamda qabul vaqtida, o'tirishlarda ham shoh sud va adliya ishlarini olib borgan. Biroq da'vo bilan shohga faqat maxsus qozilar – dodsiton orqali murojaat qilish mumkin edi. Bu uchun shahardovar (shahar qozisi), roderon (mamlakat qozisi), sipohdovar (qo'shin qozisi) degan amallar joriy qilingan edi. Diniy masalalar bo'yicha ishlar ruhoniylar zimmasida bo'lgan. Gerodot ma'lumotiga qaraganda, ahmoniylar davrida adliya ishlarini olib boradigan yetti nafar fors va midiyalik asilzodalardan iborat kengash tashkil qilingan bo'lib, ular adliya ishlariga mas'ul edilar. Shoh yetti xiradmandlar kengashi va qozilar tomonidan chiqarilgan qaror va jazo turlari ham ko'p edi. Bular turli yo'llar bilan amalga oshiriladigan o'lim jazosidan boshlab, jismoniy jazolar, moddiy jarima va turli sinovlardan (issiq va sovuq – vaji garm va vaji sard imtihonlari)dan o'tishni, turli narsalarni yeyish, ichish bilan ont ichirishni taqozo qilinardi. Bu yerda Firdavsiy "Shohnoma"sidagi Siyovushning Sudoba tuhmatiga giriftor bo'lib, aybsizligini isbotlash uchun olov bilan imtihon qilinganini misol tariqasida tilga olish kifoya qiladi.

Gunohkor uch xil ayblanishi mumkin edi. 1. Diniy gunoh, jinoyat. 2. Ra'iyatning shoh va davlatga nisbatan jinoyatlari, ya'ni siyosiy gunoh.

3. Shaxsning boshqa shaxsga nisbatan jinoyati. Jazo tayinlash jarayonida shaxsning qul yoki ozod ekani, jinsi va yoshi ham inobatga olingan. Zardusht dinida ba'zi hayvonlarga nisbatan qilingan jinoyatlar ham ko'rsatilgan. Jumladan, it va barcha xonaki hayvonlar Ahuramazda qo'shini qatorida sanalagani bois maxsus himoyaga olingan. Hayvonlarga yetkazilgan zarar va azob-uqubat uchun jazo belgilangan. Jazo belgilash jarayonida, asosan, "Avesto"ning huquqqa doir "Dotik" naskalaridan foydalanganlar. "Dotik", ya'ni dod va adolatdan iborat qismlar bo'lib, u "Nikotam", "Vandidod", "Havas", "Salotam" kitoblaridan iborat. Bundan tashqari, zardushtiy ruhoniylari tomonidan pahlaviy tilida yozilgan "Modigoni hazordaston" (ming qonunchilik masaladan iborat kitob), "Dinkard" (Ozarpat xati bilan IX asrda yozilgan), "Dodsitoni dinik" (IX asrning oxirlari), "Bundahishn", "Artavirafnomak", "Xudoynomak" va boshqa asarlar ham zardushtiylar jamoasidagi "Avesto" huquqi manbalarini tashkil qilgan.

"Avesto" davrida yashayotgan jamiyatda oila va nikoh hamda meros masalasini o'rganish juda qiziqarli, shu bilan birga, juda muhimdir. Bu mavzuni o'rganishda bizga "Avesto" bilan birga boshqa yozma manbalar va mavjud tadqiqotlar yaqindan yordam beradi. Qadimiy o'lkamizda uzoq muddatlar hukmron ideologiya sifatida amal qilgan "Mazdoyasno", otashparastlik va zardushtiylik o'sha qadimiy jamoaning ijtimoiy munosabatlar asosini tashkil qilgan. Oila va nikoh ham Zardusht diniga binoan uning asosiy g'oyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Zardushtiya dinida oila muqaddas sanalgan va oilasiz yashash man qilingan. Farzandi bo'lmagan odamlar Chinvot ko'prigidan o'tib ezgulikka erisha olmasdi. Manbalar va ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oila qurish bir majburiy vazifa bo'lgan.

"Avesto" (Yasno, Goh 32, 1 band) da oila "xavoitush – xaētuq" deb nomlanadi. Undan tashqari, shu joyda muayyan hududda yashayotgan qabila, avlodni "vərəzənəm" virizinam nomi bilan ataladi. Qabiladan katta uyushmaning nomi ulug', buyuk, ya'ni xalq, elat ma'nosidagisini "Avesto"da "airyamnā" (airyamno) deyishgan. "Damon" yoki "nimon" oila, xonavoda yashaydigan mahal va manzildir (qiyoslang: tojikcha xonumon = xona+ nimon). "Vis" bir nechta

xonavoda yashaydigan mahal, deh, qishloq deyilgan. “Zantu” esa bir-birlariga yaqin bo’lmagan, biroq muayyan xonavodaga emas bir zan –ayolga yaqin oilalarning yashash joylari. Zantuga tegishli guruhni mazkur matnda “airiman” deyishgan. “Dahiyu” / kishvar, mamlakat millat yoki bir elat yashaydigan hududdir. Uni “dahiyupaiti” – dehpat boshqargan. Shunday qilib, “Avesto” olami jamiyatini oila, avlod, qabila, elat, ular yashaydigan deh va mamlakat tashkil qilardi²⁶.

Eng yirik uyushma “daxyusasti” (viloyatlar ustidan hukmronlik yoki viloyatlar uyushmasi) edi. Bunday uyushmaning hukmdori “butun daxyular daxyupatisi” deb atalgan. Qiyosiy tahlillar asosida ahamoniylar davridagi “shohlar shohi” unvoni ushbu “Avesto” unvoniga borib taqalashini taxmin qilish mumkin. “Avesto”da shuningdek, “kavi”, “sastar” va “xatra” kabi boshqaruv bilan bog’liq bo’lgan unvonlar ham uchraydi. “Kavi” (forschada “kay”) unvoni “Avesto”da ko’p uchraydi. Bu unvon nafaqat katta o’lkalar podsholari, balki kichik mulklar hukmdorlariga ham berilgan. Qal’alar, tumanlar va viloyatlar hukmdorlari “Sastar” unvoni bilan atalgan. “Hokimiyat”, “qudrat” ma’nolarini beruvchi “xshatra” unvoni tumandan tortib o’lkalar hukmdorlarigacha berilgan. Misol uchun, Behistun yozuvlarida podsho Doro I ushbu unvon bilan tilga olinadi.

«Avesto»da yig’in yoki yig’ilish ma’nosidagi «hanjumana» (yangi fors tilida «anjuman») so’zi uchraydi. Aftidan, dastlabki paytlarda podsho hokimiyati saylab qo’yilgan. Chunki, «Shohnoma» ma’lumotlariga ko’ra kayoniylar (kavilar) sulolasining asoschisi Kayqubod kavilar umumiy anjumanida Eron podshosi qilib saylanadi. «Avesto» ma’lumotlariga ko’ra, podsho (daxyupati) bir vaqtning o’zida bosh harbiy va bosh qozi (sudya) hisoblangan. Podsho o’zining harbiy gvardiya (pahlaviy tilidan olingan gurd, qahramon sifatida) ega bo’lgan. Viloyat va harbiy holatlarda bu drujinalar shoh ixtiyorida bo’lgan.

Miloddan avvalgi VI asrning o’rtalariga kelib, Erondagi Ahamoniylar sulolasi hukmdorlari Qadimgi Sharqdagi ko’pgina mamlakatlar ustidan, jumladan,

²⁶ Qarang: Avesto. Yasht Kitobi. Mitra alqovi (10- Yasht: Mehr Yasht). 14. (M. Is’hoqov tarjimasi). – B.50.

O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Boxtar, So'g'diyona, Xorazm, "Saklar o'lkasi" ustidan o'z hokimiyatini o'rnatdilar. Ahamoniylar davrida bitilgan mixxat manbalarda O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari haqida turli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

«Avesto» jamiyatida qullar ham bo'lgan. Biroq ular qachonki ahamoniylar boshqa mamlakatlarni bosib olganlarida paydo bo'ladilar. Shuning uchun ham barcha qullar boshqa xalqlarning namoyandalaridan iborat bo'lgan. Qullarning egasi qo'l ostidagi qullarni o'z mulki sifatida bilardi. Qullar urushlarda qo'lga olinardi, bozorlarda olib-sotilardi. Boshida qul onadan tug'ilgan farzandlar ozod hisoblanardi va boshqa farzandlar qatorida teng huquqqa ega edilar. Bahrom V davrida (420-439) ularni o'z onalari kabi qul sanaydigan bo'lishdi. Ularni ham sotish, hadya etish mumkin bo'ldi. Qul faqat qul kanizakka uylanishi mumkin edi. Olamga kelgan farzandlar ham qul maqomiga ega bo'lib, xo'jayinning moli hisoblanardilar. «Avesto» jamiyatida qullar muayyan huquqlarga ega bo'lganlar. Ularga aziyat berish man qilingan edi. Qulning oldingi egasi qulga yangi egasi yomon munosabat qilayotganini bilsa, uni qaytarib, o'z uyiga olib ketishi mumkin bo'lgan.

Qul har bir o'n kunda bir kun ozod edi. Qullarning o'ninchi farzandi tug'ilishi bilanoq ozod hisoblanardi.

«Motikoni hazor dodsiton»da keltirilishicha, qul xo'jayini qarzlariga javob bermaydi. Qulning o'z mulki ham bo'lgan. U xo'jayini va boshqa shaxslar tomonidan unga berilgan mollarni o'zida saqlashi, undan foydalanishi, uni sotish yoki sotib olishi mumkin bo'lgan. Qul agarda aqldan ozsa, uning mulki egasining quliga o'tgan²⁷.

Ardasher Bobakon davrida «Avesto» jamiyati va uning tarkibidagi o'zgarishlar katibalarda o'z aksini topadi. Endi jamiyatda paydo bo'lib, o'z maqomlariga ega bo'lgan o'qituvchilar, yozuvchilar va shoiru munajjimlar ham jamiyatda muayyan joy va maqomga ega bo'ldilar. Bu haqda Tansir (Ardasher Bobakonning vaziri) nomidan katibalarda shunday ma'lumot uchraydi:

²⁷ M.M. Dyakonov. Ocherki istorii drevnego Irana. – M., 1974, S.70.

«Bilginkim, mazdoyasno dini odamlarni to'rt tabaqaga bo'lgan va bu tabaqalar odam jismining to'rt ustuni kabidir. Uning boshi poshsho va birinchi uzvi ruhoniylarkim, mug'lar, qoziylar, nazoratchilar va muallimlardan iborat. Ikkinchi a'zo jangovarlar. Ular otliqlar va piyodalardan iborat. Uchinchi a'zo dabirlar, ya'ni yozuvchilar, hisobchilar va hukmu farmoyish yozadiganlar, shoirlar, tabiblar va munajjimlar. To'rtinchi a'zo esa kasbu kor egalari, ya'ni peshavar va kishovarlardirlar. Bunday tabaqalanish toabadgacha tartib va intizomning tayanchidir»²⁸.

Olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil etilar ekan, qadimgi davrdagi O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi aholi tarixini tadqiq etish bir necha sabablarga ko'ra katta ahamiyat kasb etishi kuzatiladi. Ushbu ahamiyatli holatni quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, bu davrda aholining tabiiy hududlar bo'yicha xo'jalik jihatdan tabaqalanishi sodir bo'ladiki, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyo va Qozog'istonning asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan janubiy hamda chorvachilik bilan shug'ullangan shimoliy hududlarini ajratish va o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Ikkinchidan, dehqonchilik va ishlab chiqaruvchi iqtisodga erta o'tish dehqonchilik jamoalari sonining ortishini hamda ilk shaharlarning rivojlanishini belgilab berdi va demografik jihatdan ta'sir ko'rsatib, ortiqcha aholining turli arxeologik madaniyatlariga va xo'jalik yuritish tartibiga mansub bo'lgan tabaqalarning ko'chib ketishiga turtki berdi. Uchinchidan, O'rta Osiyo hududida murakkab etno-madaniy jarayonlarning sodir bo'lishi, hozirgi zamon o'lkamiz xalqlarining shakllanishida uzoq qadimga borib taqaluvchi mahalliy unsurlarning ustunligi, qadimgi davrlar bilan bevosita bog'liqdir. To'rtinchidan, aynan mana shu aholi ilk shaharlar madaniyatini rivojlantirish jarayonida o'lkamiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning boshqaruvchilari bo'lib, ularning ilk dehqonchilik manzilgohlari va dastlabki shaharsozlik madaniyatining yaratuvchanligi xususiyatini ham alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

²⁸ M.M. Dyakonov. Ocherki istorii drevnego Irana. – M., 1974, S.71.

Shunday qilib, mazkur mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin: «Avesto» mazmuni, qadimiy bitiklar, turli tillardagi manbalar hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari bugungi kunlarda quyidagi natijalarni olishga imkon beradi.

1. Zardushtiylik Eron va Turon xalqlarining qadimiy diniy e'tiqodlaridan bo'lgan.

2. Zardusht tarixiy shaxs bo'lib, Boxtarda, uning hokimi Vistashpa va malika Xutaosya saroylarida Mazda Yasna – Mutlaq Oqil Zot dinini targ'ib etgan.

3. Zardushtning olamga kelishi va faoliyati ikki daryo oralig'i, ya'ni Sirdaryo va Amudaryo o'rtasidagi hududlarda sodir bo'lgan.

4. Zardusht targ'ib qilgan Mazda Yasna dini boshqa jahon dinlarning shakllanishiga katta ta'sir etgan.

5. Zardushtiya va unga yaqin ta'limotlar qadimiy dunyoning diniy-falsafiy sistemalari doirasida muhim o'rin egallaydi.

6. Zardushtiya o'z negizida payg'ambarlik g'oyasi mavjud bo'lgan eng qadimiy dinlardan biridir (unda bu g'oya Budparastlik va yahudiylik dinida keltirilgan payg'ambarlardan ham oldin foydalanilgan).

7. Zardushtiyalik birinchilardan bo'lib ezgulik va yovuzlikning o'zaro aloqalari, olam va tabiatda insonning o'zni, tarixiy jarayonlarga uning ta'siri, narigi olamda ajru mukofoti haqidagi ta'limotlarni olib bordi.

8. Zardusht dini jahon dinlari darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa ham, u qadimda boshqa diniy falsafiy aqidalarni qabilaviy, mahalliy qadriyatlardan milliy va umumdavlat dinlar darajasiga ko'tarilish uchun zamin yaratdi.

9. Zardusht yashagan davr va "Avesto" zamoni bu monogam oilalar va xususiy mulkning shakllanishi, davlatchilik unsurlarning paydo bo'lishi, protoshahar, shahar, shahar-davlatlar, davlat va konfederatsiyalarning paydo bo'lgan davrini qamrab oladi.

10. Zardushtning diniy-falsafiy ta'limoti islomgacha bo'lgan davrda muayyan jarayonlar, rivojlanish va o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Islom

davrida va o'rta asrlarda ham u turli o'zgarish hamda transformatsiyani boshdan kechirgani ma'lum.

11. Zardusht va uning kitobi, yangi tahlil hamda talqinlarga keng imkoniyatlarni ochgan. Bu ilmiy yo'nalishning Vatanimizda ham kelajakli istiqboli mavjud.

Bobning xulosasi sifatida ta'kidlash mumkinki, "Avesto" dunyoga kela boshlagan davrda Markaziy Osiyo va Eronda davlatchilik allaqachon shakllangan edi va bu hol "Avesto"ning mazmun-mohiyatida o'z aksini topgan.

- "Avesto" S.P.Tolstov ta'kidlaganidek, o'zining ko'p qatlamli va murakkabligi bilan e'tiborga loyiq. Unda aks etgan jamiyat va davlat doirasidagi rusum hamda qonun-qoidalar ma'lum bir tartibda izchil berilmasligi tabiiydir. Birinchidan, biz "Avesto"ning asliy matniga ega emasmiz. Ikkinchidan, hozirgi kunda fanga ma'lum bo'lgan va jahonning ko'pgina tillari (jumladan, o'zbek tiliga ikki mutarjim – M.Is'hoqov, A.Mahkam tomonidan)ga o'girilgan "Avesto"da qonun-qoidalarining asosiysi "Vendidod"da jamlanganiga ko'ra, bu tartib asliy matnda saqlangan bo'lsa kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

- "Avesto"da ijtimoiy tabaqalar xususida gap ketishi, aholining turli kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi jihatidan guruhlariga ajratilishi unda ilk davlatchilik atributlarining aks etganidan darak beradi.

- Mazkur yodnomada juda uzoq tarixga oid huquqiy atamalarning uchrashi unda davlat huquqi anchayin mukammal aks etganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, unda aks etgan qonunlar avvalo Aleksandr Makedonskiy, keyinchalik islom fathigacha zardushtiylik dini yetakchi bo'lgan hududlarda qonunlar majmui vazifasini ham o'tagani ma'lum.

"Avesto"da davlat chegaralari masalasi mifologik tasavvurlar asosida bo'lsa ham, ayrim o'rinlarda undagi joy nomlarini lokalizatsiya qilish imkoni tug'iladi. Uch ming yillik yodnomada bu kabi masalalarning ko'tarilishi qadim ajdodlarning siyosiy tafakkuri yuksak rivojlanganidan darak beradi.

2. Xorazm arxaik davri tarixiga oid yozma va arxeologik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili

XX asr 40-yillari oxirlaridan boshlab arxaik davr muammolarini o'rganish uchun yozma manbalar bilan birga arxeologik tadqiqotlar natijalarining keng jalb qilinishi boshlangan. Ularning tahlili dastavval S.P. Tolstovning "Qadimgi Xorazm", "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab", M.M. Dyakonovning "Shimoliy Baqtriyada sinfiy jamiyatning shakllanishi", Ya.G'. G'ulomovning "Xorazmning sug'orilishi tarixi", V.M. Massonning "Marg'iyonaning qadimgi ziroatchilik madaniyati" asarlarida o'z aksini topgan²⁹.

Yuz yildan oshdiki, Xorazm davlatchiligi tarixi olimlar o'rtasida qizg'in munozaralarning sababchisi bo'lib kelmoqda. Bu borada yozma manbalar bilan shug'ullanuvchi tarixchilar va arxeologlar o'rtasida ilmiy kelishmovchiliklar ham mavjud³⁰. Bu baxslar asosida fanda «Qadimgi Xorazm» va «Katta Xorazm» terminlari paydo bo'ldi. Afsuski, bu terminlarni bir-biridan ajrata olmaydigan tadqiqotchilar ham borki, bu masalani yanada chigallashtirmoqda³¹. Qo'yilayotgan masalaga bir tomonlama yondoshmaslik maqsadida Xorazm davlatchiligi tarixi bo'yicha tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini to'liqroq berishni lozim ko'rdik.

Ma'lumki, Gerodot o'zining "Tarix" kitobining uchinchi qismida Ak(es) daryosi va bu daryoga qurilgan to'g'on to'g'risida ma'lumot beradi³². Bu ma'lumotga ko'ra Akes daryosi Girkaniya, Parfiya, Tamaniya, Drangiana va Xorasmiyaliklar chegarasida joylashgan. Shu ma'lumotlarni asos qilib V.V. Bartold Qadimgi Xorazm davlati bo'lganligi to'g'risida yozgan edi³³.

Juda ko'plab tadqiqotchilar Akes daryosini hozirgi Turkmaniston

²⁹Tolstov S.P. Drevniy Xorezm... ; O'sha muallif. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii... ; Dyakonov M.M. Slojenie klassovogo obshestva v Severnoy Baktrii... ; Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani... ; G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilishi tarixi. – Toshkent: UzSSR FA, 1959. – 324 b.

³⁰Xlopin I.N. Istoricheskaya geografiya yujnix oblastey Sredney Azii. - Ashxabad, 1983.

³¹Asqarov A.A. Qadimgi Xorazm tarixiga doir ba'zi bir masalalar // O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. O'zR FA akademigi Karim Shoniyozov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman materiallari. - Toshkent, 2004. - B. 76-84.

³²Gerodot, III.17.

³³Bartold V.V. Iran. - Tashkent, 1926. - S. 17.

hududidagi Tejen daryosi bilan qiyoslaydilar³⁴. S.P. Tolstov esa Akes daryosini hozirgi Xorazm hududida bo'lgan deb hisoblaydi³⁵.

Gerodotning shu xabari asosida nemis orientalist olimi I. Markvart «Katta Xorazm» davlati g'oyasini ishlab chiqqan. Uning g'oyasiga ko'ra, ariylarni, marg'iyonaliklarni hamda Gerodot ta'riflagan Akes daryosi bilan chegaradosh mamlakatlarni xorasmiyaliklar boshqargan. Bu siyosiy birlashma O'rta Osiyo xalqlari Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgandan so'ng yemirilib ketgan, degan fikr I. Markvart g'oyasining asosini tashkil etadi. I. Markvartning «Katta Xorazm» davlati g'oyasi Gerodot asarida tilga olingan, O'rta Osiyoda joylashgan tarixiy va geografik terminlarni lokalizatsiya qilish natijasida tug'ilgan³⁶. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu g'oya Sovet tarixchilari uchun manba bo'lib xizmat qildi³⁷.

Gerodot ma'lumotlarini O'rta Osiyoning real qadimgi tarixiy geografiyasi bilan bog'lash uchun I.M. Dyakonov shunday yozadi: «girkaniyaliklar parfiyaliklar bilan bitta qabila - ittifoqqa kirgan» .

M.M. Dyakonov esa "Akes daryosidan xorasmiyaliklar, parfiyaliklar, girkanlar, ariylar va boshqa qo'shni viloyatlar birga foydalanganligi qandaydir qabilalar ittifoqi yoki ilk davlatlar birlashmasi to'g'risidagi fikrni beradi" degan g'oyani ilgari surgan³⁸.

V.V. Struve esa Xorazm davlatchiligi to'g'risida shunday yozadi: «...yozma manbalar bo'yicha gapiradigan bo'lsak, mil.av. VI asrda O'rta Osiyoda eng kamida ikkita siyosiy birlashma, yana ham aniqrog'i, davlatlar bo'lgan. Bular Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm, yuqori oqimidagi Baqtriya davlatlaridir. Ularning madaniy va siyosiy ta'sir doirasi ancha keng bo'lgan. Xorazm Kopetdog' etaklari va Tejen o'lkasini, mumkinki So'g'diyonani ham birlashtirgan bo'lsa, Baqtriya o'z hududidan tashqari Murg'ob o'lkalarini ham o'z ichiga olgan».

³⁴Markwart J. Wehrot und Arang. - Leiden, 1938, - R.10-12; Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani // MIA, 1959 . - № 73.

³⁵Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. - M.: 1948. - S. 341.

³⁶Markwart J. Wehrot und Arang. - Leiden, 1938, - R.10-12.

³⁷Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. - M.: 1948; Dyakonov I.M. Istorii Midii. - M.: L., 1956; Dyakonov M.M. Ocherk istorii Drevnego Irana. - M.: 1961; Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani. MIA, 1959 . - № 73; Xlopin I.N. Istoricheskaya geografiya yujnix oblastey Sredney Azii. Ashxabad, 1983.

³⁸Dyakonov M.M. Ocherk istorii Drevnego Irana. - M.: 1961. - S. 64.

Arxeologlar I. Markvart g'oyasiga tanqidiy ko'z bilan qaraydilar. Jumladan, V.M. Massonning fikricha "... arxeologlar shu kungacha Xorazm hududida joylashgan VIII-VII asrlarga, hech bo'lmasa VI asrga oid yirik yodgorlikni bilishmaydi. Bu shunday xulosani beradiki, Ahamoniylar davrigacha Xorazmda yirik davlat birlashmasi bo'lganligi arxeologik jihatdan isbotlanmaydi. Olib borilgan uzoq va keng arxeologik dala tadqiqotlari Xorazmda bunday davlat bo'lganligi to'g'risidagi g'oyani kun tartibidan hozircha chiqaradi"³⁹.

I. Markvart g'oyalarining arxeologik jihatdan tasdiqlanmayotganini ko'rgan V.B. Xenning va I. Gershevichlar ustozining fikrini biroz o'zgartirgan holda qo'llab-quvvatlaydilar. V.B. Xenning ustози I. Markvart kabi ariylarining vatani Aryanem-Vaydjoni Xorazm bilan bog'laydi. Aryanem-Vaydjoni keng hududda ko'rishni istaydi hamda Tejen va Murg'obni ham Xorazm hududiga kiritadi. «Avesto»ning vatani Xorazm emas, balki Tejen va Murg'obdir deb ta'riflaydi⁴⁰.

I. Gershevich esa Ahamoniylargacha bo'lgan «Katta Xorazm» siyosiy uyushmasini Xorazm hududida emas, balki Tejen va Murg'obdadir deb ataydi⁴¹. U Tejen va Murg'obdagi o'troq, rivojlangan dehqonchilik madaniyatining Xorazmdan ancha qadimiyligini o'z nazariyasining asosi qilib oladi.

V.M. Massonning "...nega unda bu birlashmani Xorazm deb atash kerak?" degan savoli tarix fanida uzoq vaqt ochiq turdi. Bugungi kunga kelib aniq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bu siyosiy birlashmada xorazmliklar yetakchilik qilgan va shuning uchun ham bu birlashma fanda Katta Xorazm deb atalmoqda.

I.N. Xlopin ham Katta Xorazm davlatining bo'lganligiga shubha bilan qarab, tarixiy va arxeologik manbalarni qayta ko'rib chiqdi⁴². Manbalarga Gekatey ma'lumotlarini ham qo'shdi⁴³. Ma'lumki, Gekatey ma'lumotlariga ko'ra, xorazmliklar parfiyaliklardan Sharqda istiqomat qilishgan. Shundan kelib chiqib, xorazmliklarning ajdodlari qachonlardir Tejen va Murg'obda yashagan, keyin shimolga Qoraqum orqali Amudaryo bo'ylarini o'zlashtirgan deb o'ylash mumkin.

³⁹Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani ... - S. 127.

⁴⁰Henning W.B. Zoroaster: Politician or Witch-doctor? - Leiden, 1951. - R.43.

⁴¹Gershevitch I. The Avestan Hymn to Mithra. - Cambridge, 1959. - R.298-299.

⁴²Xlopin I.N. Istoricheskaya geografiya yujnix oblastey Sredney Azii. - Ashxabad, 1983.

⁴³Pyankov I.V. Svedeniya Ktesiya o vladeniyax Bardii na vostokey Irana // VDI. - M.: 1961 №4. - S. 100.

Xorazmliklarning Tejen va Murg'obda yashashi va ko'chishi voqeasi Gekatey asarida, Akes daryosi Gerodot asarlarida ifodalangan. Lekin, bu arxeologik jihatdan isbotlanmaydi, ya'ni ularning ajdodlari Tejen va Murg'obda yashaganligi va shimolga ko'chganligini arxeologiya inkor qiladi⁴⁴, degan xato fikrga keladi. Fikrimizcha I.N. Xlopin yozma manbalardan yaxshi foydalangan va ularda ifodalangan tarixiy voqealarni jonlantirib, geografik nomlarni to'g'ri joylashtiradi. Ammo, Qadimgi Xorazmliklarning shimolga ko'chganligini arxeologiya inkor qiladi deb xato xulosa qiladi, negaki, mil.av. VI asrda Amudaryo deltasida Ko'zaliqir, Qal'aliqir kabi yodgorliklarning paydo bo'lishi buni isbotlaydi.

V.A. Livshits "Istoriya tadjikskego naroda" asariga yozgan bobida «Katta Xorazm» davlati g'oyasi to'g'risida o'z fikrini ifodalagan. U ham Gerodotning Akes daryosi to'g'risidagi ma'lumotini Tejen-Gerirud deb qabul qiladi. Xorazmliklar mil. av. VII-VI asrlarda keng hududni egallagan va hozirgi Xorazmdan ancha keng joylarni nazorat qilgan degan fikrda asos bor. Gekateyning Xorazmliklar Parfiyadan Sharqda joylashgan degan ma'lumotini Xorazmliklar o'sha yerda ham gegemonlik qilgan deb tushunmoq lozim. Ahamoniylargacha bo'lgan "Katta Xorazm"da qabilalarning harbiy- demokratik konfederatsiyasi bo'lgan, davlat birlashmalari paydo bo'layotgan davr deb baho beradi. Marv va Hirot bu konfederatsiyaning asosiy markazlari bo'lgan. Xorasmiyaliklar boshchiligidagi konfederatsiyaning Ahamoniylar davrigacha bo'lgan O'rta Osiyoning siyosiy tarixida o'rni katta bo'lgan⁴⁵.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba bo'lgan "Avesto"da Axuramazda barpo qilgan mamlakatlar qatorida, ya'ni Mauru, Baxdi, Nisayya mamlakatlaridan so'ng Xaroyu (Xorazm) ham tilga olinadi⁴⁶.

Demak, yozma manbalarning tahlili Ahamoniylar imperiyasiga qadar Qadimgi Xorazm davlatchiligi bo'lganligini tasdiqlaydi. Eslatib o'tganimizdek, ko'plab tarixchilar ham shu fikrga kelishgan.

Quyi Amudaryo va Orol bo'ylarida olib borilgan va olib borilayotgan

⁴⁴Xlopin I.N. Istoricheskaya geografiya ... - S. 32-44.

⁴⁵Livshits V.A. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya // ITN. - Dushanbe, 1963. - S. 152-153.

⁴⁶«Avesto». Videvat. V, 8.

arxeologik tadqiqotlarning so'nggi ilmiy xulosalari qanday? Shu borada arxeologik tahlil qilsak. Ma'lumki so'nggi bronza davrida (mil.av. II ming yillik) Yevroosiyo mintaqalariga xos bo'lgan Andronovo madaniyati Quyi Amudaryo bo'ylarida ham tarqalgan. Bu madaniyat sohiblari chorvador xalqlardan iborat bo'lib, hozirgi Qozog'iston va Sibir cho'l va o'rmonzorlarida istiqomat qilishgan. Quyi Amudaryo bo'ylariga kelib o'rtnashgan xalq qoldirgan moddiy madaniyat arxeologiya fanida Tozabog'yob madaniyati deb yuritiladi. Bu madaniyat Andronovo moddiy madaniyat birligining bir ko'rinishi bo'lib, mil.av. II ming yillik oxiri va I ming yillik boshida Oqchadaryo havzasida o'troqlashadi. Dehqonchilik madaniyati paydo bo'ladi. M. A. Itina Tozabog'yob madaniyati aholisining dehqonchilikka o'tishini janubning ta'siri deb baholaydi⁴⁷, jamoani boshqarishda matriarxat, ya'ni ona urug'i jamoasi bo'lganligini yoqlab chiqqan⁴⁸.

Mil.av. VIII-VII asrlarda Qadimgi Xorazm vohasida Amirobod va Quysisoy madaniyatlari tarqalgan. Bu madaniyatlar moddiy manbalarida ham rivojlangan janubiy viloyatlarning ta'siri sezilarli darajada kuzatilgan. Lekin bu madaniyatlarni yuqori rivojlangan yoki sinfiy jamiyatga erishgan deyish qiyin.

Bizga ma'lumki, o'z vaqtida S.P. Tolstov irrigatsiya shaxobchalari asosida Qadimgi Xorazm davlati nazariyasini ishlab chiqqan edi⁴⁹. Bu nazariya ham arxeologik jihatdan isbotlanmagan⁵⁰. Negaki, Xorazm hududidagi qadimgi kanallar vohadagi Ko'zaliqir yodgorligi asosida mil.av. VI-V asrlarda paydo bo'lganligi kuzatilmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan arxeologik ma'lumotlarga tayanib V.M. Masson "Ahamoniylar davrigacha Xorazmda buyuk davlat bo'lgan" degan nazariyani qo'llab-quvvatlamaydi⁵¹.

Amudaryo va Zarafshon bo'ylari irrigatsiya tarixi bo'yicha Ya.G'. G'ulomov va A.R. Muhammadjonovlarning izlanishlari sug'orish inshootlari

⁴⁷Itina M.A. Istoriya stepnix plemen Yujnogo Priaralya // TXAEE. T. X. - M.: 1977; Andrianov B.V. Rol irrigatsii v stanovlenii drevnix gosudarstv (Na primere Sredney Azii) // Ot doklassovix obshestv k ranneklassovim. - M.: Nauka, 1987. - S. 93.

⁴⁸Itina M.A. Istoriya stepnix plemen Yujnogo Priaralya ... S. 217.

⁴⁹Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. - M.: 1948. - S. 341.

⁵⁰Masson V. M. Eshe raz o gerodotovoy reke Akes // Ellinisticheskii Blijniy Vostok, Vizantiya i Iran. - M.: 1967. - S. 175.

⁵¹Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani ... - S. 127.

qurilishi va davlatchilik o'rtasidagi munosabatlar xarakterini ochib berdi⁵².

Mil.av. VII-VI asrlarda Xorazm hududida tarqalgan Quvisoy madaniyati etnik jarayonlarning shakllanishi borasida tarix fani uchun yangi ma'lumotlar berdi⁵³. B.I. Vaynbergning fikriga qaraganda Quvisoyliklar Eron tilli chorvador qabilalar bo'lib, mil.av. VII asrda Eronning shimoliy chegaralarida yashagan va so'ngroq Xorazmga ko'chgan⁵⁴. M.A. Itina bu fikrga qarshi chiqib, janubning ta'sirini inkor qilmagan holda, Quvisoy madaniyati mahalliy xalq madaniyatiga tegishli, degan g'oyani ilgari suradi.

O'rta Osiyo hududlarida Andronovo va Saklarning genetik birligi xususida antropologlar⁵⁵ va arxeologlar⁵⁶ o'z fikrlarini bildirishgan. Tarixiy sharoitlarga qarab Andronovo madaniyatining mil.av. VIII asrgacha yashab kelganligi Janubiy Ural va Qozog'istonda ham kuzatilgan⁵⁷. Shu yerda yana bir masalaga oydinlik kiritib o'tishni lozim deb o'ylaymiz. Ya'ni, ayrim hududlarda Andronovo va Saklarning moddiy madaniyatida o'xshashlik sezilmasa, Tagisken madaniyati bilan Dandiboy-begazi yoki Karasuk madaniyatlari o'rtasida mayitni ko'mish va sopollar o'rtasida o'xshashliklar kuzatilgan. Bu holat Xorazm saklarining (massagetlarning) yerli madaniyat sohiblari ekanligini tasdiqlaydi. Ular o'troq janub xalqlari bilan doimiy madaniy aloqada bo'lishgan. Orol bo'ylarida yashagan sak qabilalari moddiy madaniyatida janub sopollarining uchrashi A.S. Sagdullaev maqolalarida ham yoritilgan⁵⁸.

Yaqinda akademik A.A. Asqarovning Qadimgi Xorazm tarixiga bag'ishlangan, fanda mavjud bo'lgan «Qadimgi Xorazm» va «Katta Xorazm»

⁵² G'ulomov Ya.G. Istoriya orosheniya Xorezma s drevneyshix vremen do nashix dnei. - Tashkent, Fan, 1957; Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. - Toshkent, Fan, 1972.

⁵³ Vaynberg B.I. Pamyatniki Kuyusayskoy kulturi // Kochevniki na granitsax Xorezma. TXAEE. T. IX. - M.: 1979; Vorobeva M.G. Problema «Bolshogo Xorezma» i arxeologiya // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. - M.: 1979. - S. 38-42.

⁵⁴ Vaynberg B.I. Skotovodcheskie plemena v drevnem Xorezme // Kultura i iskustvo drevnego Xorezma. - M.: 1981. - S. 128; Vaynberg B.I. Pamyatniki skotovodcheskix plemen v levoberejnom Xorezme // Arxeologiya SSSR. Stepi Aziatskoy chasti SSSR v skifo-sarmatskoe vremya. - M.: 1992. - S. 117.

⁵⁵ Ginzburg V.V. Materiali k antropologii gunnov i sakov // SE. 1946. - № 4. - S. 210; Xodjaev T.K. Dinamika arealov antropogonicheskix tipov na territorii Sredney Azii (neolit - nach. XX v.) // SE. - M.: 1983 - № 3. - S. 101.

⁵⁶ Kuzmina E.E. Diskussionnie problemi otechestvennoy skifologii // Narodi Azii i Afriki. - M.: 1980. № 6. - S. ; Kuzmina E.E. Klassifikatsiya i periodizatsiya pamyatnikov andronovskoy kulturnoy obshnosti // Byulleten Mejdunarodnoy assotsiatsii po izucheniyu kultur Sentralnoy Azii. Vip.9. - M.: 1985. - S. 43.

⁵⁷ Chernikov S.S. Rol Andronovskoy kulturi v istorii Sredney Azii i Kazaxstana // KSIA, 1957, XXXVI.

⁵⁸ Sagdullaev A. S. Problemi innovatsiy v Sredneaziatskix kompleksax epoxi rannego jeleza // Preemstvennost i innovatsiya v razvitii drevnix kultur. - L., 1981. - S. 111-112.

muammolariga bag'ishlangan maqolasi e'lon qilindi⁵⁹. Maqolada mavjud yozma va arxeologik manbalar asosida Xorazm tarixining muammoli masalalari bo'yicha tarixchilar va arxeologlar o'rtasidagi davom etib kelayotgan munozaralarga oydinlik kiritildi deb hisoblaymiz. Skilak - Gekatey - Gerodot, «Avesto» ma'lumotlari asosida xorasmiyaliklar Baqtriyadan janubda, Areyadan Sharqda, Gerirud va Xilmend daryolarining yuqori havzasida, ya'ni hozirgi Hirot vodiysida yashaganligini ishonchli manbalar asosida isbotlab berildi. Ahamoniy shohlarining Xelmend tog' daralariga to'g'onlar qurganligi, suv evaziga katta bojlar talab qilganligi, bu tayziqlardan qiynalgan xorasmiylarning Hirot vodiysidan hozirgi Xorazm hududiga - massagetlar yurtiga ko'chishi yozma manbalar asosida, u yerda yuqori rivojlangan dehqonchilik madaniyatiga, Ko'zaliqir, Qalaliqir kabi ilk shaharlar, qal'alarga asos solinganligi arxeologik manbalar asosida yoritildi.

I Bob bo'yicha xulosa

Keltirilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilsak bo'ladiki, mil.av. VII-V asrlarga kelib Quyi Amudaryo va Orol bo'ylarida ikki madaniyatning shakllanish jarayoni kechgan. Birinchi madaniyat Dandiboy- begazi (Karasuk), Tagisken madaniyatlari asosida Sak-Massaget ko'chmanchi qabilalari madaniyati shakllangan bo'lsa, Hirot vodiysidan xorasmiyaliklarning bu yerga ko'chib kelishi natijasida Qadimgi Xorazm madaniyatiga asos solingan. Hirot vodiysidan ko'chib kelgan xorasmiylar sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikda, monumental inshootlar qurish, hunarmandchilikning barcha sohalarida boy tajribaga ega bo'lib, A.A. Asqarovning fikricha «Xorazm vohasining qirlarida Ko'zaliqir, Qalaliqir, tekisliklarida Qo'yqirilgan qal'a, Jonbos qal'a kabi mahobatli inshootlar, kanal va ariqlar asosida rivoj topgan sug'orma dehqonchilik madaniyati shakllandi va yurt mana shu madaniyat sohiblari nomi bilan ataladigan bo'ldi»⁶⁰.

⁵⁹Asqarov A.A. Qadimgi Xorazm tarixiga doir ... - B. 76-84.

⁶⁰Asqarov A.A. Qadimgi Xorazm tarixiga doir ... - B. 82.

II – Bob. Xorazm arxaik davri tarixining xorij, sovet va mustaqillik davri tarixshunosligida aks etishi: yondashuvlar va muammolar.

1. Xorij va sovet davri tarixshunosligida Xorazm arxaik davri tarixining aks etishi

Jahon tarixshunosligida davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risida ko'plab nazariyalar mavjud. Ushbu masala dastlab yunon - rim va Sharq mualliflari asarlarida yoritildi. So'nggi yillar adabiyotlarida quyidagi nazariyalar tarixi – teologiya (ilohiylik) nazariyasi, patriarxal, kuch ishlatish, psixologiya hamda sinfiy nazariyalar o'z sharhini topdi ⁶¹.

Ma'lumki, turli mintaqalarda davlatchilik ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlariga bog'liq holda har xil tarixiy davrlarda shakllangan. Ilgarigi adabiyotlarda davlat kelib chiqishining osiyocha ishlab chiqarishga asoslangan "Sharq yo'li" va mulkiy tabaqalanishga asoslangan "Yevropa yo'li" to'g'risidagi g'oyalar keng rivojlantirilgan ⁶².

Sobiq sovet davri tarixshunosligida davlatchilik tarixining yoritilishida formatsiyali yondashuv (ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar va ishlab chiqarish usullarining bosqichma-bosqich almashishi) ustunlik qilib, ilk davlatlarning shakllanishini jamiyatning bir-biriga dushman sinflarga bo'linishi, ular o'rtasida sinfiy kurashning keskinlashishi bilan bog'lab tushuntirilar edi. O'sha davr xulosalariga ko'ra, ilk davlat sinfiy jamiyatning mahsuli bo'lib, uning sinfiy mohiyati asosiy ko'rsatkich sifatida belgilangan ⁶³.

Mazkur bobda mintaqada davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi asosiy nazariyalar va yondashuvlar tahlil qilinadi.

XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo hududlarida arxeologiya yodgorliklarining keng o'rganilishi jarayoni boshlanib, topib tekshirilgan arxeologiya manbalaridan qadimgi jamiyat tarixi, madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini o'rganishda foydalanilgan.

⁶¹ Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi ... – B. 31-43.

⁶² Mavzu yuzasidan izoh qarang: Rtveladze E.V. va b. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi ... – B. 27-28.

⁶³ Ushbu masalaga tegishli ma'lumotlar, qarang: Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O', Norqulov N. O'zbekiston tarixi ... – B. 17.

40-yillarning oxirlari va 50-yillar davomida ibtidoiy jamiyat va ilk davlatchilik tizimiga oid yodgorliklar O'zbekiston, Janubiy Turkmaniston va Tojikistonda tadqiq qilingan. Ushbu ishlarni S.P. Tolstov, A.P. Okladnikov, B.A. Kuftin, M.E. Masson, Ya.G'. G'ulomov, A.N. Bernshtam, V.M. Masson, Yu.A. Zadneprovskiyar rahbarligidagi ekspeditsiyalar amalga oshirgan⁶⁴.

60-70-yillarda A. Asqarov, A. Muhammadjonov, O'. Islomov, V.I. Sarianidi, O.K. Berdiev, A.V. Vinogradov, M.A. Itina, E.V. Rtveladze, R.H. Sulaymonov va boshqa olimlar tomonidan arxeologiya yodgorliklarida keng tadqiqotlar olib borilgan. Sovet respublikalarida ushbu ishlarning natijalari tahlil qilingan⁶⁵ va tarixiy asarlarda umumlashtirilgan⁶⁶.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, qadimshunoslarning tadqiqotlarida maxsus arxeologiya mavzularini yoritish (yodgorliklarning va topilmalarning tavsifi, xronologiya va davrlashtirish, xo'jalik, madaniyat va b.) muhim ahamiyat kasb etgan.

Sovet davri ilmiy adabiyotlarida jamiyat, boshqaruv va davlatchilik tarixiga yondashishda shu davr mafkurasi talabiga ko'ra, markscha g'oyalar doirasida ishlab chiqilgan sinfiy nazariyadan foydalanilgan. Olimlarning tadqiqotlari ushbu g'oyalar doirasida chegaralanib, nazariy va amaliy jihatdan ularni amalga oshirishga majbur edi.

Ushbu mavzuga bag'ishlangan adabiyotlarda ibtidoiy tuzumning yemirilishi va sinfiy jamiyatning vujudga kelishi sabablari quyidagicha qayd qilingan:

- qo'shimcha (ortiqcha) mahsulotning paydo bo'lishi;
- ayirboshlashning rivojlanishi;

⁶⁴ Bernshtam A.N. Istoriko-arxeologicheskie ocherki Sentralnogo Tyan-Shanya i Pamiro-Alaya // MIA. – 1952. – № 26. – 342 s.; Kuftin B.A. Raboti YUTAKE v 1952 g. po izucheniyu "kultur Anau" // Izvestiya AN TurkmSSR. – 1954. – № 1. – S. 22-29; Masson M.E. Kratkiy ocherk istorii izucheniya Sredney Azii v arxeologicheskom otnoshenii. Do pervoy poslevoennoy pyatiletki // Tr. SAGU. – 1956. – Vip. 81. – S. 5-40; Okladnikov A.P. Drevneyshee proshloe Turkmenistana // Tr. Instituta istorii arxeologii i etnografii AN TurkmSSR. – 1956. T. 1. – S. 181-221; G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilishi tarixi. – Toshkent: UzSSR FA, 1959. – 324 b.; Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964. – 441 b.

⁶⁵ Litvinskiy B.A. Arxeologicheskie otkritiya v Tadjikistane za godi Sovetskoy vlasti i nekotore problemi drevney istorii Sredney Azii // Vestnik drevney istorii. – 1967. – № 4. – S. 118-137; Asqarov A. Razvitie arxeologicheskoy nauki v Uzbekistane // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. – 1972. – № 11-12. – S. 97-109.

⁶⁶ Istoriya tadjikskogo naroda. – M., 1963. T. 1. – 596 s.; Djurakulov M.D., Avanesova N.A. Istoriografiya epoxi bronzi Sredney Azii. – Samarkand: SamGU, 1983. – 70 s.; Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. Arxeologiya SSSR. – M.: Nauka, 1985. – S. 178-202.

- ijtimoiy mehnat taqsimoti;
- ona urug'i (matriarxat)dan ota urug'i (patriarxat)ga o'tilishi;
- qo'shni hududiy urug' jamoalarning vujudga kelishi;
- mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish;
- ekspluatatsiya (boshqa kishilar mehnati bilan yaratilgan mahsulotni o'zlashtirish)ning ilk shakllari⁶⁷.

Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy belgilar davlat vujudga kelishining asosiy omillari sifatida barcha hududlardagi qabila va elatlar tarixi bilan bog'langan bo'lib, ilmiy, o'quv adabiyotlar hamda darsliklarda asosiy nazariya sifatida qabul qilingan edi⁶⁸.

Ma'lumki, ibtidoiy jamiyat dastlab o'zlashtiruvchi xo'jaliklar (termachilik, ovchilik, baliqchilik) va neolit - yangi tosh davridan boshlab ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (dehqonchilik va chorvachilik)ga asoslanib rivojlangan. Turli etnografiya va arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, ibtidoiy jamoalarning hududiy aloqalari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari urug'chilik tuzumi xususiyatlari bilan belgilangan. O'rta Osiyoning qadimgi tarixiga tegishli ushbu ma'lumotlar turli adabiyotlarda o'z aksini topgan.

O'rta Osiyoning turli hududlaridagi qadimgi aholi bir xilda taraqqiy topgan emas. Ayniqsa, bronza davrida iqtisodiy va madaniy jihatdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalar bir-biridan ajralib turgan. Ularning jamiyati va boshqaruv tizimida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida mintaqaning janubiy viloyatlaridagi o'troq qishloqlarda katta patriarxal oila jamoalariga tegishli bo'lgan ko'p xonali uy-joylar topib tekshirilgan⁶⁹, quyi Zarafshon vohasida-yirik kulba qoldiqlari

⁶⁷ Tolstov S.P. K voprosu o periodizatsii pervobitnoy istorii // Sovetskaya etnografiya. – 1946. – № 1. – S. 25-30; Semenov Yu.I. O periodizatsii pervobitnoy istorii // Sovetskaya etnografiya. – 1965. – № 5. – S. 74-93; Pershits A.I., Mongayt A.D., Alekseev V.P. Istoriya pervobitnogo obshestva. – M.: Visshaya shkola, 1968. – 206 s.; Xazanov A.M. Razlozhenie pervobitnoobshinnogo stroya i vozniknovenie klassovogo obshestva // Pervobitnoe obshestvo. – M.: Nauka, 1975 – S. 88-139.

⁶⁸ Dyakonov I.M. Obshestvenniy i gosudarstvenniy stroy Drevnego Dvurechya. Shumer. – M.: Izd. vost. lit., 1959. – 300 s.; Masson V.M. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok. – M. – L.: Nauka, 1964. – 467. s.; Pershits A.I. Mongayt A.L., Alekseev V.P. Istoriya pervobitnogo obshestva... – 206 s.; Xazanov A.M. "Voennaya demokratiya" i epoxa klassoobrazovaniya // Voprosi istorii. – 1968. – № 12. – S. 87-98 va b.

⁶⁹ Masson V.M. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok ...; Askarov A. Sapallitepa ...; Masimov I.S. Izuchenie pamyatnikov epoxi bronzi v nizoviyax Murgaba // Sovetskaya arxeologiya. – 1979. – № 1. – S. 111-131.

(Zamonbobo)⁷⁰, Xorazmda shu davr uy-joylari yarim yerto'lalardan iborat bo'lganligi aniqlandi⁷¹. Bu boradagi arxeologik ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasining turlicha bo'lganini ko'rsatadi. Demak, ijtimoiy boshqaruv tizimi ham bir-biridan farq qilgan.

V.M. Massonning ta'kidlashicha, dehqonchilik neolit davri "inqilobi" sifatida o'troq hayot va yangi iqtisodiy munosabatlarga asos solib, urug'chilik jamiyatining tashkiliy funksiyalarini avvalgi davrlarga nisbatan ancha murakkablashtirgan. Mehnat jarayonlarini (ayniqsa ziroatchilikdagi yerga ishlov berish, o'simliklarni ekish, hosilini yig'ib olish) rejalashtirish, tashkillashtirish paytida urug' oqsoqollarining o'rnini va obro'-e'tiborini kuchaytirgan, ammo dastlabki mulkiy tengsizlik past darajada bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etmagan⁷².

Sovet davrida mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish mavzusini o'rganish, jumladan, ushbu voqealar qaysi biri birlamchi bo'lib vujudga kelgan, degan savol ham dolzarb muammoga aylangan edi. V.M. Masson va I.M. Dyakonovlar mulkiy tengsizlikni birlamchi omil sifatida talqin qilganlar⁷³. Etnografiya adabiyotlarida "sinfiy jamiyat" paydo bo'lishiga ijtimoiy tabaqalanish jarayoni asos bo'lgan deb xulosalar chiqarilgan⁷⁴. Ayrim shaxslar tomonidan ijtimoiy mansablarni egallash jamoadagi ortiqcha mahsulot va xususiy mulkni egallashga intilishlari bilan bog'langan. Sovet davri tarixchi va etnograflarining fikrlariga ko'ra, ijtimoiy mehnat taqsimoti vujudga kelishi bilan tashkiliy-boshqaruv faoliyati ishlab chiqarish faoliyatidan ajralib chiqadi va ijtimoiy mansablarni egallagan shaxslar uchun jamoadagi ishlab chiqarilgan mahsulotni o'zlashtirishga keng imkoniyatlar yaratiladi, shu asosda ekspluatatsiyaning ilk shakllari vujudga kelgan⁷⁵. Demak, shu davr nazariyalariga binoan, ibtidoiy

⁷⁰ G'ulomov Ya.G., Islamov U., Askarov A. Pervobitnaya kultura i vozniknovenie oroshaemogo zemledeliya v nizoviyax Zarafshana. – T.: Fan, 1966.

⁷¹ Itina M.A. Istoriya stepnix plemen Yujnogo Priaralya. – M.: Nauka, 1977. – 238 s.

⁷² Masson V.M. Poselenie Djeytun // MIA – M., 1971. – № 180. – S. 156. – 266 s.

⁷³ Dyakonov I.M. Obshina na Drevnem Vostoke v rabotax sovetkix issledovateley // Vestnik drevney istorii. – 1963. – № 1. – S. 28; Masson V.M. Stanovlenie ranneklassovogo obshestva na Drevnem Vostoke // Voprosi istorii. – 1967. – № 5. – S. 85.

⁷⁴ Razlojenie rodovogo stroya i formirovanie klassovogo obshestva. – M.: Nauka, 1968. – S. 227.

⁷⁵ Pervobitnoe obshestvo. Osnovnye problemi razvitiya. – M.: Nauka, 1975. – S. 111.

jamiyatning yemirilishi va ilk davlatlarning shakllanishi quyidagicha rivoj topgan: mulkiy tengsizlik – ijtimoiy tabaqalanish – ekspluatatsiyaning ilk shakllari va qulchilik – merosxo'r urug' – qabila oqsuyak zodagonlarining paydo bo'lishi – urushlar va harbiy yurishlar natijasida urug' yo'l boshchilarining moddiy boyliklarni ko'paytirishga intilishi – ijtimoiy sinflarning vujudga kelishi – hukmron sinflarning manfaatlarini himoya qilish zarurati – ijtimoiy boshqaruvning siyosiy hokimiyatga aylanishi. Markscha nazariyaga ko'ra, ezuvchilar va eziluvchilar sinflarga ajralishi natijasida, ular o'rtasida kurashlar keskinlashgan va ushbu qarama-qarshilik oqibatida tarixiy sahnada zo'ravonlik, ezuvchi apparat – davlat paydo bo'lgan. Bunday yondashuv O'rta Osiyo tarixshunosligida ham asosiy nazariya sifatida qabul qilingan edi.

Ba'zi G'arb tadqiqotchilari (F. Altxaym, V.B. Xenning, I. Gershevich) "Katta Xorazm" davlatini Kopetdog' yonbag'irlarida yoki Marv va Hirot atrofida joylashtirganlar (ushbu hududlar xorasmiylarning ilk vatani sifatida taxmin qilingan)⁷⁶. I.V. Pyankov O'rta Osiyoning janubidagi "Katta Xorazm"ning hududiy chegaralarini ancha kengaytirib, ushbu davlat Eronning Mashxad va Nishopur vohalarini ham o'z ichiga olgan, deb ta'kidlagan⁷⁷. M.G. Vorobeva bu nazariyaga qarshi bo'lib, xorazmliklar janubiy Turkmaniston yerlaridan Quyi Amudaryoga ko'chib kelmaganlar, Xorazm davlatining chegaralari ancha keng bo'lib, O'rta Amudaryodan boshlab, Orol dengizigacha hududlarni o'z ichiga olgan, deb yozgan⁷⁸. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlash mumkin, xuddi shu mahalliy aholi amirobodliklar Xorazm vohasining markazida xo'jalik yuritib, keyinchalik "xorasmiylar" nomini olgan.

"Katta Xorazm" davlati vujudga kelishi davri xususida ham turli fikrlar mavjud. Jumladan, M.A. Itina bu davlatning mil. avv. VI asr boshlarida vujudga

⁷⁶ Altheim F. *Awestische Textgeschichte*. – Halle (Saale), 1949; Henning W.B. *Zoroaster: politician or witch – doctor?* – Oxford, 1951; Gershevitch I. *The Avestan hymn to Mithra*. – Cambridge, 1959.

⁷⁷ Pyankov I.V. *Xorasmii Gekateya Miletskogo* // *Vestnik drevney istorii*. – 1972. – № 2. – S. 17.

⁷⁸ Vorobeva M.G. *Problema "Bolshogo Xorezma" i arxeologiya ...* – S. 38-42.

kelganligini ta'kidlasa, O.A. Vishnevskaya va Yu.A. Rapoportlar mil. avv. VII – VI asrlar chegarasida vujudga kelgan deb fikr yuritganlar⁷⁹.

Ibtidoiy jamiyatning yemirilishi va ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o'rganishda sovet davri etnograflari va qadimshunoslarining tadqiqotlariga F. Engelsning “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” asari nazariy poydevor bo'lgan. F. Engels o'z navbatida XIX asrda ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq qilgan amerikalik etnograf Lyuis Genri Morgan tadqiqotlari natijalariga, ayniqsa, uning 1877-yilda chop etilgan “Qadimgi jamiyat” deb nomlangan asariga asoslangan edi. Zamonaviy tarixshunoslikda mavjud xulosaga ko'ra: “F. Engelsning asosiy xatosi shundaki, yunonlar va rimliklarda davlatchilik paydo bo'lishining noyob jarayoniga – urug'chilik tuzumining parchalanishi va quldorlikning paydo bo'lishiga – universal ahamiyat bergan edi va quldorlik davlat yalpi tusga ega bo'lgan davlatning birinchi shakli deb e'tirof etgan edi”⁸⁰.

Sovet tarixshunosligida F. Engelsning xulosalari “ibtidoiy jamiyat to'g'risidagi yangi ta'limot” sifatida baholangan. “Engels ibtidoiy jamiyat formatsiyasining ilk va so'nggi bosqichlarini aniqlab, uning xususiyatlari va rivojlanishi qonuniyatlarini ochib bergan”, deb ta'kidlangan⁸¹.

Markscha yondashuv va nazariya doirasidan chiqib, erkin fikrlash, xulosalar chiqarish va davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarning ko'p xilligiga asoslanib, tadqiqotlar olib borish sovet davrida mushkul bo'lgan. Shuning uchun ham davlat xalqdan ajralgan holda sinfiy ezuvchi organ sifatida izohlangan. Ekspluatatsiyaning ilk shakllarini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi uch asosiy ilk ekspluatatsiya shakllariga e'tibor qaratilgan: 1) qulchilik; 2) jamoadagi ichki ekspluatatsiya; 3) o'lpon yig'ib olish va ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik⁸².

XX asr arxeologik adabiyotlarida “yo'lboshchilar, sardorlar jamiyati” degan tushuncha qo'llanilgan. Arxeologik belgilariga ko'ra, “yo'lboshchilar jamiyati”

⁷⁹ Itina M.A. Istoriya stepnix plemen Yujnogo Priaralya // Trudi XAEE. – M., 1997. T. X. – S. 237; Rapoport Yu.A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priarale v drevnosti i srednevekovye. – M., 1998. – S. 30.

⁸⁰ Rtveladze E.V. va boshq. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsisi ... – B. 28.

⁸¹ Pershits A.I. i dr. Istoriya pervobitnogo obshestva ... – S. 18-19.

⁸² Xazanov A.M. Razlozhenie pervobitnoobshinnogo stroya ... – S. 113.

to'g'risida maxsus dafn marosimi, buyumlarga boy qabrlar, sardorlarning shaxsiy ramzlari – tamg'a-muhrlar va yarog'-aslahalari dalolat beradi.

Xulosa qilib, quyidagi yakuniy fikrlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- sobiq sovet davri tarixshunosligida qadimgi boshqaruv va davlatchilik tarixi yoritilishida sinfiy nazariya ustunlik qilib, ilk davlatchilikning sinfiy mohiyati asosiy ko'rsatkich sifatida belgilangan;

- O'rta Osiyoning qadimgi tarixiga tegishli “ilk sinfiy jamiyat”, “quldorlik tuzum”, “quldorlik davlatlar” kabi tushunchalar keng ishlatilgan, shu bilan birga, Qadimgi Sharq va Yunoniston ijtimoiy tizimiga nisbatan mintaqadagi qadimgi ijtimoiy munosabatlarga xos xususiyatlarning mavjudligi ta'kidlangan;

- yozma va arxeologiya ma'lumotlarini qiyoslash natijasida ko'plab ilmiy ishlar yoritilgan. Ammo asosiy munozaralar O'rta Osiyodagi dastlabki siyosiy uyushmalar va davlatlarning paydo bo'lishi tarixiy sanasini aniqlash, ularning hududiy chegaralarini belgilab berish kabi muammolar bilan bog'langan;

- ibtidoiy-ijtimoiy boshqaruvdan siyosiy hokimiyatga o'tish bosqichlari, omillari, xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarining O'rta Osiyo misolida o'rganilishi yetarli darajada tahlil qilinmagan va maxsus umumlashma mavzuga aylanmagan;

- sovet davri tarixchi olimlari tarixiy jarayonlarni o'rganish paytida shu davr hukmron mafkurasi talablarini amalga oshirishga majbur bo'lgan, ammo, shu o'rinda ta'kidlash joizki, bir qator qadimshunoslar harakatlari va tadqiqotlari tufayli, O'rta Osiyoning turli viloyatlarida (Xorazm, Janubiy Turkmaniston, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Janubiy Tojikiston) ilk davlatchilik davriga oid (bronza va ilk temir davri) ko'pdan-ko'p arxeologik yodgorliklar topib tekshirilgan bo'lib, ular asosida vujudga kelgan ilmiy ma'lumotlar fanga joriy etilgan. Shuningdek, ilk davlatchilik tarixiga oid g'arb va sovet tadqiqotchilarining yondashuvlari va xulosalari tahlil qilingan.

2. Mustaqillik davrida mavzuning yoritilishi.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida ilk davlatchilik tarixi muammolarini o'rganish va tahlil qilish dolzarb vazifaga aylandi. Mintaqaning bir qator respublikalarida o'tmish voqealarning yangicha konseptual bayoni Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini keng ko'lamda qayta ko'rib chiqish, xolis va haqqoniy yoritishga aylanib ketdi. Tarixchilarda mintaqa xalqlarining haqqoniy tarixini yaratish uchun chinakam tadqiqotlar olib borish hamda yangi aniq tarixiy umumlashma tadqiqotlarga mo'ljall olish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Ammo XX asrning 90-yillaridan boshlab ba'zi tarixchilar va tarixiy mavzularga murojaat eta boshlagan boshqa gumanitar soha vakillari ilgari uslubiyatdan voz kechishni hech qanday ilmiy yondashuvni tan olmaslikdir, deb tushundilar, murakkab tarixiy masalalar tadqiqotchi qanday xohlasa, shunday yoziladi, degan aqidaga amal qildilar⁸³. Markaziy Osiyo doirasida tarixchi olimlar o'rtasidagi aloqalar ahyon-ahyonda ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi hamda qadimgi tarixga murojaat qilish keng quloch yoydi va bu ko'pincha sof ilmiy muammolarni o'rganish doirasidan chetga chiqa boshladi⁸⁴.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik masalasini o'rganishda yangicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi tufayli, bu borada sovet davri nazariyalari turli nashrlarda o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi tabiiy edi. Shuning uchun ham ilk davlatchilikka mansub xususiyatlar an'anaviy izoh topdi (jamiyat ikki qarama-qarshi sinf - ezuvchi quldorlar va eziluvchi qullar sinfiga bo'lingan, qul bir yoki bir necha xo'jayinning shaxsiy mulki hisoblangan, qul ishlab chiqarish vositasiga ega bo'lmagan),

⁸³ Ushbu mavzuga tegishli, qarang: Sagdullaev A. O'zbekiston tarixining ayrim muammolari // Tarix, mustaqillik, milliy g'oya. – T.: Akademiya, 2001. – B. 130.

⁸⁴ Muammo turli maqolalarda o'z tahlilini topgan, qarang: Alimova D., Buryakov Yu., Filanovich M. Ob'ektivnost v istorii – otvetstvennost za budushee // Uchitel Uzbekistana. 2003, 16 maya; Rtveladze E. Istoricheskaya nauka i psevdistoriya Sredney Azii // Uchitel Uzbekistana. 2003, 25 iyulya; Sagdullaev A. Obrashayas k urokam proshlogo // Uchitel Uzbekistana. 2003, 13 iyunya; O'sha muallif. Tarixiy-madaniy meros chegara bilmaydi // Ma'rifat. 2003, 25-iyun; Rtveladze E. Pozitivnie i negativnie aspekti noveyshix issledovaniy istorii Sentralnoy Azii // Novaya istoriya Sentralnoy Azii. Pereotsenka istorii, sovremennye problemi i podxodi: Materiali mejdunarodnoy regionalnoy konf. – T.: Akademiya, 2004. – S. 127-132; Sagdullaev A. Nekotorie osobennosti sovremennoy interpretatsii drevney istorii Sentralnoy Azii // Novaya istoriya Sentralnoy Azii. Pereotsenka istorii, sovremennye problemi i podxodi: Materiali mejdunarodnoy regionalnoy konf. – T.: Akademiya, 2004. – S. 39-47.

shuningdek, Baqtriya, So'g'd, Xorazm "yirik quldorlik davlatlar" sifatida yoritildi⁸⁵.

XX asr 90-yillarining boshlarida chop etilgan ayrim risolalarda quyidagi xulosalar mavjud: "Eramizdan oldingi II-I ming yilliklarda, bronza davriga qadam qo'ygan Xorazmda yangi shaharlar izchil paydo bo'la boshladi. Eramizdan oldingi VIII asrga kelib, Xorazm davlati o'zining siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida yuqori darajaga ko'tarildi. Ko'pgina qo'shni mintaqalar qabilalari, chunonchi, farfirlar, so'g'diyonlar, arslar (Hirod), eronlar uning himoyasida panoh topa boshladilar. Shunday qilib, katta - kichik qabila va elatlarning erkin qo'shiluvi natijasida Xorazm hududlari tez kengaya bordi"⁸⁶. Ammo na arxeologiya ma'lumotlari, na yozma manbalar ushbu xulosalarni tasdiqlamaydi.

Albatta, birorta muallifga izlanishlar olib borish, o'z fikrini bildirish, farazlarni o'rta tashlash va turli muammolarni tahlil qilish man etilmaydi, ammo Xorazm misolida mil. avv. II ming yillikdan boshlab ushbu hududda shaharlarning va davlatlarning rivojlanishi arxeologik jihatdan o'z isbotini topmagan. Yuqorida keltirilgan xulosalar ilmiy jihatdan bahsli masaladir.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun yaratilgan qo'llanmalarda O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish sabablari quyidagicha yoritilgan: "Jamoalararo mahsulot ayirboshlashning vujudga kelishi hal qiluvchi o'rin tutdi. Urug' jamoalari o'rtasida o'zaro janjal, to'qnashuv va hatto urushlar darajasiga borib yetardi. Bu to'qnashuvlar oqibatida yengilgan oila va urug' jamoaning boyliklari g'oliblar qo'liga o'tardi". Ushbu xulosa mualliflarining fikrlariga ko'ra, yengilgan kishilarni asir va qulga aylantirar edilar, asta-sekinlik bilan xususiy mulk rivojlanib, shu tariqa "jamiyatda mulkdorlar, xo'jayinlar-quldorlar, tobelar, mazlumlar-qullar va zo'rlikka tayanuvchi qurollangan kuch, ya'ni ibtidoiy davlat ko'rinishi elementlari vujudga keladi"⁸⁷. Demak, mualliflarning ta'kidlashicha, davlat qarama-qarshi sinflarning kurashiga asoslangan, ezuvchi sinflarning

⁸⁵ O'zbekiston tarixi va madaniyati. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 20-21.

⁸⁶ Jumaniyozov R. Qadimiy Xorazm tarixi. – Urganch: Nashriyotsiz, 1993. – B. 9, 17.

⁸⁷ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi (birinchi kitob). – T.: O'qituvchi, 1997. – B. 30-31.

manfaatlarini himoyalash maqsadida, zo'ravonlik siyosiy apparat sifatida paydo bo'lgan.

Tadqiqotchi Sh. Shaydullaev ilk davlatlarning arxeologik belgilarini ishlab chiqishga harakat qilib, shaharlar va davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonini quyidagi davrlarga bo'lgan:

- shahar - davlatlar (“nom” tipidagi davlatlar markazi);
- shahar - hududiy davlat markazi;
- shahar - markazlashgan davlatlar, imperiyalar davrida⁸⁸.

Ushbu xulosalarga I.M. Dyakonov va V.A. Yakobsonning nazariyalari ma'lum darajada ta'sir qilgan⁸⁹. Mashhur Sharqshunos olimlarning g'oyalaridan ilk davlatlar tipologiyasini tahlil qilish jarayonida S.S. Qudratov ham foydalangan⁹⁰.

Shu o'rinda Sh. Shaydullaevning quyidagi fikriga e'tibor qaratish lozim: “Arxeologiya fanida ilk sinfiy munosabatlar, ilk shaharlarning arxeologik belgilari yoki sivilizatsiyalar masalasi keng yoritilgan bo'lsa-da, ilk davlatlar va ularning arxeologik belgilari birinchi marotaba muhokamaga qo'yilmoqda”⁹¹. Ammo avvalgi yillarda, ya'ni V.M. Massonning 1976-yilda chop etilgan “Qadimgi jamiyatlarning iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzumi” monografiyasining 185-betida keltirilgan 23-jadval “Ilk sinfiy jamiyat shakllanishining arxeologik sxemasi” deb nomlangan edi. Unda Sh. Shaydullaevning ilk davlatlarning arxeologik belgilari jadvali singari o'xshashliklar mavjud. Misol uchun, yodgorliklar (manzilgohlar) sonining oshishi, hashamatli (boy) va oddiy uylar, manzilgohlarning ierarxiyasi, sun'iy sug'orish (kanallarning qoldiqlari) va ekinlar turlarining qoldiqlari, harbiy istehkomlar, boy va oddiy qabrlar, yozuv va h.k.⁹²

V.M. Massonning jadvalidan Sh. Shaydullaev xabardor bo'lmagan bo'lishi mumkin va bu borada biz olimni tanqid qilish maqsadida emasmiz. Lekin

⁸⁸ Shaydullaev Sh. Ilk davlatlarning arxeologik belgilari // O'zbekiston tarixi. – 2002. – № 3. – B. 5.

⁸⁹ Dyakonov I.M., Yakobson V.A. “Nomovie gosudarstva”, “territorialnie sarstva”, “polisi” i “imperii”. Problemi tipologii // Vestnik drevney istorii. – 1982. – № 2. – S. 3-16.

⁹⁰ Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ... – B. 32-33.

⁹¹ Shaydullaev Sh. Ilk davlatlarning arxeologik belgilari ... – B. 5.

⁹² Qarang: Masson V.M. Ekonomika i sotsialniy stroy ... ris. 23 va Shaydullaev Sh. Ilk davlatlarning arxeologik belgilari ... – B. 6-8.

mustaqillik yillarida Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda nashr etilgan ayrim maqola va risolalarda ham oldingi davrlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga iqtiboslar berish zarurati ayrim holatlarda unutilmoqda. Tarixshunoslikka, taqqoslash va qiyoslashlarga asoslanish yondashuvi chetlab o'tilmoqda. Bunday yondashuv turli muammolarni tahlil qilishga va yoritishga xizmat qilmaydi.

Qadimshunos olim A. Anorboev Sh. Shaydullaevning maqolasini tanqidiy tahlil qilib, bir qator takliflar va mulohazalar ichida Qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlarining geografik joylashuvi, poytaxt shaharlari to'g'risida Sh. Shaydullaev "biron-bir so'z aytmagan", - deb mazkur maqolaning muallifi "bu davlatlarning xronologik davri, geografik joylashuvi haqidagi keyingi ma'lumotlardan to'liq xabardor emas" - degan xulosa chiqargan⁹³. Bu borada O'rta Osiyoda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi, jumladan, Qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlari to'g'risida, tarixiy adabiyotlarda turli yangi ma'lumotlar o'z aksini topgan⁹⁴. Ulardan foydalanish va tanqidiy ko'rib chiqish yangi fikr-mulohazalarga asos bo'lishi mumkin.

A. Anorboev qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik masalasiga bag'ishlangan B.X. Matboboevning maqolasiga⁹⁵ ham o'z munosabatini bildirib, qadimgi Farg'onada davlatchilikning paydo bo'lishini sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, qo'shimcha mahsulotning ortishi, o'zaro kelishmovchiliklar va urushlar natijasida asirlarni qo'lga olinishi, ularni majburiy ishlarga tortilishi, sinfiy tabaqalanishning kuchayishi kabi omillar bilan bog'ladi⁹⁶. Ushbu g'oyalar turli ko'rinishda sovet davri tarixshunosligida ham ustunlik qilgan.

1998-yilga qadar O'zbekistonda davlatchilik tarixi bo'yicha olimlar tomonidan keng tahlil qilingan yakuniy yagona konsepsiya ishlab chiqilmagan edi.

⁹³ Anorboev A. O'zbekistonda ilk davlatchilik va uning o'rganilish tarixidagi ba'zi bir muammolar // O'zbekiston tarixi. – 2004. – № 4. – B. 6.

⁹⁴ Shirinov T. Qadimgi Baqtriya podsholigi "Katta Xorazm" (eramizgacha bo'lgan VII-VI asrlar) // O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001. – B. 8-14; Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya Sredney Azii (opit istoricheskoy rekonstruktsii) // Drevnie sivilizatsii Evrazii. Istoriya i kultura. – M.: Nauka, 2001. – S. 334-347.

⁹⁵ Matboboev B.X. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari // O'zbekiston tarixi. – 2002. – № 1. – B. 3-11.

⁹⁶ Anorboev A. O'zbekistonda ilk davlatchilik ... – B. 10.

Keyinchalik konsepsiya loyihasi ishlab chiqilib chop etildi⁹⁷. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yildagi muloqoti chog'ida hamda tarix va davlatchilik muammolariga bag'ishlangan asarida⁹⁸ bildirilgan fikrlari mazkur masalaning yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida yoritish imkonini yaratdi.

So'nggi yillarda chop etilgan bir qator adabiyotlarda qadimgi tarix "sivilizatsiyaviy yondashuv" tushunchasida talqin qilinib, dastlab ilk davlat va qadimgi huquq o'zaro bir-biriga bog'liq jarayonlar sifatida o'rganila boshlandi⁹⁹. XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmida boshlangan tadqiqotlarning natijalari XXI asr boshlarida chop etilgan nashrlarda o'z aksini topdi.

Qadimshunos olim E.V. Rtveladzening bir qator maqola va asarlarida O'rta Osiyoda qadimgi davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, davlatlarning turlari, hukmdorlarning unvonlari va harbiy ma'muriy mansablari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan¹⁰⁰. Bu qarashni kompleks yondashuv deb baholash mumkin, chunki u davlatchilik va boshqaruv tizimini o'rganishning ko'p jihatlarini qamrab olgan.

Qadimshunoslarning fikrlariga ko'ra, O'zbekiston hududida ilk davlatchilikning shakllanishi mil. av. II minginchi yillikka oid bo'lib, dastlabki davlatlar "nom" turida (ya'ni mudofaa devorlari bilan o'ralgan shahar va uning qishloq xo'jalik atrofi) "shahar-davlatlar" yoki "voha-davlatlar"dan iborat bo'lgan¹⁰¹.

T.Sh. Shirinovning ta'kidlashicha, O'zbek davlatchiligi tarixi mil. avv. II ming yillikda boshlanib, uzluksiz tadrijiy taraqqiyot hozirgi kunga qadar yetib

⁹⁷ O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. Loyiha // O'zbekiston tarixi. – 1999. № 1. – B. 31-34.

⁹⁸ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. – B. 3-31.

⁹⁹ Rtveladze E.V. va boshq. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi... – B. 17.

¹⁰⁰ Rtveladze E.V. Tituli praviteley gosudarstv i vladeniye Sredney Azii v nachale I tis. do n.e. – III - IV vv. n.e. // *Obshchestvennye nauki v Uzbekistane*. – 2006. – № 5-6. – S. 46-57; O'sha muallif. Sivilizatsii, gosudarstva kulturi Sentralnoy Azii. – T.: B.i., 2005. – S. 50-51.

¹⁰¹ Asqarov A.A., Shirinov T.Sh. Rannaya gorodskaya kultura epoxi bronzi yuga Sredney Azii ... – S. 121; Shirinov T. Qadimgi Baqtriya podsholigi "Katta Xorazm" (eramizgacha bo'lgan VII-VI asrlar) // O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001. – B. 13; Shaydullaev Sh. Ilk davlatlarning arxeologik belgilari ... – B. 5.

kelgan¹⁰². Azamat Ziy o asarida ham shunday yondashuv mavjud¹⁰³. Boshqa mualliflar qadimgi davlatchilik davrini “o‘zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixi” sifatida yoritadilar¹⁰⁴. E.V. Rtveladze mintaqada ilk sivilizatsiyalarning rivojida mahalliy aholi va xalqlar migratsiyasi (ko‘chib kelishi) natijasida madaniy va etnik sintezi (qo‘shilishi) xususiyatlariga e‘tiborni qaratgan¹⁰⁵. A.S. Sagdullaev qadimgi davrlardan boshlab, etnik migratsiyalar va tashqi bosqinlar tufayli mintaqada turli yangi davlatlarning paydo bo‘lishini qayd qilib, bunday vaziyatda mahalliy davlatchilik rivojlanishining yo‘nalishlarida uzilishlar bo‘lib turganligini ta’kidladi¹⁰⁶.

XX asr 90-yillarining boshlarida A.S. Sagdullaev O‘rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlarning shakllari va xronologiyasi muammosini ko‘rib chiqishga harakat qilgan¹⁰⁷. Qadimshunos olimning nashrlarida ma‘muriy boshqaruv masalasi muhim o‘rin topgan¹⁰⁸.

A.S. Sagdullaev qadimgi jamiyatda boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi masalasini tahlil qilib, qadimgi boshqaruv tizimidagi iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy funksiyalarning mazmun-mohiyatini ochib bergan¹⁰⁹. Natijada quyidagi xulosa chiqarilgan: “Qadimgi Sharqning ilk davlatlari tarixi dastlab jamiyatning qullar va quldorlarga bo‘linishidan boshlanmagan. Ushbu jarayonning muhim omillaridan biri mulkiy tabaqalanish bo‘lmasdan, sinfiy qarama-qarshilikka aloqasi bo‘lmagan jamiyatning ijtimoiy-

¹⁰² Shirinov T. Qadimgi Baqtriya podsholigi “Katta Xorazm” (eramizgacha bo‘lgan VII-VI asrlar) // O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: SHark, 2001. – B. 12-13.

¹⁰³ Ziy o Azamat. O‘zbek davlatchiligi tarixi (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – T.: SHarq, 2000. – 368 b.

¹⁰⁴ Sagdullaev A. va boshq. O‘zbekiston tarixi ... – B. 16.

¹⁰⁵ Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva ... – S. 25-26.

¹⁰⁶ Rtveladze E.V., Sagdullaev A.S. Sovremennie mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii. – T.: Uzbekistan, 2006. – S. 43, 48.

¹⁰⁷ Sagdullaev A.S. Voprosi tipologii i xronologii drevneyshix gosudarstv Sredney Azii // Srednyaya Aziya i mirovaya sivilizatsiya. – T., – 1992. – S. 132-133.

¹⁰⁸ Sagdullaev A.S. Tarix, taraqqiyot va davlatchilik // Jamiyat va boshqaruv. – 2000. – № 1. – B. 19-20; O‘sha muallif. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari // Jamiyat va boshqaruv. – 2004. – № 1. – B. 9-10; O‘sha muallif. Tashkiliy va boshqaruv sohalariga yangiliklarni joriy etish tarixidan // Jamiyat va boshqaruv. – 2004. – № 4. – B. 15-17.

¹⁰⁹ Sagdullaev A. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi ... – B. 61; Sagdullaev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – T.: Akademiya, 2006. – B. 27-29.

amaliy vazifalar jihatidan bo'linishidir. Bu hol, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va diniy omillarga bog'liq bo'lgan"¹¹⁰.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, davlatchilikning asoslari siyosiy institutlar shakllangandan so'ng, keyingi bosqichlar chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining boshlanishi bilan xarakterlanadi. Qadimgi Misr, Ikkidaryo oralig'i, Ossuriya tarixi misolida "doimiy harbiy to'qnashuvlar va urushlar tufayli sanoqsiz asirlar va xonavayron bo'lgan jamoa a'zolari qullikka mahkum bo'lganlar. Ularning mehnatidan ishlab chiqarish maqsadlarida keng foydalanilgan"¹¹¹.

Ilk davlatchilikning shakllanishiga bunday yondashuv "sinfiy" nazariyaga zid bo'lib, ilgarigi ilmiy adabiyotlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarda ilk davlatlarning shakllanishida mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tengsizlik, ekspluatatsiya shakllari, jamiyatning bir-biriga dushman sinflarga bo'linishi kabi omillar asosiy sabab bo'lgan degan g'oyadan voz kechishga xizmat qiladi. Haqiqatdan ham, turli tarixiy ma'lumotlar ilk davlatchilikka o'tishda "sinfiy" nazariyadan farqli ravishda boshqacha tarixiy vaziyatni ko'rsatmoqda. Demak, ilk davlat uyushmalarining ishlab chiqarish jarayonida dastlab ozod jamoa vakillarining mehnati muhim o'rin tutganligi to'g'risidagi nazariyani tan olishga to'g'ri keladi.

Adabiyotlarda mavjud yana bir xulosa shundan iboratki, Qadimgi Sharqda faqat davlatchilik hokimiyati va siyosiy institutlar shakllangandan so'ng, turli iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, "qo'shimcha mahsulot va boyliklar orttiriladi", "ayrim to'q oilalarning obro'-e'tibori, ijtimoiy o'rni baland bo'lib, boy-badavlat kishilarning ajralib chiqishiga sabab bo'ladi"¹¹². Shu bilan birga, jamiyatda qashshoq ijtimoiy guruhlar paydo bo'ladi, bosqinchilik urushlari natijasida asirlar va qullarning miqdori o'sib boradi. Bu jarayonlar tufayli quldorlik davlatlar jadal rivojlanadi. Ammo turli mintaqalarning ilk davlatlariga turlicha xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlar xos bo'lganligini inobatga olish lozim. O'rta Osiyoning qadimgi jamiyatida sinflar paydo bo'lib, davlatlarning vujudga kelishiga asos bo'lgan, degan nazariya (ya'ni davlat o'zaro nizolarga asoslangan sinfiy

¹¹⁰ Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi... – B. 28-29.

¹¹¹ Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi... – B. 29.

¹¹² Sagdullaev A., Aminov B. va boshq. O'zbekiston tarixi ... – B. 7.

jamiyat mahsuli g'oyasi) aniq isbotini topishi kerak. Turli ma'lumotlarga ko'ra, ibtidoiy jamiyatning yemirilishi paytida xususiy mulkchilik, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik ommaviy ravishda jadal rivojlanmagan.

Ushbu masalani faqat arxeologiya ma'lumotlariga tayangan holda o'rganish o'ta mushkul bo'lib, O'rta Osiyo tarixiga tegishli ilk yozma manbalar, davlat tizimiga o'tish bosqichida va ilk davlatlar davri iqtisodiy hayotida erkin jamoatchilarning yoxud qullarning mehnati ishlab chiqarishni rivojlantirayotgan asosiy kuch bo'lgan, degan savolga javob topish murakkab vazifadir.

I.V. Pyankov "Avesto"da keltirilgan "vira", "vaysa" va "pariaytar" atamalarini "qul" ma'nosi bilan bog'laydi. Olimning fikriga ko'ra, "vira"lar urug' jamoalari qullari, "vaysa"lar – uy-oila qullari bo'lgan¹¹³. Adabiyotlarda mavjud ma'lumotlar bo'yicha "uy quli" – "vaysa"lar oila jamoasi erkin a'zolari bilan "umumiy tom ostida" (uy-joyda) yashaganlar va jamoaning "kichik" vakillariga aylanganlar¹¹⁴.

A. Sagdullayevning ta'kidlashicha, uy qullarining mehnat faoliyati dehqonchilik, uy chorvachiligi, uy-ro'zg'or ishlari bilan bog'langan bo'lib, uy qullari jamoaning erkin a'zolariga nisbatan ancha kam bo'lgan¹¹⁵.

XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlari ilmiy adabiyotlarida ilgarigidek, O'rta Osiyoda ahamoniylargacha bo'lgan davrlarda quyidagi uchta davlat uyushmalari rivojlanganligi to'g'risida so'z yuritildi: Aryoshayana (Aryonam Vaychax) – "Avesto"da viloyatlarning siyosiy uyushmasi ("daxiyusasti"), Aryonam Vayjo – bu ham "daxiyusasti" yoki uning markazi O'rta Osiyoning janubiy hududlarida bo'lgan "Katta Xorazm" yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati, nihoyat, Qadimgi Baqtriya davlati¹¹⁶.

So'nggi yillarda bu masalani I.V. Pyankov maxsus tahlil qilib Aryoshayana uyushmasini "kaviylar" (kayyoniyalar) sulolasi bilan bog'ladi¹¹⁷. Tadqiqotchi

¹¹³ Pyankov I.V. Avesto ... – S. 218-219.

¹¹⁴ Dyakonov I.M. Istoriya Midii ... – S. 183.

¹¹⁵ Sagdullaev A. va boshq. O'zbekiston tarixi ... – B. 29; Avvalgi yillar asarlarida, qarang: Sagdullaev A.S. Usadbi drevney Baktrii ... – S. 82-83.

¹¹⁶ O'zbekiston tarixi. – T.: Universitet, 1997. – B. 45.

¹¹⁷ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya // Istoriya tadjikskogo naroda. Drevneyshaya i drevnyaya istoriya. – Dushanbe, 1998. – T. 1. – S. 334-347.

Aryoshayananing hududiy markazini Baqtriya tashkil qilgan, deb xulosa chiqargan¹¹⁸. Bu xulosa bahsli bo'lib, uni faraz sifatida qabul qilish mumkin, xolos.

T. Shirinovning ta'kidlashicha, Baqtriya va "Katta Xorazm", "osiyocha ishlab chiqarishga" asoslangan davlatlar bo'lib, ularning poydevoriga bronza davrining "ilk sinfiy jamiyati" asos solgan¹¹⁹.

Mustaqillik yillarida ham ilk davlatchilikka bag'ishlangan ko'pdan-ko'p mavzular G'arb tarixshunosligida va sovet davri adabiyotlarida yoritilgan muammolar bilan bog'landi. XIX asrning oxirlaridan boshlab tadqiqotchilar O'rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish sanasini ahamoniylargacha bo'lgan davrlar, ya'ni mil. avv. IX-VII asrlar bilan belgilaganlar.

Lekin sovet davri tadqiqotlariga nisbatan mustaqillik yillarida ilk davlatlarning vujudga kelishi sanasi va davlatlarning turlari to'g'risidagi qarashlar yangi asoslarda rivojlantirilib, ancha o'zgardi. Ikkinchidan, tadqiqotchilar davlatning paydo bo'lishi jarayonini, eng avvalo, aholining umumiy manfaatlarini amalga oshirish zaruriyati bilan bog'lab, davlatning vujudga kelishi "mutlaqo iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmaydi", deb ta'kidladilar¹²⁰.

D.A. Alimova va E.V. Rtveladze O'zbekiston davlatchiligi tarixini o'rganishning quyidagi asosiy qoidalarini qayd qilganlar:

1. O'zbekiston davlatchiligi avtohton etnomadaniy negizga tayanuvchi qadimgi sivilizatsiyaning ilgariga qarab rivojlanishi asosida mustaqil ravishda paydo bo'lganligi.
2. O'zbekiston davlatchiligining an'anaviyligi va uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga qadam-baqadam rivojlanishi.
3. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy shakllarining xilma-xilligi.
4. O'zbekiston davlatchiligi shakllarining sivilizatsiya taraqqiyoti bilan yagona bir jarayondagi tadrijiy takomili¹²¹.

¹¹⁸ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennye obrazovaniya ... – S. 247.

¹¹⁹ Shirinov T. Qadimgi Baqtriya podsholigi "Katta Xorazm" (eramizgacha bo'lgan VII-VI asrlar) // O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001. – B. 12.

¹²⁰ Rtveladze E.V. va boshq. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi ... – B. 30.

¹²¹ Alimova D.A., Rtveladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: SHark, 2001. – B. 5-6.

Umuman olganda, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik va boshqaruv masalalarini o'rganishga kompleks yondashish, ya'ni barcha hududlar tarixini uzviy bog'liqlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan So'g'd va Farg'ona hududlaridagi qadimgi davr yodgorliklarini chuqur va qiyosiy o'rganish hozirgi kunda juda dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida R.H. Sulaymanov, M.X. Isomiddinov, O.N. Lushpenko, A. Raimkulov, M.X. Hasanov hamda Fransiya olimlari P. Bernar, F. Grene, K. Rapenlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qadimgi So'g'd tarixiga oid ma'lumotlar ancha kengaydi. Mazkur qadimshunoslarning nashrlarida ayrim muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yoritildi¹²².

Mustaqillikdan so'ng Xorazmda kechgan davlatchilik jarayonlarini o'rganishga katta e'tibor berildi. Mazkur masala yuzasidan sovet davrida ham tadqiqotlar olib borgan Yu.A. Rapoport, M.G. Vaynberglar ma'lumotlari diqqatga sazovordir¹²³. Ular "Katta Xorazm" va umuman, davlatchilik muammosini yangicha asosda talqin qilganlar. Tadqiqotchi L.T. Yablonskiy ko'chmanchilar konfederatsiyasi va saklar bilan bog'liq migratsion jarayonlar hamda ularning Xorazmdagi davlatchilik jarayonlariga ta'sirini tadqiq qilgan¹²⁴. Bu muammoga tadqiqotchi V.N. Yagodin ham o'z maqolalarida katta e'tibor qaratib, Xorazm davlatchiligi vujudga kelishining markazi Sariqamish ko'li bo'ylari hamda janubiy Xorazm hududlariga to'g'ri kelib, ularning ham asosiy markazi Ko'zaliqir va Xazorasp shaharlari bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi¹²⁵. Keyingi davrlarda, ayniqsa, Xumbuztepa, Toshqirmon vohasi va janubiy Xorazmda S.B. Bolelov, S.

¹²² Bernar P., Grene F., Isamiddinov M. Osnovnie rezultati raskopok uzbeksko-fransuzskoy ekspeditsii na Afrasiabe v 1990–92 gg. // *Obshestvennye nauki v Uzbekistane*. – 1994. – № 3-4. – S. 34-42; Isamiddinov M. O date osnovaniya Samarkanda // *Obshestvennye nauki v Uzbekistane*. – 1997. – № 5. – S. 62-67; Isamiddinov M., Rapen K. Stratigrafiya Koktepa // *IMKU. Vip. 30*. – Samarkand, 1999. – S. 68-79; Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. – T.: Fan, 2000. – 342 s.; Sulaymanov R., Xasanov M., Raimkulov A., Omelchenko A. Epoxa Zaratushtri i nachalo urbanizatsii drevnego Naxshaba // *O'zbekiston tarixi*. – 2001. – № 3. – B. 9-17.

¹²³ Rapoport Yu.A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // *Priarale v drevnosti i srednevekovye*. – M.: Nauka, 1998. – 31 s.; Vaynberg B.I. Etnogeografiya Turana v drevnosti. – M.: Vost. lit. RAN, 1999. – 287 s.

¹²⁴ Yablonskiy L.T. Saki Yujnogo Priaralya (arxeologiya i antropologiya mogilnikov). – M.: Izd. vost. lit., 1991. – 328 s.

¹²⁵ Yagodin V.N. Drevneyshaya gosudarstvennost i problema "Bolshogo Xorezma" (1-2 tsikl) // *Vestnik KKO AN RUz*. – 2007. – № 1. – S. 75-79; – № 2. – S. 70-78.

Baratov, Sh. Matrasulov, V.N. Yagodin, G'.X. Xodjaniyazovlar tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega¹²⁶.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga tegishli umumiy mavzular va ilmiy muammolarning mavjudligi ma'lum. Ilk davlatchilik tarixi, shular jumlasidandir. Mustaqillik yillarida yangi tarixning yoritilishi, etnik va davlatchilik tarixini qayta ko'rib chiqish, baholash jarayoni mintaqa respublikalarida bir-birlaridan mustaqil ravishda boshlandi. XX asrning 90-yillarida ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy nashrlarda mintaqa tarixining turli masalalari noxolis yoritilishi va talqin qilinishi jarayoni deyarli e'tiborsiz qolgan.

O'zbekistonda ushbu masala yuzasidan dastlab D.A. Alimova, Yu.F. Buryakov, M.I. Filanovich, E.V. Rtveladze va A.S. Sagdullaevlar 2003-yilda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalarida o'z fikrlarini bildirishdi¹²⁷. Shu yili Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada mintaqa xalqlarining tarixiga zamonaviy yondashuvlar masalalari ko'rib chiqildi¹²⁸.

2004-yilda "Markaziy Osiyoning yangi tarixi. Tarixni qayta ko'rib chiqish, zamonaviy muammolar va yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyada bir qator olimlar M. Abuseitova, D. Alimova, E. Rtveladze, X. Pirumshoev, T. Bakchiev, A. Sagdullaev va boshqalar mintaqa xalqlarining umumiy tarixi va madaniy merosiga munosabat masalasini ko'tarib, quyidagi muammolarning mavjudligiga o'z e'tiborini qaratdilar:

– o'tmish voqealarini soxtalashtirish, o'z xalqining davlatchilik tarixi mintaqada eng qadimgi voqea sifatidagi g'oyani keng targ'ib qilish;

¹²⁶ Bolelov S.B. Nekotorie itogi arxeologicheskix rabot na Xumbuztepe // Obshestvennye nauki v Uzbekistane. – 1999. – № 9-10 – S. 85-90; Baratov S., Matrasulov SH., Madaminov M.R. Arxeologicheskie raboti v YUjnom Xorezme // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane. – 2002 god. – T.: Xalq merosi, – 2003. Vip. 3. – S. 38-45; Baratov S.R. Arxeologicheskie issledovaniya na yuge Xorezma v 2004-2005 gg. // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane. – 2004-2005 godi. – T.: Fan, 2006. Vip. 5. – S. 47-55; Betts A.V., Yagodin V.N., Xodjaniyazov G.X. Arxeologicheskie iziskaniya v drevnem Tashkirmanskoy Oazise // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2004-2005 gg. – T.: Fan, 2006. Vip. 5. – S. 55-64.

¹²⁷ Qarang: Uchitel Uzbekistana. 2003, 16 may; 13 iyun; 25 iyul; Ma'rifat. 2003, 25 iyun.

¹²⁸ Istoriya, problemi ob'ektivnosti i nraivstvennosti // Materiali mejdunarodnoy nauchno-teoreticheskoy konferensii. – T., 2003. – 275 s.

– etnik tanlanganlik, ayrim xalqning ulug’vorligi, “fenomeni” haqidagi qarashlar¹²⁹.

Markaziy Osiyo tarixini xolis va haqqoniy yoritish maqsadida E.V.Rtveladze va A.S. Sagdullaev “Sovremennie mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii” nomli risolasini chop etdilar¹³⁰. Shuningdek, A.S. Sagdullaev tomonidan “Psevdoistoriya Sentralnoy Azii - barer na puti integratsii” nomli maqola chop etildi¹³¹.

Hozirgi kunda mintaqa tarix fanidagi ahvol etnik tarix va qadimgi davlatchilik muammosi singari masalalarni o’rganishda hamkorlikning oqsayotganligidan dalolat bermoqda.

O’rta Osiyo tarixini “qayta ko’rib chiqish” jarayoni, dastavval XX asr 90-yillarining boshlarida Tojikiston tarixchilari tomonidan boshlanib, “yangi” yondashuvlar va xulosalar bir qator turli adabiyotlarda o’z aksini topgan¹³².

E.V. Rtveladze va A.S. Sagdullaevlarning ta’kidlashicha, ushbu adabiyotlarda tarixni bo’yab ko’rsatish holatlari, o’tmish voqealarni ideallashtirish hamda haddan tashqari sun’iy qahramonlashtirish va ayrim xalqlar tarixini afsonalashtirish, shuningdek, qadimgi tarixning murakkab muammolarini afsona va rivoyatlardagi ma’lumotlarga tayangan holda hal qilish mumkinligini isbotlashga urinishlarni ko’rish mumkin.

Ba’zi “yangi” kontsepsiyalarga tanqidiy baho berib, A.A. Asqarov quyidagi xulosalarni chiqargan: “Afsuski keyingi yillarda O’rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini o’rganishda yana ilmiy tafakkurga yot “paneronizm” g’oyasi jonlanib, mintaqada milliy nizolarga olib keluvchi harakatlar qilinmoqda”¹³³.

¹²⁹ Novaya istoriya Sentralnoy Azii. Pereotsenka istorii, sovremennie problemi i podxodi // Materiali mejdunarodnoy nauchnoy regionalnoy konferensii. – T., 2004. – 146 s.

¹³⁰ Rtveladze E.V., Sagdullaev A.S. Sovremennie mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii. – T.: Uzbekistan, 2006. – 50 s.; Ushbu risolaning ikkinchi nashri: – T.: Chulpan, 2007. – 56 s.

¹³¹ Sagdullaev A.S. Psevdoistoriya Sentralnoy Azii – barer na puti k integratsii // Biznes-vestnik Vostoka. – 2006, 7 sentabrya.

¹³² Masov R. Istoriya topornogo razdeleniya. – Dushanbe: Irfon, 1991; Negmatov N.N. Tadjiki. Istoricheskiy Tadjikistan – Sovremenniy Tadjikistan. – Gissar: B.i., 1992; Negmatov N. Tadjikskiy fenomen: teoriya i istoriya. – Dushanbe: B.i., 1997. – 355 s.

¹³³ Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Universitet, 2007. – B. 86.

XX asrning 90-yillarida va XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyodagi ilk davlatchilik muammosi faqatgina tarixchi-mutaxassislarning tadqiqotlari bilan bog'liq emas. E.V. Rtveladze va A.S. Sagdullaevlarning fikrlariga ko'ra, bir qator respublikalarda qadimgi tarix jurnalistlar, yozuvchilar va jamoat arboblarning ommabop mashg'ulotiga aylanib qoldi¹³⁴. Yuqorida qayd qilingan yondashuvlar va nazariyalarga faqat salbiy baho berish mumkin. Fandan yiroq bo'lgan xulosalar tarixiy haqiqatni ro'yobga chiqarishga xizmat qilmaydi¹³⁵.

Ayrim mualliflar, tarixshunoslik qoidalari, fanda to'plangan tajriba va ilmiy ma'lumotlar banki, fikr yuritish va turli farazlarni o'rta tashlashga monelik qilmaydi, degan xulosaga duch keldilar¹³⁶. Turli mualliflarning o'z xohishi bilan mintaqa ilk davlatchiligi tarixini erkin talqin qilinishi tufayli, mavzu noxolis yoritilmoqda. Bunday izlanishlarning aksar hollarda fundamental ilmiy tadqiqotlar bilan hech qanday aloqasi yo'q. Zamonaviy "yangicha" qarashlar va g'oyalar paydo bo'lishi natijasida, tarixiy dalillarga subyektiv yondashilgan va mintaqa xalqlarining tarixi ochiqdan-ochiq soxtalashtirilgan holda noxolis yaratilmoqda. Tarixshunos olimi D.A. Alimovanning ta'kidlashicha, o'tgan asrning 90-yillarida "jamiyatni o'tmishga bo'lgan qiziqishidan tarixiy sensatsiyalar orqali foydalanish mumkinligini anglagan va tarixshunoslikdan yiroq bo'lgan kishilar o'zlarining g'ayrioddiy qobiliyatlarini namoyon qildilar"¹³⁷. Shu bilan birga, turli respublikalarda tarixiy jarayonlarga xolis baho berish o'z ahamiyatini yo'qotmadi, bunday yondashuv kelajakda Markaziy Osiyoning qadimiy tarixini hamkorlikda haqqoniy yaratilishiga poydevor bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston tarixshunosligida davlatchilik mavzusini yangi asoslarda yoritish o'tgan asrning 90-yillaridan boshlandi. Ushbu tadqiqotlarning dastlabki natijalari maqolalar, monografiyalar, ilmiy to'plamlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklarda o'z aksini topdi¹³⁸.

¹³⁴ Rtveladze E.V., Sagdullaev A.S. Sovremennie mifi ... – S. 20.

¹³⁵ O'sha joyda. – S. 6-9.

¹³⁶ O'sha joyda. – S. 20.

¹³⁷ Alimova D. O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligida tarix fani // O'zbekiston tarixi. – 2006. – № 4. – B. 30.

¹³⁸ Askarov A.A., Shirinov T.Sh. Ranyaya gorodskaya kultura epoxi bronzi yuga Sredney Azii. – Samarkand: Institut arx. AN RUZ. – 1993. – 162 s.; Askarov A.A. Nekotore voprosi stanovleniya uzbekskoy gosudarstvennosti // Obshestvennie nauki v Uzbekistane. – 1997. – № 3-4. – S. 65-76; Suleymanov R. Poyavlenie goroda na

II Bob bo'yicha xulosa

Yuqorida qayd qilingan dalillar asosida qadimgi boshqaruv tizimi va ilk davlatchilik tarixiga zamonaviy yondashuvlar masalasi yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- XX asrning 90-yillarida qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik mavzusini o'rganishda yangicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi tufayli sovet davridan meros qolgan sinfiy nazariya o'z ahamiyatini yo'qotmagan;

- mustaqillik yillarida olimlarda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davlatchilik tarixini xolis yaratish uchun yangi umumlashma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari paydo bo'ldi;

- XXI asr boshlarida ayrim tadqiqotchilar davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarning ko'p xilligiga o'z e'tiborlarini qaratib, bu masalani o'rganish va yechish faqat sinfiy nazariya bilan chegaralanmaydi, deb ta'kidladilar;

- ko'plab nazariyalarning mazmun-mohiyatiga tanqidiy baholar berish bilan birga ushbu nazariyalardagi ijobiy jihatlarni ajratib ko'rsatish lozim degan xulosa vujudga keldi;

- ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruvdan siyosiy hokimiyatga o'tish asoslari, xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarining tarixshunosligi maxsus mavzu sifatida yetarli darajada yoritilmagan;

- yangicha yondashuvlar, davlatning vujudga kelishi jarayonini, eng avvalo, aholi va jamiyatning umumiy manfaatlarini amalga oshirish zaruriyati bilan bog'lanishi, boshqaruvning turli maqsad, vazifalari va funksiyalari bilan bog'liq holda talqin qilinishi mustaqillik davri O'zbekiston tarixshunosligida muhim o'rin tutdi;

- hozirgi kunda ilk davlatchilik tarixiga sivilizatsiyaviy yondashuv bilan birga sinfiy nazariyaga asoslangan yondashuv ham qo'llanilmoqda, bu holat tanqidiy nuqtai-nazardan chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi;

Erkurgane v protsesse urbanizatsii i slojeniya gosudarstvennosti na territorii Uzbekistana // O'zbekiston tarixi. – 1999. – № 2. – S. 14-22; Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000. – 271 b.; O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001. – 207 b.; Isamiddinov M.X. Istoki gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda. – T.: A. Kadiri, 2002. – 255 s.; O'zbekiston tarixi. – T.: Yangi avlod, 2003. – 674 b.

III – Bob. Xorazm arxaik davri tarixi muammolarining o'rganilishi masalasi.

1. Xorazmda ilk davlatchilik muammosi manbashunosligi va tarixshunosligi.

O'rta Osiyoda ilk davlatchilik muammosining tarixshunosligi natijalariga ko'ra, dastlab ushbu masalaning o'rganilishi mintaqadagi ilk davlatlarning vujudga kelishining tarixiy sanasi–xronologiyasi va hududiy joylashuvi hamda hududiy chegaralarini aniqlash bilan bog'langan bo'lib, bu yo'nalishda quyidagi masalalar muhim ahamiyat kasb etgan:

1. Qadimgi Xorazm yoki “Katta Xorazm” davlatining tarixiy geografiyasi va hududiy joylashishini aniqlash.
2. “Avesto”da tilga olingan viloyatlar siyosiy birlashmasi Aryoshayyonaning hududiy tarkibini tahlil qilish.
3. Qadimgi Baqtriya podsholigi mavjudligini isbotlab berish va uning tarixiy sanasini tahlil etish.

Ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalarini umumlashtirish sovet tarixshunosligida XX asrning 30-yillarida boshlangan. S.P. Tolstovning 1938-yilda chop etilgan “O'rta Osiyo qadimgi tarixining asosiy savollari” degan maqolasida ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalari tahlil qilingan edi¹³⁹. Shu davrgacha mazkur masala sovet tarixshunosligida deyarli o'rganilmagan. Bu borada tadqiqotchilar G'arb adabiyotlarida mavjud nazariyalarni umumlashtirib, muammo yuzasidan o'z fikrlarini bildirganlar.

XX asrning 50-yillarida G'arb olimlari V.B. Xenning va I. Gershevichlar 30-yillarda fanga joriy etilgan I. Markvartning Xorazm davlati to'g'risidagi g'oyasini yangi asoslarda rivojlantirib, ushbu davlat Ahamoniylar bosqiniga qadar Gerirud-Tajan daryosi vohasida Marv va Hirot atroflaridagi hududlarni birlashtirgan, deb yozganlar. Ushbu xulosaga ko'ra, “Katta Xorazm” davlati tarkibiga Marg'iyona,

¹³⁹ Tolstov S.P. Osnovnie voprosi drevney istorii Sredney Azii // Voprosi drevney istorii. – 1938. – №1. – S. 176-203.

Ariya va Parfiya viloyatlari kirgan¹⁴⁰. Bunday yondashuv ilmiy adabiyotlarda bir qator shubhalarga olib keldi.

Shu asr 60-yillarining boshlarida “Katta Xorazm” masalasi tarixshunosligi va muammoga yondashuv V.A. Livshits tomonidan tahlil qilingan¹⁴¹. 70-yillarga kelib, mavzu qizg’in munozaraga aylanib, I.M. Dyakonov, R. Fray, I.V. Pyankov, M.G. Vorobeva tadqiqotlarida o’z aksini topgan¹⁴².

1867-yilda Leypsigda chop etilgan “Qadimgi tarix” asarining muallifi M. Dunker Qadimgi Baqtriya davlati mil. avv. IX asrda paydo bo’lganligini ta’kidlagan¹⁴³. Keyinchalik ushbu mavzuga boshqa Sharqshunoslar ham murojaat qila boshladilar. Ular, asosan, Ktesiyning “Persika” asarida tilga olingan Ossuriya podshosi Nin va Baqtriya podshosi Oksiart urushlari haqidagi ma’lumotlardan foydalanganlar. Ba’zi olimlarning fikriga ko’ra, Ossuriya podsholari O’rta Osiyo hududlariga yurishlar qilmaganlar, boshqa tadqiqotchilar, Baqtriya davlatining mavjudligini isbotlash uchun Gerodotning ma’lumotlaridan foydalanganlar¹⁴⁴.

Baqtriya qudratli harbiy qo’shinlarga ega bo’lib, hatto Ossuriyaga ham bir paytlari raqib bo’lishi mumkin edi, degan faraz yuzaga keldi. S.P. Tolstovning yozishicha, Ahamoniylar davlati tarkibiga Baqtriya ittifoqdosh sifatida kirgan¹⁴⁵. Baqtriya muhim harbiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lib, uning hokimlari vazifasini Ahamoniylar sulolasining vakillari bajarganlar¹⁴⁶.

O’rta Osiyo qadimgi davlatchiligi to’g’risida yozgan G’arb tadqiqotchilarining o’zlari hech qachon O’rta Osiyoda bo’lmaganlar. Shuning uchun ham, ular mintaqaning tarixiy geografiyasi haqida to’liq tasavvurga ega bo’lmasdan turib fikr bildirganlar, faqat tarqoq yozma ma’lumotlardan foydalanib, masalani aniq yoritish murakkab masala bo’lib, muammo ilmiy bahslarga olib kelgan.

¹⁴⁰Henning W.B. Zoroaster: Politician or Witch... – P. 43; Gershevitch I. The Avestan hymn to Mithra. – P. 14.

¹⁴¹Istoriya tadjikskogo naroda. – M., 1963. T. 1. – S. 151-154.

¹⁴²Dyakonov I.M., Vostochniy Iran do Kira ... – S. 122-154; Fray R. Nasledie Irana ... – S. 468; Pyankov I.V. Xorasmii Gekateya Miletskogo // Vestnik drevney istorii. – 1972. – № 2. – S. 3-21; Vorobeva M.G. Problema «Bolshogo Xorezma» i arxeologiya // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. – M.: Nauka, 1979. – S. 38-42.

¹⁴³Dunker M. Geschichte des Alterthums. – Vd. IV. – Leipzig, 1867. – S. 15.

¹⁴⁴Gerodot. Istoriya. V devyati knigax / Per. G.A. Stratanovskogo. – L.: Nauka, 1972. – Kn. I. 153.

¹⁴⁵Tolstov S.P. Osnovnye voprosy ... – S. 184.

¹⁴⁶Mavzuga tegishli ma’lumotlar, qarang: Monchadskaya E.A. O pravatelyax Baktrii i Sogdiani VI-IV vv. do n.e. // Tr. Gos. Ermitaja. – L., 1961. T.V. – S. 110-116.

XX asr o'rtalarida mavzu M.M. Dyakonov tomonidan tahlil qilingan. Qadimshunos olimning yozishicha, Ahamoniylar davrigacha O'rta Osiyoda yirik davlat uyushmalari rivojlanmagan bo'lib, ilk davlatlar kichik vohalarda tashkil topgan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, "Avesto" keng hududda joylashgan jamiyatni tasvirlab, bu jamiyat urug'-qabila munosabatlari an'analarini o'zida saqlagan¹⁴⁷.

XX asrning 30-yillaridan boshlab sovet tarixshunosligida O'rta Osiyoda ilk davlatlarning tashkil topishi Qadimgi Sharq hududlari singari yirik sug'orish inshootlarining barpo etilishi masalasi bilan bog'langan holda talqin qilingan.

S.P. Tolstov mil. avv. VIII-VII asrlarda Xorazmda yirik kanallarning mavjudligini qudratli markaziy davlat siyosati bilan bog'lab, Xorazmda davlat tashkiloti bo'lmaganda, bunday yirik va uzun kanallarni qazib va saqlab bo'lmas edi, degan xulosaga kelgan¹⁴⁸.

V.M. Masson "Xorazmda yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarda barpo etilgan deb, mil. avv. IX-VIII asrlarda Xorazmda sodda dehqonchilik-chorvachilik madaniyati (Amirobod madaniyati) rivoj topgan va mahalliy bronza davri madaniyati xususiyatlarini saqlab, Xorazm tuprog'ida o'sha davrga oid paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa devorlari topilmagan, turar joylar yarim yerto'lalardan iborat bo'lib, sopol idishlar qo'lda yasalgan", - deb ta'kidlagan¹⁴⁹. Bunday xulosalar Xorazm hududlarida davlatning juda erta vujudga kelganligini inkor etgan.

So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya va Ariyani qamrab olgan "Katta Xorazm" davlati to'g'risidagi nazariya ham rad etilgan bo'lib, V.M. Massonning aytishicha, So'g'diyona va Marg'iyona tarixiy-madaniy jihatdan qadimgi davrlardan boshlab, Baqtriyaga ancha yaqin bo'lgan¹⁵⁰.

Ushbu nazariyaga ko'ra, shu davr tarixshunosligida xorazmliklar dastlab O'rta Osiyoning janubida istiqomat qilganlar, qadimgi forslarning harbiy yurishlari

¹⁴⁷ Dyakonov M.M. Slojenie klassovogo obshestva v Severnoy Baktirii ... – S. 121-135; O'sha muallif. Drevnyaya Baktiriya // Po sledam drevnix kultur. Ot Volgi do Tixogo okeana. – M.: Kultprosizdat, 1954. – S. 305-334.

¹⁴⁸ Tolstov S.P. Drevniy Xorezm ... – S. 341; O'sha muallif. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii ... – S. 103.

¹⁴⁹ Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani ... – S. 126.

¹⁵⁰ O'sha joyda.

natijasida, xorazmliklar janubdan Quyi Amudaryo yerlariga siqib chiqarilgan deb, faraz qilingan.

V.M. Masson Qadimgi Baqtriya davlati to'g'risidagi nazariyani yunon tarixchisi Ktesiyning xabarlarini asosida tahlil qilgan¹⁵¹. Ktesiy Ossuriya podshosi Nin tomonidan Baqtriyaga uyushtirilgan harbiy yurishni quyidagicha tasvirlaydi: "Nin Baqtriyaning qal'alari, aholisining ko'pligi va jasurligi haqida xabardor bo'lib, o'ziga bo'ysundirgan xalqlardan ko'p sonli qo'shinlarni yig'ib olgan. Shu qo'shinlarga yo'l boshchi bo'lib, Nin Baqtriya yurtiga bostirib kirgan, ammo viloyat chegaralaridagi xilma-xil tog' daralari va tor yo'llari qo'shinlarni bir necha qismlarga bo'lishga majbur qilgan. Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida mamlakatning markazi Baqtra shahri mashhur bo'lib, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podsho qal'asi alohida joylashgan"¹⁵².

V.M. Masson Ktesiyning asarida Baqtriyaning tarixiy geografiyasi haqiqiy tasvirlangan degan fikrga kelgan (Baqtriyaning janubiy chegaralaridagi Hindiqush tog'lari daralarida tor yo'llarning mavjudligi, Baqtra shahrining mudofaa tizimi va podsho qarorgohi to'g'risida ma'lumotlar va boshqalar)¹⁵³.

Bulardan kelib chiqib, V.M. Masson "Xullas, Kir II ning bosqiniga qadar O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyat quyidagicha bo'lgan. Baqtriyada yirik siyosiy uyushma mavjud bo'lib, u o'z ta'sirini Marg'iyona va So'g'dga o'tkazgan. O'rta Osiyodagi ikkinchi yirik siyosiy kuch – ko'chmanchi qabilalarning uyushmalaridir", - degan xulosaga kelgan¹⁵⁴.

XX asrning 50-yillaridan boshlab "O'rta Osiyoda quldorlik davlatlarning shakllanishi", "O'rta Osiyodagi quldorlik davlatlar" degan mavzular darsliklar va umumlashtirilgan monografiyalarda keng o'rin olgan¹⁵⁵. Tarixiy adabiyotlarda mil.

¹⁵¹ Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura ... – S. 131-132.

¹⁵² O'zbek tiliga tarjima, qarang: Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: O'qituvchi, 1996. – B. 40.

¹⁵³ Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani ... – S. 132.

¹⁵⁴ O'sha joyda.

¹⁵⁵ Ocherki istorii SSSR. Pervobitno-obshinniy stroy i drevneyshie gosudarstva na territorii SSSR. – M., 1956. – S. 241 i sl. ; Martinov A.I. Arxeologiya SSSR. Gl. XI. 1. Zemledelcheskie narodi Sredney Azii v epoxu rabovladelcheskogo stroya. – M.: Visshaya shkola. 1973. – S. 198-207; Istoriya SSSR. – M.: Visshaya shkola. 1983.

avv. I ming yillikning birinchi yarmida O'rta Osiyoning ziroatchilik viloyatlarida yirik sug'orish inshootlarining barpo etilishi, qal'a va shaharlarning paydo bo'lishi davlatchilikning asosiy omillari sifatida yoritilgan.

A.V. Artsixovskiyning 1955-yilda chop etilgan va 1970-yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan "Arxeologiya asoslari" darsligida quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Amudaryodan olingan katta sug'orish kanallari qazilganligi sinfiy tuzum va quldorlik davlati paydo bo'lganligidan aniq dalolat beradi. Odamlar yashaydigan devorlardan iborat shahar xarobalari tarqalganligi shu kanallarga bog'liqdir. Chorvachilik bilan birga dehqonchilik xo'jalikning negizini tashkil etgan, kanallar shunchalik ko'p qazilganki, bu ishni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida amalga oshirish mumkin emas edi"¹⁵⁶.

Demak, asosiy xulosalar shundan iboratki, bunday ishlar davlatchilik sharoitida amalga oshirilgan, kanallarni faqat qullar qazishi mumkin bo'lgan, "hech qanaqa davlat erkin jamoatchilarni bunday g'oyat katta yer ishlarini bajarishga majbur etolmas edi"¹⁵⁷. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tarixida irrigatsiya muhim ahamiyatga ega bo'lgan, irrigatsiya ishlarini amalga oshirishga jamoatchilar keng jalb qilingan, deb xulosa chiqarilgan¹⁵⁸. Masalan, jangchilar qabrlari, harbiy yo'lboshchilarning maqbaralari va harbiy qurollarning mavjudligi, urushlar va harbiy yo'lboshchilarning turli funksiyalari to'g'risida dalolat berishi mumkin. Turli uy-joylar va qabrlarda topib tekshirilgan buyumlar hamda xazinalar jamiyatdagi mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish (harbiy zodagonlar, jamoa zodagonlari, oddiy jamoatchilar, qaram kishilar, asirlar-qullar) jarayonlarining ko'rsatkichi bo'lib, V.M. Massonning fikriga ko'ra, jamiyatda qarama-qarshi sinflarning paydo bo'lganligi, ya'ni ilk sinfiy jamiyatning shakllanganligini tasdiqlaydi¹⁵⁹.

– S. 16-24; Avdusin D.A. Arxeologiya SSSR. Razdel III. Gl. XV. Rabovladelcheskie i feodalnie gosudarstva Sredney Azii i Sibiri. – M.: Visshaya shkola. 1977. – S. 187-190.

¹⁵⁶ Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 1970. – B. 176.

¹⁵⁷ Ocherki istorii SSSR ... – S. 244; Artsixovskiy A.V. O'sha asar... – B. 176.

¹⁵⁸ Andrianov B.V., Muxamedjanov A.R. Irrigatsiya i ee rol v sotsialno-ekonomicheskoy istorii drevney i srednevekovoy istorii Sredney Azii // Obshestvennye nauki v Uzbekistane. – 1980. – № 11. – S. 35-42.

¹⁵⁹ Masson V.M. Ekonomika i sotsialniy stroy drevnix obshestv ... – S. 184, ris. 22; O'sha muallif. Epoxa pervix sivilizatsiy // Voprosi istorii. – 1986. – № 3. – S. 49-63..

XX asr 80-yillarining o'rtalarida O'rta Osiyodagi ilk davlatlar masalasini M.A. Dandamaev, V.I. Sarianidi va G.A. Koshelenkolar tahlil qilganlar.

M.A. Dandamaevning ma'lumotlariga ko'ra, Qadimgi Baqtriya davlatining mavjudligi o'ta bahsli masala bo'lib, o'z yechimini aniq topmagan. Tadqiqotchi mil. avv. IX-VII asrlarda O'rta Osiyoda yirik siyosiy uyushmalar tarkib topganligi to'g'risidagi xulosalarni rad etgan¹⁶⁰. M.A. Dandamaev mil. avv. VIII-VI asrlarda Xorazmda yirik quldorlik davlatining rivojlanganligi haqidagi fikrlarga ham qarshi chiqib, quyidagi xulosalarni chiqargan: "Ahamoniylar davrigacha O'rta Osiyoda jadal rivojlangan shahar hayoti va mustahkam davlat uyushmalari noma'lum bo'lib, hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralmagan edi. Ilk shaharlar O'rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida shakllana boshlagan. Ular So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyona markazlari bo'lgan. Mil. avv. VII asrda ushbu viloyatlarning hududlarida sun'iy sug'orishga asoslangan nisbatan yuksak dehqonchilik madaniyati shakllangan, ammo yirik davlat uyushmalari vujudga kelmagan edi"¹⁶¹.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, M.A. Dandamaev O'rta Osiyoda to'plangan arxeologik ma'lumotlarni yetarli darajada tahlil qilmagan. Mintaqada bronza davridan boshlab qadimgi dehqonchilik madaniyati keng yoyiladi. V.M. Masson, A.A. Asqarov, V.I. Sarianidi, I. Masimov va boshqa olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bronza davrida maxsus hunarmandchilik ishlab chiqarishi vujudga kelgan, ya'ni hunarmandchilik ixtisoslashgan yoki kasbiy bo'lib, dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Ushbu mavzu tadqiqotimizning III bobi 1-2-paragraflarida tahlil qilingan. Umuman olganda, bronza davrida O'rta Osiyoning ziroatchi aholisi xo'jalik, hunarmandchilik, binokorlik va me'morchilik sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ushbu an'analar ilk temir davrida – mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida yangi asoslarda rivojlantirilgan.

¹⁶⁰ O'sha joyda. – S. 30.

¹⁶¹ Dandamaev M.A. Politicheskaya istoriya Axemenidskoy derjavi... – S. 32.

M.A. Dandamaevning asari bilan birga 1985-yilda “Kavkaz va O’rta Osiyoning eng qadimgi davlatlari” degan umumlashtirilgan monografiya nashr etilgan edi. Kitobda asosan arxeologiya masalalari ko’rib chiqilgan. O’rta Osiyo arxeologiyasiga tegishli xulosa qismining mualliflari V.I. Sarianidi va G.A. Koshelenko davlatchilik tarixiga oid ayrim fikrlarni bildirganlar. Ularning yozishicha, mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida O’rta Osiyoning janubida ijtimoiy tizimning bosqichma-bosqich murakkablashuvi jarayoni kuzatiladi. O’troq aholining dehqonchilik vohalarda joylashuvi va ishlab chiqarishni tashkillashtirish zarurati boshqaruvning paydo bo’lishiga asos solgan. Turli - tuman vohalarda sodda davlatchilik uyushmalari tarkib topgan.

Baqtriya davlati shunday mayda davlat tashkilotlarning birlashuvi bo’lgan, deb xulosa chiqarilgan¹⁶².

I.M. Dyakonovning yozishicha, Qadimgi Baqtriya davlati mil. avv. 650-540-yillarda rivojlangan bo’lib, uning shakllanishi ko’chmanchi qabilalarning harbiy yurishlari bilan bog’liq bo’lgan¹⁶³.

I.M. Dyakonov va I.V. Pyankovlarning xulosalarini solishtirgan holda, manbashunoslar “Avesto”da o’z aksini topgan siyosiy voqealarni haqiqiy tarix sifatida talqin qilganlar.

XX asrning 80-yillari oxirlarida ilk davlatchilik masalasi bo’yicha tarixshunoslikda mavjud ma’lumotlar va ilmiy-uslubiy yondashuvlar (asosan, Baqtriya, Marg’iyona va So’g’d misolida) A.S. Sagdullaevning dissertatsiyasida o’z tahlilini topgan¹⁶⁴.

Qadimshunos olim, I.M. Dyakonov xulosalariga nisbatan, Baqtriya davlatining tashkil topishi sanasini mil. avv. 700-yilgacha qadimiylashtirish mumkin, degan fikrni bildirgan. Arxeologik ma’lumotlarga ko’ra, mil. avv. VII-VI asrlarda aynan Baqtriya hududida yirik viloyatlar mavjud bo’lib, ular ayrim dehqonchilik tuman-vohalardan iborat bo’lgan¹⁶⁵. Arxeologik tadqiqotlar natijasida

¹⁶² Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii ... – S. 203.

¹⁶³ Dyakonov I.M. Vostochniy Iran ... – S. 135, prim. 52, – S. 143.

¹⁶⁴ Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza (genezis kulturi i sotsialno-ekonomicheskaya dinamika: Avtoref. diss... dokt. ist. nauk. – M., 1989. – 45s.

¹⁶⁵ Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza ... – S. 38.

harbiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan qal'alar va shaharlarning vujudga kelishi va mustahkam mudofaa tizimining paydo bo'lishi tadqiqotchi tomonidan qayd qilingan.

Shu bilan birga, himoyalash va hujum qurollari (nayzalar, o'qlar, xanjarlar, jangovar boltalar va o'q sifatida ishlatilgan tosh yadrolar) ning paydo bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Olimning fikriga ko'ra, bu ma'lumotlar doimiy harbiy to'qnashuvlar va siyosiy qarama-qarshiliklardan dalolat beradi¹⁶⁶.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, aynan shu davrda murakkab ijtimoiy rivojlanish jarayoni kuzatilib, bu quyidagi dalillarda o'z aksini topgan: alohida dehqonchilik tuman-vohalarida aholining joylashuvi, ushbu tumanlarning daryo havzalaridagi viloyatlarga birlashuvi (turli uy-qo'rg'onlar, qal'a va shaharlarning mavjudligi), tuman va viloyatlar markazlari sifatida harbiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan shaharlarning rivojlanishi va boshqalar¹⁶⁷.

A.S. Sagdullaevning tadqiqotlari qadimgi oila va jamiyat mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Olimning ta'kidlashicha, "Mil. avv. VII-VI asrlarda O'rta Osiyo jamiyatining asosi kichik oiladan iborat bo'lib, har bir kichik oila 5-6 kishini tashkil qilgan. Ular katta patriarxal oila a'zolari bo'lgan. Katta oila (20-25 kishi) umumiy uy-joyda yashagan. Bu uylarda ayrim kichik oilalarga maxsus turar joylar tegishli bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti—"umumiy tom ostida" "katta oila" (uy egasi "nmanopati") rahbarligida o'tganligi bilan izohlanadi"¹⁶⁸. Natijada olim ziroatchilik tuman-voha doirasidagi qadimgi boshqaruv masalasini tahlil qilgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, ilk temir davrida tuman-vohalarida "uy-egasi", "qishloq oqsoqoli", "oqsoqollar kengashi", "tuman hokimi" kabi mansablar mavjud bo'lib, bu ijtimoiy tuzum davlatchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi, deb qayd etgan¹⁶⁹.

Xullas, XX asrning 80-yillari oxirlariga qadar to'plangan ma'lumotlarning tahliliga tayangan holda, A.S. Sagdullaev O'rta Osiyo janubida ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanganligi jarayonini quyidagi davrlar bilan belgilagan:

¹⁶⁶ O'sha joyda. – B. 39.

¹⁶⁷ Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza ... – B. 39.

¹⁶⁸ Sagdullaev A.S. Usadbi drevney Baktrii ... – S. 61.

¹⁶⁹ O'sha joyda. – S. 61-62, 75-76.

1. Bronza davri (mil. avv. II ming yillik). Marg'iyona va Baqtriya vohalarida ilk davlatchilik tizimiga o'tish bosqichi.

2. Bronza davridan temir asriga o'tish davri (mil. avv. X-VIII asrlar). "Avesto"da tilga olingan "Aryoshayyona" kabi vaqtincha harbiy-siyosiy birlashmaning tarkib topishi.

3. Ilk temir davri (mil. avv. VII-VI asrlar). Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishi (aynan Baqtriya, So'g'd, Marg'iyona va Ariya). Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishiga, ichki ijtimoiy-iqtisodiy sabablardan tashqari, ko'chmanchilar tomonidan mavjud harbiy tahdid asos bo'lgan, deb faraz qilingan¹⁷⁰.

Mil. avv. VII asrda O'rta Osiyoning tog'lik va dasht hududlaridagi ko'chmanchilar harbiy sohalarda yutuqlarga erishib, o'troq ziroatchi aholi uchun xavfli raqiblarga aylanganlar¹⁷¹. Yunon tarixchisi Ktesiy saklar malikasi Zarina va midiyaaliklar o'rtasidagi urush to'g'risida hikoya qilgan. Bu davr Midiya davlatining harbiy yurishlari bilan izohlanadi¹⁷².

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, XX asrning turli nashrlarida Xorazm va Baqtriya misolida davlatchilikning mavjudligi tan olingan bo'lib, shu bilan birga o'tgan asrning 70-80-yillarida ba'zi bir tadqiqotchilar (M.A. Dandamaev, I.N. Xlopin, E.V. Zeymal) mintaqaning janubida yirik qadimgi davlatlarning tarkib topganligi to'g'risidagi dalillarni inkor etganlar hamda qadimgi Xorazm davlati haqidagi savol bahsli masalaga aylangan¹⁷³. Ammo O'rta Osiyo o'ziga xos va betakror sivilizatsiya diyori bo'lganligi ko'pchilik olimlar tomonidan tan olingan.

Mintaqa hududlariga tegishli "qadim Xorazm sivilizatsiyasi" tushunchasini dastlab S.P. Tolstov fanga tatbiq qilgan. 70-80-yillarda "Marg'iyona sivilizatsiyasi", "Baqtriya sivilizatsiyasi" kabi atamalar ham tarixiy adabiyotlarda qo'llanilgan. Mustaqillik yillarida sobiq davrda O'rta Osiyo hududlarida amalga

¹⁷⁰ Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza ... – S. 40-41.

¹⁷¹ Litvinskiy B.A. Orujie naseleniya Pamira i Fergani v sakscoe vremya // Materialnaya kultura Tadjikistana. – Dushanbe: Donish, 1968. – Vip.1. – S. 69-115; Vishnevskaya O.A. Kultura saksxix plemen nizoviy Sirdari // Tr. Xorezmskoy arxeologicheskoy ekspeditsii. – 1973. – T. VIII. – 160 s.

¹⁷² Pyankov I.V. Srednyaya Aziya v izvestiyax antichnogo istorika Ktesiya ... – S. 70-73.

¹⁷³ Dandamaev M.A. Politicheskaya istoriya... – S. 30; Xlopin I.N. Istoricheskaya geografiya yujnix oblastey Sredney Azii (antichnost i rannee srednevekovye). – Ashxabad: Ilim, 1982. – 212 s.; Zeymal E.V. K periodizatsii drevney istorii Sredney Azii // Novie pamyatniki pismennosti i iskusstva. – M., 1986. – S. 154-156.

oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari inkor etilmadi va ijobiy baholandi, misol uchun, Xorazmdagi kashfiyotlar to'g'risida quyidagi xulosalar mavjud: "Olimlarning ellik yildan ziyod olib borgan qahramonona mehnat mahsulotlari "Trudi Xorezmskoy ekspeditsii"ning 16 ta jildida, "Materiali Xorezmskoy ekspeditsii"ning 9 ta juzida, "Nizovya Sirdari v drevnosti"ning 5 ta juzida, shuningdek yuzlab ilmiy maqolalarda, monografiyalar va to'plamlarda yoritildi"¹⁷⁴.

Ana shu olimlarning izlanishlari tufayli O'rta Osiyoda ilk davlatchilik tarixi XX asrning 90-yillarida yangi asoslarda tadqiq qilindi.

Zamonaviy tarixshunoslikda O'rta Osiyodagi ilk davlatchilik muammosini I.V. Pyankov tojik xalqining qadimgi davlatchiligi tarixi bilan bog'liq holda talqin qildi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, O'rta Osiyoda qadimgi davlatlar "avesto xalqi" doirasida vujudga kelgan¹⁷⁵. Muallif ushbu etnosni "markaziy eroniy etnik birlik" deb nomlashni taklif qilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, ushbu birlik to'g'ridan-to'g'ri tojik xalqining ajdodi bo'lmasa ham, lekin tojik xalqi shakllangan hududlarda joylashgan edi¹⁷⁶.

I.V. Pyankov "Katta Xorazm" davlati masalasini ko'rib chiqib, bu borada I. Markvart, V. Xenning, I. Gershevich, S.P. Tolstov, I.M. Dyakonov, M.G. Vorobeva, I.N. Xlopin va boshqa tadqiqotchilarning xulosalarini tahlil qilgan. Yunon tarixchisi Gekateyning xabarlariga asoslanib, olim xorazmliklarning hududiy joylashishini Turkman-Xuroson tog' oldi yerlari bilan bog'lab, xorazmliklar Ahamoniylar davrida janubdan quyi Amudaryo hududlariga ko'chirildi degan xulosaga kelib, V.M. Masson va M.A. Dandamaevlar singari qadimgi Xorazm davlatining quyi Amudaryo yerlarida mavjudligini rad etgan¹⁷⁷.

¹⁷⁴ Qadim Xorazm sivilizatsiyasi // Fan va turmush. – 2006. – № 1-3. – B. 5.; Qadimgi Xorazm davlati mavzusiga bag'ishlangan yangi adabiyotlardan, qarang: Yagodin V.N. Drevneyshaya gosudarstvennost i problema "Bolshogo Xorezma" (1 tsikl) // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN RUz. – 2007. – № 1. – S. 75-79.

¹⁷⁵ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya // Istoriya tadjikskogo naroda. T. 1. Drevneyshaya i drevnyaya istoriya. – Dushanbe: B.i., 1998. – S. 238.

¹⁷⁶ Pyankov I.V. Nekotore voprosi etnicheskoy predistorii tadjikskogo naroda // Problemi etnicheskoy istorii narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M., 1988. – S. 102.

¹⁷⁷ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya ... – S. 239-241; O'sha muallif. Ktesiy o Zoroastre ... – S. 64. O'sha muallif. Xorasmii Gekateya Miletskogo ... – S. 16-18.

A.A. Asqarovning fikriga ko'ra, "xorasmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan janubda, Areyadan Sharqda Herirud va Hilmend daryolarining yuqori havzasida, hozirgi Hirot vodiysida bo'lgan"¹⁷⁸.

Tadqiqotchi S.B. Bolelov, O'rta Amudaryo va Xorazm hududlariga Baqtriya aholisi vakillarining ko'chib kelganligi to'g'risidagi xulosaga¹⁷⁹ qo'shilib, ushbu voqea miloddan avvalgi VI asrning birinchi yarmida sodir bo'lgan, deb yozgan¹⁸⁰. V.N. Yagodin ta'kidlashicha, Shimoliy Baqtriya aholisining Xorazmga migratsiyasi haqida Xumbuztepada topib tekshirilgan arxeologik ma'lumotlar dalolat beradi¹⁸¹.

Bizning fikrimizcha, Xorazm vohasida xo'jalik yuritgan qabilalar daryo irmoqlari va undan chiqarilgan sun'iy inshootlar sohili yaqinlarida, shaharlar qurib mayda dehqonchilik vohalarida istiqomat qilganlar. Xorazm vohasi aholisi Ahamoniylar kelgunga qadar, harbiy-siyosiy vaziyat taqozosi bilan Ko'zaliqir kabi shahar-davlatlarni bunyod etgan bo'lishlari ham mumkin. Ammo bu fikrimiz ancha bahsli masala bo'lib, chuqur arxeologik tadqiqotlarni talab etadi, xolos. Zero, xuddi shu davrda tashkil topgan siyosiy birlashma Charmonyap, Daudon, Daryoliq, Kaltaminor, Polvonyap, Amirobod va Xazorasp kabi sug'orish inshootlarini qurdirganki, ularning umumiy uzunligi 70 km. ni tashkil qilgan. Bunday katta hajmdagi sug'orish inshootlarini qurish, uning sohilidagi hududlarda katta va o'rta darajali shaharlarni qurish ishlari, markazlashgan davlat faoliyati bilan bog'liqligini yaqqol tasvirlaydi. So'nggi yillarda chop etilgan adabiyotlarda Xorazmda ilk davlatchilik va qadimgi boshqaruv masalalariga yangicha yondashuvlar kuzatilmoqda. Bunday yondashuvlar Yu.A. Rapoport, L.T. Yablonskiy, S.B. Bolelov, S. Matrasulov, S.R. Baratov, B.I. Vaynberg va V.N. Yagodin tadqiqotlarida o'z aksini topgan¹⁸².

¹⁷⁸ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Universitet, 2007. – B. 113.

¹⁷⁹ Sagdullaev A.S. Margiana i Baktriya... – S. 17.

¹⁸⁰ Bolelov S.B. Nekotorie itogi arxeologicheskix rabot na Xumbuz-tepe. // Obshestvennie nauki v Uzbekistane. – 1999. – № 9-10. – S. 90.

¹⁸¹ Yagodin V.N. Drevneyshaya gosudarstvennost i problema "Bolshogo Xorezma" (2 tsikl) // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN RUz. – 2007. – № 2. – S. 71.

¹⁸² Rapoport Yu.A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priarale v drevnosti i srednevekovye. – M.: Nauka, 1998. – 31 s.; Yablonskiy L.T. Saki Yujnogo Priaralya (arxeologiya i antropologiya mogilnikov). – M.: Vost. lit. RAN, 1991. – 328 s.; Bolelov S.B. Nekotorie itogi arxeologicheskix rabot na Xumbuz-tepe // Obshestvennie nauki v

Xorazm shahar xarobalarida amalga oshirilgan yangi arxeologik tadqiqotlar natijasida, Quyi Amudaryo hududlarida ilk shaharsozlik madaniyatidan dalolat beruvchi yangi ma'lumotlar topib tekshirildi¹⁸³. XX asr tarixshunosligida ushbu madaniyatning shakllanishi ilmiy faraz sifatida Baqtriya va Marg'iyona aholisining Xorazm hududlariga kirib kelishi (migratsiyasi) bilan bog'langan. Yangi arxeologik kashfiyotlar Xorazmda Ahamoniylar davrigacha davlatchilikning paydo bo'lganligini tasdiqlaydi. Yu.A. Rapoportning fikriga ko'ra, qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VII-VI asrlar chegarasida vujudga kelgan¹⁸⁴. V.N. Yagodin ta'kidlashicha, Xorazmdagi ilk davlatchilik o'choqlari Ko'zaliqir va Xazorasp shaharlari atroflarida shakllangan¹⁸⁵.

Qadimgi Baqtriya podsholigi masalasi I.V. Pyankov tomonidan "qadimiy kaviylar podsholiklari" sifatida talqin qilingan. Tadqiqotchi ushbu podsholiklarning tarixini ikki davrga (ilk va so'nggi) ajratib, Kavi Xaosrav (Xusrav) davrida uning davlati kichik mulklarga parchalanganligi to'g'risida xulosa chiqargan¹⁸⁶. Kaviylardan biri Baqtriyaning podshosi Vishtasp bo'lib, u Zaratushtra (Zardusht) ta'limotini qabul qilgan. Zardushtiylikni keng yoyish maqsadida Kavi Vishtasp "diniy" urushlar boshlagan. I.V. Pyankovning aytishicha, Kavi Vishtasp mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmida, ilk kaviylar esa mil. avv. IX-VII asrlarda hukmdorlik qilganlar¹⁸⁷.

"Avesto"da keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda I.V. Pyankov mil. avv. IX-VIII asrlarga oid siyosiy tarix masalalarini yoritgan¹⁸⁸.

Manbashunos olim kaviylar podsholari ro'yxatini tahlil qilgan. Olimning yozishicha, kaviylarning eng qudratli vakillari Kavi Usan va Kavi Xaosrav

Uzbekistane. – 1999. – № 9-10. – S. 85-90; Vaynberg B.I. Etnogeografiya Turana v drevnosti. – M.: Vost. lit. RAN, 1999. – 287 s.; Baratov S., Matrasulov SH., Madaminov M.R. Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane. – 2002 god. Vip. – 3. Arxeologicheskie raboti v Yujnom Xorezme // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane. – T., 2003. – S. 38-45; Yagodin V.N. Drevneyshaya gosudarstvennost i problema "Bolshogo Xorezma" (1 tsikl)... – S. 75-79; (2 tsikl)... – S. 70-78.

¹⁸³ Betts A.V., Yagodin V.N., Xodjaniyazov G.X. Arxeologicheskie iziskaniya v drevnem Tashkirmanskom oazise // Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane. 2004-2005 gg. – T.: Fan, 2006. – S. 55-64.

¹⁸⁴ Rapoport Yu.A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priarale v drevnosti i srednevekovye. – M.: Nauka, 1998. – S. 29-30.

¹⁸⁵ Yagodin V.N. Drevneyshaya gosudarstvennost i problema "Bolshogo Xorezma" (2 tsikl)... – S. 75-76.

¹⁸⁶ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovanie... – S. 240.

¹⁸⁷ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya Sredney Azii ... Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya Sredney Azii ... – S. 241.

¹⁸⁸ O'sha joyda. – S. 242-247.

ariylarning barcha mamlakatlarini birlashtirishga harakat qilganlar. Ularning doimiy raqiblari va xavfli dushmanlari dasht ko'chmanchilari - turonliklar bo'lgan. Kavi Xaosravga qarshi tur qabilalarining yo'l boshchisi Frangrasyon (Afrosiyob) kurash olib borgan¹⁸⁹.

I.V. Pyankovning fikriga ko'ra, Baqtriya geografik jihatdan "Avesto" dunyosida markaziy hududlarda joylashgan. "Avesto" dunyosi yoki viloyatlar birlashmasi dastlab Aryoshayyona (Aryonam Vaychax), asosan O'rta Osiyo, Afg'oniston va Sharqiy Eron hududlarida joylashib, Qang'ha, Gava Sug'da, Mouru, Xapta Xendu, Nisayya, Xarayva, Gandxara, Xaraxvati, Xaytumant, Xnanta kabi viloyatlardan iborat bo'lgan¹⁹⁰.

Oldingi yillarda I.M. Dyakonov ham "Avesto"ning tarixiy geografiyasini tahlil qilib, Aryoshayyona – Kavi Vishtaspning podsholigi bo'lgan, keyinchalik Aryoshayyona Baqtriyaning tarixiy qismiga aylangandan so'ng, Kavi Vishtasp yozma an'analarda Baqtriya podshosi sifatida qabul qilingan, deb ta'kidlagan¹⁹¹.

"Avesto"da o'z aksini topgan tarixiy geografiya to'g'risidagi ma'lumotlarni A.S. Sagdullaev ham tahlil qilgan. Tadqiqotchining ma'lumotiga ko'ra, "Avesto"ning mamlakatlar ro'yxatida birinchi navbatda tilga olinayotgan Aryoshayyona, Aryonam Vayjoni – bu keng hududda joylashgan o'lka deb tushunish mumkin. Videvdat kitobining maxsus bobida Aryonam Vayjo Vanxvi Daiti daryosi atrofida joylashgan, deb e'lon qilingan.

Vanxvi Daiti daryosi bizga noma'lum bo'lib, uni yirik sersuv daryo, deb faraz qilish mumkin. Aryonam Vayjo iqlimi baland tog'li viloyatlar tabiatiga yaqin bo'lib ko'rinadi. Ammo Aryonam Vayjoning geografik chegaralari to'g'risida "Avesto"da aniq ma'lumotlar yo'q"¹⁹², deb xulosa chiqarilgan.

I.V. Pyankovning yozishicha, Vanxvi Daiti (Vaxvi Dat'ya) – bu Amudaryo bo'lib, "Avesto"dagi Xara, ya'ni Pomir tog'laridan boshlangan. Tadqiqotchi

¹⁸⁹ O'sha joyda. – S. 243-244.

¹⁹⁰ O'sha joyda. – S. 247.

¹⁹¹ Dyakonov I.M. Vostochniy Iran do Kira ... – S. 136-144.

¹⁹² Sagdullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi ... – B. 45.

“Avesto” geografiyasida Xorazm chekka o’lka sifatida tasvirlangan, deb ta’kidlagan¹⁹³.

XX asr 90-yillarining ayrim nashrlarida oldingi yillar tarixshunosligining kamchiliklari sifatida O’rta Osiyoning ilk davlatchiligi tarixiga oid ijtimoiy munosabatlar masalasi ko’rilmagan, “mavjud fikrlarda asosan quldorlik munosabatlari bo’lganligi ta’kidlangan”, deb xulosa chiqarilgan¹⁹⁴. Bunday xulosaga to’liq qo’shib bo’lmaydi, chunki bir qator monografiyalar va maqolalarda bronza va ilk temir davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, jumladan, masalaga tegishli “Avesto” ma’lumotlari o’z tahlilini topgan.

Shu davr tarixshunosligining yana bir xususiyati shundan iborat ediki, O’rta Osiyoda ilk davlatchilik tarixini yoritishda (masalan, mazkur dissertatsiyada tilga olingan va iqtiboslar berilgan I.V. Pyankov, V.I. Sarianidi, S.S. Qudratov va boshqa olimlarning asarlari), avvalgi yillarda mintaqa tarixshunosligida davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi natijalari maxsus ko’rib chiqilmagan. Ammo, bu yo’nalishda turli qarashlar va yondashuvlarning mavjudligi ma’lum. Ilk davlatlarni davrlashtirish masalasi hozirgacha muammoli bo’lib, o’z yechimini topmagan.

XX asrning 90-yillarida, tadqiqotchilar ilk davlatlarning shakllari, boshqaruv tizimi va ijtimoiy munosabatlari kabi mavzularni tahlil qilishga harakat qilganlar.

Ilk davlatlarning rivojlanish bosqichlari va turlarini o’rganish maqsadida I.M. Dyakonov va V.A. Yakobsonlar nazariyasidan keng foydalanildi, unga ko’ra, davlatning qadimgi shakllari quyidagicha ta’kidlangan: shahar-davlat (“nom”), podsholik (o’rtamiyona hududiy davlat), imperiya (yirik hududiy davlat)¹⁹⁵.

Ikkidaryo oralig’i (Mesopotamiya) misolida shahar-davlatlar mudofaa devorlari bilan o’ralgan bo’lib, ularning hududlarida bosh ibodatxona, ma’muriyat binolari, hunarmandchilik ustaxonalari, oziq-ovqat omborlari joylashgan.

V.M. Masson, V.I. Sarianidi, A.A. Asqarov, T.SH. SHirinov va boshqa tadqiqotchilar ushbu nazariyaning tarafdorlari bo’lib, bronza davrida O’rta Osiyo

¹⁹³ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya ... – S. 247.

¹⁹⁴ Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ... – B. 42.

¹⁹⁵ Dyakonov I.M., Yakobson V.A. “Nomovie gosudarstva”, “territorialnie tsarstva”, “polisi” i imperii”. Problemi tipologii // Vestnik drevney istorii. – 1982. – № 2. – S. 3-16.

janubida va SHimoliy Afg'onistonda (Oltintepa, Gonur, Togolok, Dashtli hamda Jarqo'ton misolida) shahar-davlatlar, "nomlar" vujudga kelganligini ta'kidlaganlar¹⁹⁶. V.I. Sarianidi Murg'ob vohasidagi bronza davri yodgorliklari misolida "Qadimgi Sharq podsholigi" degan savolni ro'yobga chiqardi¹⁹⁷. Bizningcha, bu tarixiy atama noto'g'ri nomlangan, chunki "Sharq" tushunchasi juda keng.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Dashtli, Gonur va Jarqo'tondagi topib tekshirilgan saroy, ibodatxona, hunarmandchilik ustaxonalari mudofaa devorlari bilan o'rab olinmagan.

Ilk davlatlarning arxeologik belgilari va shakllari muammosi S.S. Qudratov va Sh. Shaydullaev nashrlarida ko'rib chiqilgan¹⁹⁸. S.S. Qudratovning risolasida shahar-davlatlar va podsholiklarning paydo bo'lishi sanasi, "Katta Xorazm", Qadimgi Baqtriya davlati, ilk davlatlarning turlari kabi masalalar tahlil qilingan¹⁹⁹. Fikrimizcha, ushbu risolaning bir kichik kamchiligi shundan iboratki, XX asr tarixshunosligida mavjud xulosalar va nazariyalar yetarli darajada tanqidiy yoritilmagan.

Sh.B. Shaydullaev Shimoliy Baqtriyada Ahamoniylar bosqiniga qadar dastlab beshta davlat yoki konfederatsiyalar rivojlanganligi to'g'risida yozib, ularning markazlari esa Jondavlattepa, Qiziltepa, Xaitobodtepa, Qal'ai Mir va Boytudasht hududlarida joylashganligini ta'kidladi²⁰⁰. Tadqiqotchi Boytudasht, Qiziltepa va boshqa qadimgi shaharlar tuman-voha, viloyat markazlari bo'lishi mumkinligi haqidagi avvalgi yillarda e'lon qilingan fikrlarni hisobga olmagan, ikkinchidan, shahar "hududiy davlat markazi" degan tushuncha o'ta murakkabdir. Shuning uchun ham A. Anorboevning

¹⁹⁶ Masson V.M. Epoxa pervix sivilizatsiy // Voprosi istorii. – 1986. – № 3. – S. 49-63; Sarianidi V.I. Drevnosti strani Margush. – Ashgabad: Ilim, 1990. – S. 300-304; Askarov A.A. Nekotorie voprosi istorii stanovleniya uzbekskoy gosudarstvennosti // Obshestvennie nauki v Uzbekistane. – 1997. – № 3. – S. 65-76; Shirinov T. Srednyaya Aziya vo II tisyacheletii do n.e. i protozroastrizm // Istoriya materialnoy kulturi Uzbekistana. – Samarkand, 2000. – Vip. 3. – S. 35-48.

¹⁹⁷ Sarianidi V.I. Margush. Drevnevostochnoe tsarstvo v staroy delte reki Murgab. – Ashgabat: Ilim, 2002. – 272 s.

¹⁹⁸ Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo'lishi...; Shaydullaev Sh. Ilk davlatlarning arxeologik belgilari ... – B. 5.

¹⁹⁹ Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ... – B. 21-34.

²⁰⁰ Shaydullaev Sh.B. Severnaya Baqtriya v epoxu rannego jeleznoego veka. – T.: A.Kadiri, 2000. – S. 118.

fikriga ko'ra, "Surxondaryo viloyatidagi Qiziltepa, Jondavlattepa va Xaitobodtepalar hududiy davlatlarni markazlari qilib ko'rsatilishi ham haqiqatga yaqin emas"²⁰¹.

So'nggi yillarda E.V. Rtveladze tarixiy sivilizatsiyalar, davlatlar va qadimgi shaharlar kabi muammolarni tahlil qildi. Tadqiqotchi mintaqada davlatchilik shakllanishi va rivojlanishi jarayonini ikki davr bilan bog'lagan:

– mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi, Jarqo'ton misolida, "nom" shaklidagi davlatga o'xshash tuzilmaning paydo bo'lishi;

– mil. avv. I ming yillikning boshlari - mil. avv. 539 yil Baqtriya, "Katta Xorazm" va ko'chmanchilarning siyosiy konfederatsiyalarining tashkil topishi²⁰².

E.V. Rtveladze, A.X. Saidov, E.V. Abdullaevlar monografiyasida O'rta Osiyoda qadimgi huquqiy tizimlarning paydo bo'lishi, zardushtiylik huquqi va "Avesto"da huquqiy g'oyalar kabi masalalar yoritilgan²⁰³. Tadqiqotchilar "Avesto"da tilga olingan jazo (o'lim jazosi, qamoqxonaga mahkum etish, jismoniy jazo, gunohni yuvish, qondoshlik o'chi) va dinga qarshi, shaxsga qarshi, hayvonlarga qarshi, axloqqa qarshi, tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlarni atroflicha tahlil qilganlar²⁰⁴.

Qadimgi davlatchilik masalasi A.A. Asqarovning yangi tadqiqotlarida ham o'z aksini topib, ilk davlatlarning paydo bo'lishi sanasi, shart – sharoitlari, omillari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan²⁰⁵.

Ko'chmanchi-chorvadorlar jamiyatida davlatchilikning vujudga kelishi bu alohida mavzu. Yunon tarixchilari asarlarida Zarina, To'maris kabi malikalar boshchiligidagi ko'chmanchi qabilalar konfederatsiyalari to'g'risidagi hikoyalarning mavjudligi ma'lum. XX asr tarixshunosligida mil. avv. VII-VI asrlarda ko'chmanchilarning siyosiy birlashmalari tarkib topganligi haqida ko'p bora faraz qilingan (S.P. Tolstov, A.N. Bernshtam, M.P. Gryaznov, O.A. Vishnevskaya va boshqalar)²⁰⁶. A.A. Asqarov va T.Sh. Shirinovlarning yozishicha, chorvadorlar

²⁰¹ Anorboev A. O'zbekistonda ilk davlatchilik va uning o'rganilishi tarixidagi ba'zi bir muammolar // O'zbekiston tarixi. – 2004. – № 4. – B. 6.

²⁰² Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi ... – B. 48-49; Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii ... – S. 50-51.

²⁰³ Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Ko'rsatilgan asar. – B. 216-239.

²⁰⁴ O'sha asar. – B. 234-235.

²⁰⁵ Asqarov A.A. Nekotorie voprosi istorii stanovleniya uzbekskoy gosudarstvennosti ... – S. 65-76.

²⁰⁶ Bernshtam A.N. Istoriko-arxeologicheskie ocherki TSentralnogo Tyan-SHanya i Pamiro-Alaya // Materiali i issledovaniya po arxeologii. – 1952. – № 26. – 342 s.; Gryaznov M.P. Vostochnoe Priarale // Srednyaya Aziya v

orasida dastlabki davlat uyushmalari mil. avv. I ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan²⁰⁷.

Bizning fikrimizcha, ko'chmanchi chorvador qabilalar yaylov hududlarini kengaytirish maqsadida harbiy jihatdan birlashganlar.

Sovet davri tarixshunosligida Baqtriya va Xorazm singari Choch, Farg'ona va So'g'ddagi ilk davlatchilik masalasi ko'rib chiqilmagan edi. Ayrim ilk yozma manbalarda ("Avesto", Gerodot) so'g'diylar va So'g'd tilga olingan bo'lib, ushbu viloyat alohida qadimgi davlat (podsholik) sifatida eslatilmagan. Bu hol, tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, So'g'd Baqtriya davlati tarkibiga kirganligi to'g'risida dalolat beradi (V.M. Masson, A.S. Sagdullaev)²⁰⁸.

So'nggi yillarda R.H. Sulaymonov, M.X. Isomiddinov, O.N. Lushpenko va B. Eshovlar So'g'diyonada shaharsozlik madaniyati va davlatchilikning shakllanishi masalasini tahlil qildilar²⁰⁹.

M.X. Isomiddinovning ta'kidlashicha, So'g'dda davlatchilikning shakllanishi mil. avv. VIII-VII asrlarda boshlanib, viloyat hududlarida Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir va Yerqo'rg'on kabi yirik shaharlar barpo etildi. Ular saroy-qarorgohlarga ega bo'lib, mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. M.X. Isomiddinovning yozishicha, ulkan mudofaa tizimini barpo etish vazifasi g'oyat katta kuch talab etgan. Bu borada ishlarni rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lgan²¹⁰.

B. Eshovning ta'kidlashicha, mil. avv. VII-VI asrlarda So'g'd va Baqtriya etnik-madaniy birlikni tashkil etardi. "So'g'd davlatchiligi tarixida nafaqat chetdan bo'lgan tashqi ta'sir, balki, ichki omillar va imkoniyatlarning ham ahamiyati katta bo'ldi", - shu

epoxu kamnya i bronzi. – M. – L.: Nauka, 1966. – S. 234; Vishnevskaya O.A. Kultura saksix plemen nizoviy Sirdari // Tr. Xorezmskoy arxeologicheskoy ekspeditsii. – 1973. – T.VIII. – S. 160; Tolstov S.P., Itina M.A. Saki nizovev Sirdari (po materialam Tagiskena) // Sovetskaya arxeologiya. – 1966. – № 2. – S. 151-175.

²⁰⁷ Asqarov A. Shirinov T. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzi yuga Sredney Azii ... – S. 189.

²⁰⁸ Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani // Materialy i issledovaniya po arxeologii. – 1959. – № 73. – S. 123-132; Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza (genezis kulturi i sotsialno-ekonomicheskaya dinamika: Avtoref. diss... dokt. ist. nauk. – M., 1989. – S. 41.

²⁰⁹ Suleymanov R. Poyavlenie goroda na Erkurgane v protsesse urbanizatsii i slojenie gosudarstvennosti na territorii Uzbekistana // O'zbekiston tarixi. – 1999. – № 2. – S. 14-22; O'sha muallif. Drevniy Naxshab... – 342 s.; Isomiddinov M.X. Genezis gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda.: Avtoref. dis. ... dokt. istor. nauk. – Samarkand, 2000. – 42 s.; Eshov B. So'g'diyona tarixidan lavhalar. – T.: Universitet, 2002. – 114 b.

²¹⁰ Isomiddinov M.X. Genezis gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda ... – S. 36; O'sha muallif. Istoki gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda. – T.: A. Kadiri, 2002. – S. 206.

fikr bilan birga, tadqiqotchi So'g'd va Baqtriya tashqi bosqinlardan himoyalash maqsadida siyosiy birlikni ham tashkil qilishi mumkin edi, deb faraz qildi²¹¹.

R.H. Sulaymonov, So'g'd va O'zbekistonning boshqa hududlarida davlatchilikning vujudga kelishi omillarini dehqonchilik xo'jaligi, temir metallurgiyasi, ixtisoslashgan hunarmandchilik va savdo-sotiqning jadal rivojlanganligi bilan bog'lagan²¹².

Shunday qilib, yangi ma'lumotlarning tahlili umumlashtirilgan holda, So'g'dning ilk davlatchiligi to'g'risida yangi yondashuvni vujudga keltirdi.

Qadimgi Farg'ona tarixini o'rganishda Yu.A. Zadneprovskiy katta hissa qo'shgan. Tadqiqotchi qadimgi Farg'onada ilk shaharlarning tarkib topishi masalasini ko'rib chiqqan, keyinchalik muammo B. Matboboev va A. Anorboev maqolalarida o'z tahlilini topgan²¹³.

B. Matboboev qadimgi "voha davlatchiligi" g'oyasiga asoslanib, mil. avv. VIII-VII asrlarda Farg'onada voha davlatchiligi bo'lgan, degan fikrni ilgari surdi²¹⁴. A. Anorboev bunday yondashuvga qarshi bo'lib, quyidagi dalillarni keltirdi: "Farg'ona vodiysi tabiiy geografik va geomorfologik nuqtai nazardan tog'liklar, adirliklar va tekisliklar kabi rayonlarga bo'linadi. Bu yerda shuni aytish joizki, birinchidan, ba'zi bir irrigatsion rayonda ikki, ba'zida uch voha mavjudligini kuzatish mumkin. Agar B. Matboboev ilgari surgan Farg'onaning 15 ta geografik rayonida mil. avv. VIII-VII asrlarda voha davlatchiligi bo'lgan, degan fikrni tahlil qilsak, unda ilk temir davrida Farg'onada 15 ta voha davlati bo'lishi kerak. Bu, albatta, ilmiy nuqtai nazardan hech qanday asosga ega emas, ya'ni noto'g'ridir²¹⁵.

A. Anorboevning fikriga ko'ra, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Farg'onada "boshlang'ich davlatchalar" yoki davlat tipidagi siyosiy uyushmalar vujudga kelgan bo'lsa kerak. "Miloddan avvalgi bir minginchi yillarning boshida

²¹¹ Eshov B. So'g'diyona... – B. 95; O'sha muallif. Istoriya i kultura Sogdiani VII – IV vv. do nashey eri.: Avtoref. dis. ... kand. istor. nauk. – T., 1999. – S. 15.

²¹² Suleymanov R.X. Poyavlenie goroda na Erkgane ... – S. 14.

²¹³ Zadneprovskiy Yu.A. Tipologiya i dinamika razvitiya gorodskix poseleniy drevney Fergani // Drevniy gorod Sredney Azii. – L., 1973. – S. 17-20; Matboboev B. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari // O'zbekiston tarixi. – 2002. – № 1. – B. 3-11; Anarbaev A. O rannem gorode Fergani // Osh i Fergana v istoricheskoy perspektive. – Bishkek, 2000. Vip. 3. – S. 70-71.

²¹⁴ Matboboev B. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari ... – B. 10.

²¹⁵ Anorboev A. O'zbekistonda ilk davlatchilik ... – B. 10.

yuqoridagi tilga olingan boshlang'ich davlatchalar asosida Farg'onada ilk davlat uyushmasi paydo bo'lgan, degan fikrni o'rta tashlasak bo'ladi", - deb xulosa chiqaradi qadimshunos olim²¹⁶.

A. Anorboevning yozishicha, xuddi shunday mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida "nom" tipidagi kichik-kichik davlatlar So'g'dda paydo bo'ladi. Ushbu siyosiy tashkilotlar asosida mil. avv. X-VIII asrlarda So'g'd hududida ham ilk davlat uyushmasi vujudga kelgan, degan fikr ta'kidlanadi²¹⁷.

Davlatchilik masalasiga turli yondashuvlar, O'rta Osiyo hududida ilk davlatlarning qachon paydo bo'lganligi va ularning shakllari masalasida olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu tabiiy bir hol, fikrimizcha, zamonaviy tadqiqotlarda bu masalani yechish maqsadida XX asr tarixshunosligidagi qo'lga kiritilgan ilmiy tajriba, umumlashtirilgan ma'lumotlar, yondashuvlar va xulosalarga doimiy ravishda yetarli darajada e'tibor berilmaydi. Masalan, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Baqtriya, So'g'd va Farg'onada "nom" tipida davlatlar vujudga kelgan deb faraz qilish mumkin. Lekin bunday yondashuv shu davrdagi Baqtriya, So'g'd va Farg'ona aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan umumiy darajada rivojlanganligini isbotlab berishni talab etadi.

Tadqiqotchilar tarixiy adabiyotlarda bu rivojlanishning turlicha bo'lganligini inkor etmaganlar. Masalan, So'g'd va Farg'ona hududlarida bronza davriga oid aynan Togolok, Dashtli va Jarqo'ton turidagi yodgorliklar hanuzgacha topib tekshirilmagan. Shuning uchun ham bronza davrida Baqtriya, So'g'd va Farg'onada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari, xususiyatlari va imkoniyatlari bir-biridan farq qilgan. Ushbu viloyatlarda davlatchilikning shakllanishi ham umumiy sxema bo'yicha emas, balki o'z shart-sharoitlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda vujudga kelgan.

O'rta Osiyoda ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalari yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

– XX asrning 30-yillariga qadar G'arb tarixshunosligida asosan Baqtriya va Xorazm davlati masalasi tahlil topib, bahs-munozaralarga asos solgan;

²¹⁶ O'sha joyda. – B. 11.

²¹⁷ O'sha joyda. – B. 12.

– sovet davri tarixshunosligida ushbu masala yozma va arxeologiya ma'lumotlarining qiyosiy tahlili asosida o'rganilgan bo'lib, bir guruh olimlar tomonidan Ahamoniylar davriga qadar O'rta Osiyoning janubida "Katta Xorazm" davlatining mavjudligi va Qadimgi Baqtriya davlatining rivojlanganligi tan olingan. Quyi Amudaryo hududlarida paydo bo'lgan Xorazm davlati to'g'risidagi g'oya ma'lum qarshiliklarga duch kelgan bo'lib, hatto XXI asr bo'sag'asida chop etilgan maqolalarda Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishi mil. avv. VI- IV asrlar bilan bog'landi²¹⁸;

– XX asrning 60-80-yillarida nashr etilgan turli adabiyotlarda "Avesto"da tilga olingan qabilalarning siyosiy birlashmasi Aryoshayyona to'g'risidagi ma'lumotlar keng yoritilgan, ammo bu masala hozirgi kunga qadar bahsli bo'lib, o'z yechimini topmagan;

– sovet davri tarixshunosligida O'rta Osiyo hududlaridagi ilk davlatlar Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari ta'sirida paydo bo'lgan degan fikrni bildirib, ularning shakllanishida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning ahamiyati, sug'orish inshootlarining qurilishi (ko'pchilik aholini majburiy ravishda jalb etish) boshqaruv va davlatning vujudga kelishini taqozo qilganligi qayd etilgan. Ammo, Qadimgi Sharqda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarni qiyoslash, to'g'ridan-to'g'ri O'rta Osiyo sharoitiga ko'chirish tarixiy nuqtai nazardan bahsli masala hisoblanadi;

– ushbu g'oya asosida O'rta Osiyoda dastlabki siyosiy tashkilotlar quldorlik munosabatlari mazmunida, quldorlik davlatlari sifatida tarixiy sahnada paydo bo'lgan, degan bunday yondashuv zamonaviy tarixshunoslik talablariga mos kelmaydi;

– XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida davlatchilikning shakllanishi jarayoni mintaqaning shimoliy va Sharqiy viloyatlariga nisbatan bronza davrida boshlandi, deb ta'kidlandi va ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi yangi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqildi;

– mustaqillik yillari tarixshunosligida ilk davlatchilik turlari "nom", "boshlang'ich davlat", "shahar-davlat", "qadimiy Sharq podsholigi", "voha-davlatlar" kabi tushunchalar bilan bog'landi, davlatchilik muammosi nafaqat Xorazm, Baqtriya,

²¹⁸ Masson V.M. Sivilizatsiya drevnego Xorezma (etapi i puti samoidentifikatsii) // IMKU. – Samarkand, 1999. – Vip. 30. – S. 89-90.

Marg'iyona tarixiga tegishli, shuningdek, So'g'd va Farg'ona misolida ham tahlil qilindi.

Umuman olganda, mintaq, jumladan, O'zbekistonning zamonaviy tarixshunosligida qadimgi boshqaruv tizimi va ilk davlatchilik muammolari bilan maxsus shug'ullanayotgan mutaxassis olimlarning miqdori yetarli emas. Avvalgi yillarda ham boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi masalasining o'rganilishi kam sonli adabiyotlarda yoritilganligi ma'lum. Yuqorida tahlil qilingan muammolar dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, yangi tadqiqotlarni talab etadi.

2. Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar va madaniy hayot masalalarining o'rganilishi.

XX asrda tadqiqotchilar, qadimiy jamiyatlarning rivojlanishi xususiyatlarini anglash va boshqaruvning kelib chiqishi masalasini o'rganish maqsadida ibtidoiy urug'chilik jamiyati tarixiga murojaat qilganlar.

Ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etishda arxeologik manbalarning ahamiyati beqiyosdir. Tadqiqotlarning natijalari XX asrning turli yillarida S.P. Tolstov, M.E. Masson, B.A. Litvinskiy va boshqa olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan²¹⁹. Shu asrning 60-80-yillarida bu borada alohida umumlashtirilgan monografiyalar nashr qilingan²²⁰.

Ma'lumki, dastlab urug' jamoalari (so'nggi paleolit, mezolit davri) o'zlashtiruvchi xo'jaliklarga, ya'ni termachilik, ovchilik va baliqchilikka asoslanib rivojlangan²²¹. Etnografiya ma'lumotlari bilan solishtirilgan holda, shu narsa aniqlanganki, bu davrlarda ma'lum hududlarda istiqomat qilgan urug' jamoalarini umumiy manfaatlar (baravar ishlash, oziq-ovqat topish va jamoani himoya qilish zarurati) birlashtirgan.

Mil. avv. III-II ming yilliklarda (so'nggi eneolit va bronza davri) ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning O'rta Osiyoning janubiy o'choqlaridan hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududlariga faol tarqalishi boshlangan. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari jadal rivojlanib, ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilgan²²².

Ma'lumki, boshqaruvning ilk bosqichlari ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqaladi. Uning ilk shakllari ijtimoiy boshqaruv sifatida vujudga kelgan.

²¹⁹ Tolstov S.P. Drevnenezemskaya sivilizatsiya v svete noveyshix arxeologicheskix otkritiy (1937–1945) // *Obshee sobranie AN SSSR* 1946 g. – M. – L., 1947. – S. 239-255; Litvinskiy B.A. Arxeologicheskoe izucheniye Tadjikistana sovetsoy naukoy. – Dushanbe: AN TadjSSR, 1954. – S. 3-80; Masson M.E. Kratkiy ocherk istorii izucheniya Sredney Azii v arxeologicheskoy otnoshenii. Do pervoy poslevoennoy pyatiletki // *Tr. SAGU*. – T., 1956. Vip. 81. – S. 5-40.

²²⁰ Srednyaya Aziya v epokhу kamnya i bronzy. – M. – L.: Nauka, 1966. – 288 s.; Eneolit Sredney Azii. Arxeologiya SSSR. – M.: Nauka, 1982. – S. 9-92; Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. Arxeologiya SSSR. – M.: Nauka, 1985. – S. 178-202.

²²¹ Okladnikov A.P. Stanovleniye cheloveka i obshchestva // *Problemy razvitiya v prirode i obshchestve*. – M. – L., 1958. – S. 121-153; Faynberg L.A. Vozniknoveniye i razvitiye rodovogo stroya // *Pervobitnoye obshchestvo*. – M. – L.: Nauka, 1975. – S. 49-82.

²²² Isakov A.I. Sarazm – noviy rannezemel'delcheskiy pamyatnik Sredney Azii // *Sovetskaya arxeologiya*. – 1986. – № 1. – S. 152-167.

XX asrda qadimshunoslarning tadqiqotlari tufayli, neolit davridan boshlab, O'rta Osiyoning qadimgi aholisi moddiy madaniyat jihatdan notekis rivojlanganligi ma'lum bo'ldi²²³. Tog'lar, dashtlar, ko'l va dengiz bo'ylarida yashovchi aholi tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Ularning turmush tarzi ziroatchilarga nisbatan farqli ravishda rivoj topgan²²⁴.

V.M. Massonning yozishicha, "neolit inqilobi" natijasida ishlab chiqarishning o'sishi qo'shimcha mahsulotning vujudga kelishiga yo'l ochgan. Keyinchalik mulkiy tabaqalanish ekspluatatsiyaning shakllanishida iqtisodiy poydevor bo'ldi. Yangi iqtisodiy munosabatlar urug'chilik tizimining tashkiliy funksiyalarini murakkablashtirib, yo'l boshchi rahbarlarning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshirib borgan²²⁵.

Insoniyat tarixining qadimgi davrlaridan boshlab, har bir jamoaning hayotida, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida tashkillashtirish, tartibga solish va amalga oshirish kabi vazifalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Aynan shu masalalar mintaqa qadimshunoslarining asarlarida maxsus mavzu sifatida ko'rib chiqilmagan. Etnografik manbalarga ko'ra, boshqaruvning ilk shakli jamoa a'zolarining umumiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadidagi amaliy jihatdan foydali ijtimoiy boshqaruv bo'lgan (urug' va qabila yo'l boshchilari jamoa a'zolari bilan birgalikda mehnat jarayonlarida ishtirok etgan). O'zlashtiruvchi xo'jaliklarga, ishlab chiqaruvchi iqtisodga asoslangan boshqaruvning mazmuni turlicha bo'lib, maqsad va vazifalari doirasida bir-biridan farq qilgan²²⁶.

Qadimshunoslarning tadqiqotlariga ko'ra, ovchilik va baliqchilik xo'jaliklarini amalga oshirish tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga asoslangan. O'zlashtirilgan tayyor mahsulot jamoa a'zolari o'rtasida iste'mol qilingan. Jamoadagi o'zaro aloqalarni tartibga solish, jamoaning ichki munosabatlarini

²²³ Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi. – M. – L.: Nauka, 1966. – S. 2, 133.

²²⁴ Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990. – S. 69.

²²⁵ Masson V.M. Poselenie Djeytun // Materiali issledovaniya po Arxeologii SSSR. – M., 1971. – № 180. – S. 156.

²²⁶ Pershits A.I., Mongayt A.L., Alekseev V.P. Istoriya pervobitnogo obshestva. – M.: Visshaya shkola, 1968. – S. 98; Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi ... – S. 82, 133.

nazorat qilish, tajriba va amaliy bilimlari bilan boshqalardan ajralib turgan urug' oqsoqollarining vazifasiga aylangan.

Ibtidoiy jamiyatda huquqiy munosabatlar shakllanmagan holda urf-odatlar, urug'chilik tizimining an'analari, obro'-e'tibor, axloqiy xislatlar, ibtidoiy jamiyat talablariga asoslangan ijtimoiy hokimiyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan²²⁷.

Arxeologik dalillarga ko'ra, Oltintepa aholisi hunarmandlar, ziroatchi shahar aholi va zodagonlar guruhlariga bo'linib, ular maydoni 90-50-100 kv.m.dan iborat alohida uylarda yashaganlar²²⁸. Bu yerda turlicha ishlab chiqarish faoliyati to'g'risida ixtisoslashgan hunarmandchilik (kulolchilik, metallchilik, to'qimachilik, zargarlik), binokorlik va sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik dalolat beradi²²⁹. O'z navbatida, turlicha ishlab chiqarish jarayoni, turlicha boshqaruv prinsiplari va vazifalarini amalga oshirishni talab etgan. Misol uchun, bronza davrida Surxon vohasidagi ziroatchilarning qishloqlari atrofida o'rtacha 50-75 gektar maydonda yerlarga ishlov berilgan (asosan arpa bilan bug'doy ekilgan)²³⁰. Boshqaruv zarurati dehqonchilik ishlarini, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo'jaliklarida yer va suvni taqsimlash, irrigatsiya ishlarini amalga oshirish vazifalari bilan bog'langan²³¹.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ijtimoiy masalalar doirasida jamoalardagi o'zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish, urf-odatlarni bajarish, munozarali masalalarni hal qilish kabi vazifalar ham boshqaruvni talab qilgan.

Dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari doirasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jamiyat hayotida sifatiy o'zgarishlarga asos bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti mol ayirboshlash va savdo-sotiq aloqalariga keng imkoniyatlar yaratgan. Alohida uy-joylar, tomorqa, chorva, mehnat qurollari va ro'zg'or buyumlari xususiy mulkka aylangan²³². Lekin, eneolit va bronza davridagi xususiy mulkchilik, ortiqcha mahsulotning yaratilishi, rivojlanish darajasini faqat arxeologiya ma'lumotlari orqali o'rganish, aniqlash o'ta mushkul hisoblanadi.

²²⁷ Pershits A.I. va boshq. *Istoriya pervobitnogo obshestva...* – S. 98-99.

²²⁸ Masson V.M. *Altin-Depe ...* – S. 101-104.

²²⁹ O'sha asar ... – S. 98-100.

²³⁰ Asqarov A. *Sapallitepa*. – T.: Fan, 1973. – S. 130-131.

²³¹ Sagdullaev A. *Qadimgi O'rta Osiyo tarixi ...* – B. 61.

²³² Masson V.M. *Ekonomika i sotsialniy stroy drevnix obshestv*. – L.: Nauka, 1976. – S. 180.

Shu davrda jamiyatning ijtimoiy munosabatlarida urug'chilik tuzumiga xos xususiyatlarning mavjudligini faraz qilish mumkin. Katta oila a'zolari umumiy uy-joyda hayot kechirganlar, bunday uylar qishloqlarda urug'ga tegishli guzarlarni tashkil etgan. A.A. Asqarovning tadqiqotlariga ko'ra, Janubiy O'zbekistondagi bronza davriga oid Sopollitepada 8 ta alohida guzarga tegishli uy-joy qoldiqlari tekshirilgan. Uylar turar joylar, ro'zg'or va xo'jalik xonalaridan iborat bo'lgan²³³. Urug'chilik tuzumi xususiyatlari saqlanib qolgan holda, xo'jalik ishlarini katta oila a'zolari birgalikda amalga oshirganlar, jamoa oziq-ovqat mahsulotlarini umumiy mulkka aylantirib, ular o'rtasida mahsulotlar baravar taqsimlanganligi – ibtidoiy tuzumning asosiy belgilaridir.

Tarixshunoslikda aks ettirilgan dalillarga ko'ra, ijtimoiy mansablarning vujudga kelishi sabablaridan yana biri – bu jamoadagi e'tiqod, urf-odatlarini bajarish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. E'tiqod, ilk diniy qarashlar tosh davrida paydo bo'lib, eneolit va bronza davrlarida o'tga, quyoshga, yerga, suvga, hosildorlikka sig'inish keng tarqalgan²³⁴. Barpo etilgan maxsus ibodatxonalar ijtimoiy hayotning diniy markazlariga aylanib, kohinlar, diniy arboblarning faoliyatini yuzaga keltirgan.

Adabiyotlardagi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, metallchilik sohasida texnologik yangiliklarni tatbiq etilishi, mehnat qurollari ishlab chiqarish uslublari o'zgarishi bilan odamlar xom ashyo konlarini (mis, qo'rg'oshin, qalay konlari) izlab topishga majbur bo'lganlar. Tabiiy qazilma boyliklar, metall konlarini qidirish, yangi hosildor yerlar va suv manbalarini o'zlashtirish natijasida, ziroatchi aholining uzoq hududlarga tarqalishi jarayoni boshlanadi²³⁵. O'troq qabilalar alohida voha-tumanlarda joylashganlar.

Bronza davrida yirik markaziy maskanlar shahar ko'rinishiga ega bo'lib, ularning qurilishida me'moriy rejalashtirishga amal qilingan (ko'chalar, maydonlar, guzarlar va katta jamoa binolari)²³⁶. Binokorlik amaliy bilimlar va

²³³ Asqarov A. Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana. – T.: Fan, 1977. – S. 16-27.

²³⁴ Eneolit Sredney Azii ... – S. 58-60.

²³⁵ Sagdullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo ... – B. 24-25.

²³⁶ Masson V.M. Altin-Depe ... – S. 35

ixtisoslikni talab etgan. Binokorlik ishlarini rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish paytida boshqaruv muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Demak, ijtimoiy mansablar va boshqaruvning vujudga kelishi turli omillarga asoslangan. Dastlab qadimgi boshqaruv tizimida iqtisodiy va ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalarga ko'ra, ijtimoiy mansablarni egallash jamoa ishlab chiqarish ishlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'langan. "Boshqaruv faoliyati zarurati ishlab chiqarishni tashkillashtirish, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va jamoa mahsulotini taqsimlash kabi ishlar bilan maxsus shug'ullanuvchi ayrim shaxslarni yuzaga chiqargan"²³⁷. Darhaqiqat, boshqaruv faoliyati zarurati faqat iqtisodiy omillar bilan chegaralanmagan. Jamoaning ichki aloqalari bilan birga uning tashqi munosabatlarini ham boshqarib turish zaruriyati mavjud bo'lgan.

Dehqonchilik, sun'iy sug'orish, binokorlik va hunarmandchilik ishlarini tashkillashtirish bilan band bo'lgan shaxslar aynan o'zlari ishlab chiqarish jarayonida ishtirok qilmaganliklari to'g'risidagi tadqiqotlarning xulosalariga qo'shilish mumkin. Tashkillashtirish, tartibga solish va amalga oshirish vazifalari bilan shug'ullangan shaxslar o'z faoliyati evaziga moddiy jihatdan jamoa mahsulotidan rag'batlantirilgan²³⁸. Xuddi shunday aholiga mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari, sopol idishlarni ishlab chiqargan hunarmandlar ham dastlab (mol ayirboshlash va savdo-sotiq rivojlanishiga qadar) jamoaning qishloq xo'jalik mahsulotidan o'zlarining o'zni va amaliga bog'liq holda ma'lum darajada ulush olganlar. Chunki maxsus hunarmandchilik ishlari bilan band bo'lgan ustalarning qishloq xo'jaligi ishlarida qatnashish imkoniyatlari chegaralangan edi.

Ushbu tarixiy vaziyatda, urug' oqsoqollarining amaliy bilimlari, nufuzlari va obro'-e'tiboriga asoslangan ibtidoiy - ijtimoiy boshqaruv vujudga kelgan²³⁹.

²³⁷ Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – T.: Akademiya, 2006. – B. 25.

²³⁸ O'sha joyda. – B. 25-26.

²³⁹ O'sha joyda. – B. 25.

XX asrning 50-60-yillarida O'rta Osiyoning turli viloyatlarida neolit, eneolit va bronza davri yodgorliklari keng o'rganilgan. Ularni tadqiq qilish natijalari S.P. Tolstov, V.M. Masson, Ya.G'. G'ulomov, I.N. Xlopin, A.A. Asqarov, O'. Islomov, A.V. Vinogradov, M.A. Itina, Yu.A. Zadneprovskiy va boshqa olimlarning nashrlarida o'z aksini topgan²⁴⁰. Tadqiqotchilar arxeologiya materiallariga asoslanib, qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'z e'tiborini qaratganlar, jumladan, manzilgohlarning soni, aholining hududiy joylashuvi, hunarmandchilikning rivojlanishi, xo'jalik, uy-joylarning turlari, qabrlar va ularda topib tekshirilgan buyumlarning sifat jihati.

Bunday yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki bu davrga kelib, tadqiqotlar natijasida, O'rta Osiyoning janubida (Turkmanistonning janubiy-g'arbi) 8-7 ming yil avval (neolit davri) ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (dehqonchilik va uy chorvachiligi), o'troq makonlar va paxsadan qurilgan uy-joylar paydo bo'lganligi aniqlandi. Shu bilan birga, neolit davrida kulolchilik va to'qimachilikning kashf etilishi, o'zaro buyum, ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar mahsulotlarining almashinuvi rivojlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarix faniga joriy etildi.

V.M. Massonning fikriga ko'ra, ishlab chiqaruvchi kuchlarning yangi asoslarda rivojlanishi natijasida, "neolit inqilobi" tufayli, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ancha murakkablashdi. Ushbu o'zgarishlar ibtidoiy - ijtimoiy boshqaruv shakllariga faol ta'sir etgan²⁴¹.

Ushbu masala avvalgi yillar tarixshunosligida ham ko'rib chiqilgan bo'lib, turlicha xulosalarga asos bo'lgan. Ishlab chiqarishni nazorat qilish tufayli, jamoa mahsulotlaridan olinadigan ulush rahbar-yo'l boshchining jamiyatdagi o'rni, nufuzi

²⁴⁰ Tolstov S.P. Itogi dvadtsati let raboti Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii (1937- 1956 gg.) // Sovetskaya etnografiya. – 1957. – № 4. – S. 31-59; Masson V.M. Drevnezemledelcheskie plemena Yujnogo Turkmenistana i ix svyazi s Iranom i Indiyey // Vestnik drevney istorii. – 1957. – № 1. – S. 34-47; Itina M.A. Stepnie plemena sredneaziatskogo mejdurechya vo vtoroy polovine II – nachale I tisyacheletiya do n.e. // Sovetskaya etnografiya. – 1962. – № 3. – S. 109-120; Vinogradov A.V. Novie materialy dlya izucheniya Kelteminarskoy kulturi // MXAEE – M., 1963. Vip. 6. – S. 91-102; Xlopin I.N. Geoksyurskaya gruppa poseleniy epoxi eneolita. Opit istoricheskogo analiza. – M. – L.: Nauka, 1964. – 172 s.; G'ulomov Ya.G., Islamov U., Askarov A. Pervobitnaya kultura i vozniknovenie oroshaemogo zemledeliya v nizovyyax Zarafshana. – T: Fan, 1966. – 266 s.; Zadneprovskiy Yu.A. Chustskaya kultura v Ferganskoy doline // Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi. – M. – L.: Nauka, 1966. – S. 193-207. va b.

²⁴¹ Masson V.M. Ekonomika i sotsialniy stroy ... – S. 181.

va amalini yuqori darajaga ko'targan²⁴². Bunday vaziyat ijtimoiy mansablarni egallagan shaxslar uchun boshqa kishilar mehnati bilan ishlab chiqarilgan mahsulotni o'ziniki qilib olishga keng imkoniyatlar yaratgan.

Ammo, O'rta Osiyoda eneolit va bronza davri arxeologik manbalariga ko'ra, mintaqada dastlab mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish jadal rivojlanmagan. Bir-biridan ancha farq qilmagan alohida oilalarning uy-joylari, qurollar, ro'zg'or buyumlarining soni va sifati ushbu fikrni tasdiqlashi mumkin.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish xo'jaliklari va mol ayirboshlashning rivojlanishi natijasida katta oila jamoalarining qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini orttirishlari uchun qulay vaziyat yaratilgan. Etnografiya ma'lumotlariga ko'ra, jamoa boyliklari dastlab zargarlik buyumlar, metallardan ishlangan idishlar va qurollar sifatida to'plangan²⁴³. O'rta Osiyoda eneolit davridan boshlab, zargarlik buyumlari oltin, kumush, misdan ishlangan, turli ko'rinishdagi munchoqlar, qimmatbaho toshlar – feruza, la'l (lojuvard) va boshqalardan yasalgan. Bunday buyumlar qadimgi qabrlarda topilgan. Ularni o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan, qadimgi ijtimoiy tizimni o'rganishda foydalanilgan²⁴⁴. Ammo, qabrlarda uchraydigan topilmalarning son va sifat ko'rsatkichlari turlicha bo'lib, jumladan, Janubiy O'zbekistondagi bronza davri ko'pdan-ko'p qabrlaridan sopol idishlardan tashqari, metall qurollar, zeb-ziynat buyumlari topilgan bo'lsa, boshqa qabrlardan faqat sopol idishlar topilgan²⁴⁵. Fikrimizcha, ushbu buyumlarning barchasi oila jamoasining xususiy mulki bo'lishi mumkin edi.

XX asr tarixiy ma'lumotlarining yoritilishiga ko'ra, xususiy mulkchilikning shakllanishi urug'chilik tizimi an'analari, jamoatchilik odatlari bilan qarama-qarshilikda tarix sahnasida vujudga kelgan. Etnografik manbalarga ko'ra, boy-

²⁴² Pershits A.I. va boshq. *Istoriya pervobitnogo obshestva*. – M.: Visshaya shkola, 1968. – S. 181.

²⁴³ O'sha joyda. – S. 181-182.

²⁴⁴ Sarianidi V.I. *Kollektivnie pogrebeniya i izuchenie obshestvennogo stroya rannezemledelcheskix plemen* // *Uspexi sredneaziatskoy arxeologii*. – L., 1972. Vip.1. – S. 22-26; Alekshin V.A. *Sotsialniy stroy rannezemledelcheskix obshestv po pogrebalnim pamyatnikom kultur Sredney Azii i Blijnego Vostoka*.: Avtoref. diss. ... kand. istor. nauk. – M., 1977. – 25 s.; O'sha muallif. *Nekotorie aspekti sotsiologicheskoy interpretatsii pogrebeniy zemledeltsev eneolita Yujnoy Turkmenii* // *Sovetskaya arxeologiya*. – 1976. – № 2. – S. 5-14.

²⁴⁵ Asqarov A. *Drevnezemledelcheskaya kultura...* – S. 151-152; Askarov A.A., Abdullaev B.N. *Djarkutan*. – T.: Fan, 1983. – S. 54.

badavlat kishiga aylangan urug' oqsoqoli yoki qabila yo'lboshchisi, jamiyatda o'z obro'-e'tiborini saqlab qolish uchun qabiladoshlariga ma'raka-to'ylar uyushtirib, ularga turli buyumlardan iborat sovg'alar taqdim etgan²⁴⁶. Ayrim elatlarda, yo'lboshchining vafotidan so'ng, uni mulkning bir qismi jamoa vakillariga tarqatilgan, boshqa qismi qabriga qo'yilgan²⁴⁷.

Ammo, bunday odatlar xususiy mulkchilikning rivojlanishiga to'siq bo'lmagan. O'z shaxsiy uy-joyiga, ishlab chiqarish qurollariga, qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorvalariga ega bo'lganligi, o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan jamoalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

S.P. Tolstov, Yu.I. Semenov, A.I. Pershits ibtidoiy jamiyat boshqaruvi tizimida qabila yo'lboshchisi, oqsoqollar kengashi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaganlar. Ushbu tizim siyosiy boshqaruv maqomi darajasiga yetmagan. Bunday tashkilot urug'-qabila an'alarini (jamo a'zolari manfaatlari birlamchi va ijtimoiy mavqeining tengligini) o'zida aks ettirgan.

S.P. Tolstov, Yu.I. Semenov va A.I. Pershitsning yozishicha, ibtidoiy jamiyatda maxsus boshqaruv organlari tashkil etilmasdan, ijtimoiy boshqaruv foydali faoliyat sifatida, jamoa manfaatlari bilan bog'liq bo'lib, ayrim shaxslarning harakatlari tufayli amalga oshirilgan²⁴⁸.

XX asrning 30-yillaridan boshlab, sovet davri adabiyotlarida ibtidoiy jamiyat, uning boshqaruv tizimi va ilk davlatchilikka o'tish muammolarini o'rganishda L. Morganning "Qadimgi jamiyat" asarining kontsepsiyalari juda katta ta'sir qilgan²⁴⁹. Ushbu g'oyalarni tadqiqotchilar A.I. Pershits, N.A. Butinov, V.S. Titov, Yu.I. Semenov va boshqalar o'z asarlarida yangi asoslarda rivojlantirganlar²⁵⁰.

²⁴⁶ Pershits A.I. va boshq. Istoriya pervobitnogo obshestva... – S. 182.

²⁴⁷ O'sha asar. – S.183.

²⁴⁸ Tolstov S.P. K voprosu o periodizatsii istorii pervobitnogo obshestva ... – S. 26; Semenov Yu.I. O periodizatsii pervobitnoy istorii // Sovetskaya etnografiya. – 1965. – № 5. – S. 79; Pershits A.I. Periodizatsiya pervobitnoy istorii (sostoyanie problemi) // Voprosi istorii. – 1980. – № 3. – S. 74-93.

²⁴⁹ Morgan L. Drevnee obshestvo. – L.: Institut narodov Severa, 1934. – 350 s.

²⁵⁰ Pershits A.I. Razvitie form sobstvennosti v pervobitnom obshestve kak osnova periodizatsii ego istorii // Tr. Instituta etnografii. – M. – L., 1960. T. LIV. – S. 151-172; Butinov N.A. Razdelenie truda v pervobitnom obshestve // Tr. Instituta etnografii. – M. – L., 1960. T. LIV. – S. 109-150; Titov V.S. Pervoe obshestvennoe razdelenie truda.

Qadimgi jamiyatning ijtimoiy tashkilotlarini o'rganish paytida, uning boshqaruv tizimi oliy yo'lboshchi - oqsoqollar kengashi - xalq yig'ini organlariga bo'linganligi qayd etilgan. Bunday tashkilot ibtidoiy jamiyatning so'nggi bosqichi yoki ibtidoiy tizimdan davlatchilikka o'tish davri sifatida S.P. Tolstov, M.O. Kosven, Yu.I. Semenov va A.M. Xazanovlar nashrlarida "harbiy demokratiya" deb nom olgan²⁵¹.

Ammo, "harbiy demokratiya" nazariyasini barcha jamiyatlar (ziroatchilar, chorvadorlar) va hududlar tarixi bilan bog'lash o'ta bahsli masalaga aylandi. Fikrimizcha, ushbu muammoni faqat arxeologiya va etnografiya manbalari orqali echish ham mushkul. Ma'lumki, L. Morgan o'z xulosalarini, irokezlar - seneka urug'-qabila tashkiloti va boshqaruv tizimini o'rganish asosida rivojlantirgan. Sovet davri tarixshunosligida L. Morganning g'oyalaridan qadimgi qabilalar va elatlar tarixini o'rganishda keng foydalanilgan²⁵².

XX asrning 50-60-yillarida arxeologik tadqiqotlar tufayli, O'rta Osiyoning bronza va ilk temir davri chorvador-ko'chmanchi aholisi tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar yanada kengaydi. Ulardan chorvadorlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tarixini o'rganishda foydalanildi. Bu masalada S.P. Tolstov, Ya.G'. G'ulomov, A.M. Mandelshtam, B.A. Litvinskiy, A.A. Asqarov, M.A. Itina va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega²⁵³.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bronza davri ishlab chiqaruvchi kuchlarning yuksalishi bilan izohlanadi. Metallchilik va chorvachilikning rivojlanishi natijasida patriarxal oilalarning ahamiyati xo'jalikda, ijtimoiy hayotda

Drevneyshie zemledelcheskie i skotovodcheskie plemena. // Kratkie soobsheniya instituta arxeologii. – M., 1962. Vip. 88. – S. 10-24; Semenov YU.I. O nekotoryx teoreticheskix problemax istorii pervobitnosti // Sovetskaya etnografiya. – 1968. – № 5. – S. 75-86.

²⁵¹ Tolstov S.P. K voprosu o periodizatsii ... – S. 25-30; Kosven M.O. K voprosu o voennoy demokratii // Trudi instituta etnografii. – M. – L., 1960. T. 4. – S. 241-261; Semenov Yu.I. O periodizatsii pervobitnoy istorii... – S. 74-93; Xazanov A.M. "Voennaya demokratiya" i epoxa klassobrazovaniya // Voprosi istorii. – 1968. – № 12. – S. 87-98.

²⁵² Pershits A.I. va boshqalar. Istoriya pervobitnogo obshestva... – S. 137-139.

²⁵³ Tolstov S.P. Priaralskie skifi i Xorezm // Sovetskaya etnografiya. – 1961. – № 4. – S. 114-146; Itina M.A. Stepnie plemena sredneaziatskogo mejdurechya vo vtoroy polovine II-nachala I tisyacheletiya do n.e. // Sovetskaya etnografiya. – 1962. – № 3. – S. 109-120; Mandelshtam A.M. Kochevniki na putyax v Indiyu // MIA. – № 136. – M., 1966. – 250 s.; Litvinskiy B.A. Orujie naseleniya Pamira i Fergani v sakscoe vremya // Materialnaya kultura Tadjikistana. – Dushanbe, 1968. Vip. 1. – S. 69-115; Askarov A. Raskopki mogilnika epoxi bronzi v Muminabade // IMKU. – T., 1969. Vip. 8. – S. 56-62.

o'sib borgan, dashtlarda aholi sonining ko'payishi yuz bergan, chorvadorlar tomonidan keng yaylovli hududlar egallangan. Chorvadorlar jamoasi oila, urug' va qabiladan iborat bo'lib, qabilalar uyushmasiga birlashgan. Bunday birlashmalar Orololdi, Turkmanistonning shimoliy-g'arbi va Janubiy Tojikiston hududlarida mavjud bo'lgan²⁵⁴.

Tadqiqotchilar iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilish paytida an'anaviy mulkiy tabaqalanish va ijtimoiy tengsizlik mavzusi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqqanlar. Qadimshunoslarning fikriga ko'ra, chorva patriarxal oilalarning xususiy mulkiga aylanishi va ayrim to'q oilalarning boyliklarni to'plab borishi natijasida urug' jamoalarida mulkiy tengsizlik jarayoni boshlanadi²⁵⁵. Sirdaryoning quyi oqimida chorvador yo'l boshchilarning maqbaralari topib tekshirilgan²⁵⁶.

Mustaqillik yillarida boshqaruvning kelib chiqishi masalasi E.V. Rtveladze, A.X. Saidov, E.V. Abdullaevlarning 2000-yilda rus tilida va 2001-yilda o'zbek tilida chop etilgan monografiyasida o'z aksini topdi.

Tadqiqotchilar "Ibtidoiy jamiyatda boshqaruv ijtimoiy hokimiyat institutlari mavjud bo'lishi bilan izohlanadi, - deb yozadilar. Ulardan biri urug' a'zolarining umumiy yig'ilishi bo'lib, unda eng muhim masalalar hal etilar edi. Ijtimoiy hokimiyat institutlaridan yana oqsoqollar va harbiy boshliqlarni aytib o'tish mumkin. Ibtidoiy jamiyatda muayyan lavozimni egallab turgan holda boshqaruv funksiyalarini bajargan odamlar va ularning maxsus ommaviy hokimiyati yo'q edi"²⁵⁷.

Tadqiqotchilar, "o'zlashtiruvchi xo'jaliklarga asoslangan boshqaruv funksiyalarini (ichki munosabatlarni tartibga solish, dushmanlardan himoya qilish) qayd etib, jamiyatda maxsus boshqaruv organlarini tashkil etmasdan, bunday ishlar urug' a'zolarining jamoaviy harakatlari bilan ham amalga oshirilishi mumkin edi", - deb xulosa chiqarganlar²⁵⁸.

²⁵⁴ Srednyaya Aziya v epoxu kamnya ... – S. 233, 240.

²⁵⁵ Srednyaya Aziya v epoxu kamnya ... – S. 229.

²⁵⁶ Tolstov S.P., Itina M.A. Saki nizovev Sirdari (po materialam Tagiskena) // Sovetskaya arxeologiya. – 1966. – № 2. – S. 151-175.

²⁵⁷ Rtveladze E.V. va boshq. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va xuquq tarixidan lavhalar. – T.: Adolat, 2001. – B. 19.

²⁵⁸ O'sha joyda. – B. 20.

Mazkur monografiyada “neolit inqilobi” oqibatida muhim ijtimoiy va iqtisodiy o’zgarishlar masalasi ko’rib chiqilgan. Ushbu masala ortiqcha mahsulot, xususiy mulk, harbiy tashkilotning o’sishi munosabati bilan qabilalar o’rtasidagi urushlar doimiy boyish vositasiga aylanganligi to’g’risidagi xulosalar bilan bog’landi²⁵⁹.

XX asr tarixshunosligida O’rta Osiyoda ijtimoiy boshqaruv paydo bo’lishining o’rganilishi yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- tarixiy adabiyotlarda etnografiya va arxeologiya ma’lumotlariga tayangan holda o’zlashtiruvchi va ishlab chiqaruvchi xo’jaliklarga asoslangan ibtidoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining o’rganilishi natijalari keng tahlil qilingan;

- tadqiqotchilar, ishlab chiqaruvchi xo’jaliklarning rivojlanishi natijasida jamiyatdagi tashkiliy funksiyalarni murakkablashtiruvchi va yo’lboshchi-rahbarlarning jamoadagi ahamiyatining o’sib borishini qayd qilgan;

- ishlab chiqarish jarayonining xilma-xilligi turlicha boshqaruvni amalga oshirishni talab etgan, O’rta Osiyoning qadimgi tarixiga tegishli ijtimoiy boshqaruvning xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarining tarixshunosligi yetarli darajada tahlil qilinmagan;

- sovet davri tarixshunosligida ijtimoiy boshqaruvning vujudga kelishi mavzusini o’rganish jarayonida etnografiya ma’lumotlari muhim ahamiyat kasb etgan, ulardan O’rta Osiyo qadimgi tarixini yoritishda ham foydalanilgan, ammo mintaqa tarixining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanilgan ma’lumotlarning nisbiyligi aniqlandi;

- XX asrning 90-yillarida muammoni yangicha asoslarda o’rganish imkoniyatlari paydo bo’ldi, oldingi yillarda qo’llanilgan yondashuvlar va ilmiy qarashlar tanqidiy ko’rib chiqila boshlandi, shu bilan birga, tadqiqotchilar mavzuga tegishli ijobiy natijalarni qiyosiy tahlil qilish zaruriyatini qayd etdilar.

Umuman olganda, muammo bo’yicha ilmiy bahs-munozaralar mavjud bo’lib, hanuzgacha boshqaruvning kelib chiqishi masalasi va uning o’rganilishi

²⁵⁹ O’sha joyda. – B. 24-25.

tarixi maxsus umumlashma tadqiqot obyektiga aylanmagan. Bu borada O'rta Osiyo tarixiga tegishli ochiq sahifalar va muammolar mavjud bo'lib, ularni o'rganish, tahlil etish dolzarb ahamiyatga ega.

Harbiy siyosiy omillarga asoslangan kasbiy boshqaruvning ajralib chiqishi masalasini o'rganish paytida XX asrning 90-yillari boshlariga qadar F. Engelsning "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asari manba sifatida xizmat qilgan. Adabiyotlarda doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida, urushlar jangchilar va harbiy yo'l boshchilarning kasb-hunariga yoki doimiy kasbiy faoliyatiga aylangan degan xulosa o'z aksini topgan²⁶⁰.

I.M. Dyakonov, E.A. Grantovskiy va boshqa olimlar "Avesto"da tilga olingan "ijtimoiy-kasbiy" guruhlariga o'z e'tiborini qaratganlar. Bular kohin, jangchi, ziroatchi-chorvador va hunarmanddir²⁶¹. Manbada qabilalar o'rtasidagi tinimsiz bosqinlar va talon-tarojlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Bu sharoitda jangchi va harbiy-yo'l boshchilarning nufuzi yuqori bo'lgan²⁶².

V.M. Masson, A.A. Asqarov, V.I. Sarianidi, I.S. Masimov, T.Sh. Shirinov va boshqa olimlar O'rta Osiyodagi bronza davri yodgorliklarini o'rganib, bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanganligini qayd etganlar. Bronza davrida ixtisoslashgan hunarmandchilik vujudga kelgan²⁶³. Janubiy Turkmanistondagi Oltintepada 2,5 gektar maydonda joylashgan qadimgi kulollarning guzari qoldiqlari topib tekshirilgan. V.M. Massonning ta'kidlashicha, "kulollar markazi"ning ijtimoiy-iqtisodiy o'rni va ahamiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etgan²⁶⁴.

Tadqiqotchi, kulolchilikda ishlab chiqarishni tashkillashtirish va boshqarish jarayonlarini o'rganish maqsadida Qadimgi Sharq yozma manbalariga o'z

²⁶⁰ Xazanov A.M. Razlojenie pervobitnoobshinnogo stroya i vozniknovenie klassovogo obshestva // Pervobitnoe obshestvo. – M.: Nauka, 1975. – S. 123.

²⁶¹ Dyakonov I.M. Istoriya Midii ... – S. 154; Grantovskiy E.A. Indo-iranskie kasti u skifov // XXV Mejdunarodniy kongress vostokovedov. – M., 1960. – S. 3.

²⁶² Dyakonov I.M. O'sha asar. – B. 386.

²⁶³ Masson V.M. Protogorodskaya sivilizatsiya yuga Sredney Azii // Sovetskaya arxeologiya. – 1967. – № 3. – S. 165-190; Askarov A.A. Sapallitepa. – T.: Fan, 1973. – S. 139; Sarianidi V.I. Baktriya v epoxu bronzi // Sovetskaya arxeologiya. – 1974. – № 4. – S. 49-71; Masimov I.S. Izuchenie pamyatnikov epoxi bronzi v nizovyyax Murgaba // Sovetskaya arxeologiya. – 1979. – № 1. – S. 111-131; Shirinov T. Djarkutan - ranniy gorod epoxi bronzi yuga Uzbekistana // Zoni i etapi urbanizatsii. – T.: Fan, 1989. – S. 43-44.

²⁶⁴ Masson V.M. Protogorodskaya sivilizatsiya yuga Sredney Azii ... – S. 167; Masimov I. Raskopki remeslennogo kvartala epoxi bronzi na Altin-Depe // Karakumskie drevnosti. – 1970. Vip. III. – S. 51-63.

e'tiborini qaratgan. Ularning guvohligiga ko'ra, hunarmandchilikning turli sohalarida kasbiy boshqaruv, ya'ni "temirchilar boshlig'i", "to'qimachilar boshlig'i" kabi mansablar mavjud bo'lgan²⁶⁵.

Bronza metallurgiyasi, kulolchilik, zargarlik va to'qimachilikning maxsus kasb-hunarga aylanishi natijasida turli mahsulotlar ayirboshlash va savdo-sotiq uchun ishlab chiqarilgan. V.M. Massonning yozishicha, mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilgan va moddiy ishlab chiqarishning murakkablashuvi jamiyatning iqtisodiy tizimiga ta'sir qilib, ishlab chiqarishda boshqaruvning yangi shakllarini tatbiq qilishni talab etgan²⁶⁶. Tadqiqotchi V.M. Masson ilgari surgan yondashuvlarga qo'shilsa bo'ladi, chunki bronza metallurgiyasi rivojlanishi natijasida mehnat qurollarining xilma-xilligi ko'paydi, bu esa mehnat unumdorligini oshirdi, ko'ptarmoqli hunarmandchilik sohalari vujudga keldi, ortiqcha mahsulotlar iqtisodiy, huquqiy-siyosiy mavqeiga ega bo'lgan kohin yoki harbiy oqsoqol qo'lida to'plandi.

V.I. Sarianidi o'z tadqiqotlarida Shimoliy Afg'onistonda joylashgan bronza davri yodgorliklarini o'rganishi natijasida, Qadimgi Baqtriyadagi oila va jamiyat, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonlarini tahlil qilgan²⁶⁷.

Dashtli-3 yodgorligida ibodatxona kompleksi va saroy qoldiqlari topib tekshirilgan²⁶⁸. V.I. Sarianidining yozishicha, mil. avv. II ming yillikda dehqonchilik mahalliy qabilalar xo'jaligining asosiy sohasi bo'lib, ibodatxona kompleksida taxminan 150-200 kishi istiqomat qilgan. Ular, asosan, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar²⁶⁹.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, bronza davrida xususiy va ibodatxonalarga tegishli ziroatchilik shakllari rivoj topgan, yo'lboshchi-kohin va uning ma'muriy apparati Dashtli vohasi aholisining kundalik hayotini, o'zaro aloqalarini nazorat qilib, ularni muvofiqlashtirgan. Olimning yozishicha, voha xo'jaliklarida yer va

²⁶⁵ Masson V.M. *Ekonomika i sotsialniy stroy ...* – S. 69.

²⁶⁶ Masson V.M. *Ekonomika i sotsialniy stroy ...* – S. 70-71.

²⁶⁷ Sarianidi V.I. *Drevnie zemledeltsi Afganistana*. – M.: Nauka, 1977. – S. 132-139.

²⁶⁸ Sarianidi V.I. *Baktriya v epoxu bronzi // Sovetskaya arxeologiya*. – 1974. – № 4. – S. 49-71; O'sha muallif. *Issledovanie pamyatnikov Dashlinskogo oazisa // Drevnyaya Baktriya*. – M.: Nauka, 1976. – S. 21-86; O'sha muallif. *Mesopotamiya i Baktriya vo II tis. do n.e. // Sovetskaya arxeologiya*. – 1986. – № 2. – S. 34-46.

²⁶⁹ Sarianidi V.I. *Drevnie zemledeltsi ...* – S. 138.

suvni taqsimlash, ichki tartibni saqlash, diniy urf-odatlarini bajarish natijasida, boshqaruv kasbiy faoliyatga aylangan²⁷⁰. B.A. Kolchin, E.V. Saykoning fikrlariga ko'ra, kasbiy boshqaruvning vujudga kelishi ishlab chiqarishni tashkillashtirish zarurati va iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan²⁷¹.

V.I. Sarianidi bronza davrida maxsus hunarmandchilik ishlab chiqarishi vujudga kelishi, mutaxassis kulollar va temirchilar paydo bo'lishiga o'z e'tiborini qaratgan. Olimning ta'kidlashicha "u paytda Baqtriyada sinflar shakllanishi jarayoni boshlanib, diniy-mafkuraviy funksiyalarni amalga oshirish ayrim shaxslarning kasbiy faoliyatiga aylandi: jamoa zodagonlari va harbiy zodagonlar paydo bo'ldi"²⁷².

A.A. Asqarov yuqorida qayd etilgan V.I. Sarianidining xulosalarini tanqidiy tahlil etib, Dashtli-3 yodgorligida qazib ochilgan saroy va ibodatxona aslida oddiy dehqonchilik manzilgohlari bo'lganligini ta'kidlab,²⁷³ ularni Surxon vohasidagi bronza davriga oid Sopollitepa bilan qiyoslagan. Ma'lumki, Sopollitepada uy-joylar, ro'zg'or va xo'jalik xonalari hamda hunarmandchilik ustaxonalarining qoldiqlari topilgan. A.A. Asqarov bronza davri Baqtriya aholisining ijtimoiy hayotida V.I. Sarianidi tasvirlagan darajadagi katta o'zgarishlar sodir bo'lmaganligini qayd etgan²⁷⁴.

A.A. Asqarovning V.I. Sarianidi fikrlariga nisbatan bildirgan xulosalari keyinchalik o'zgardi. Bunday yondashuvga, hozirgi Sherobod yaqinida joylashgan bronza davriga oid shahar ko'rinishiga ega bo'lgan Jarqo'tonda olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijalari asos bo'lgan. Jarqo'tonda saroy va olovga sig'inish bilan bog'liq ibodatxona qoldiqlari topilgan²⁷⁵.

²⁷⁰ Sarianidi V.I. *Drevnie zemledeltsi ...* – S. 138.

²⁷¹ Kolchin B.A., Sayko E.V. *Osobennosti razvitiya i organizatsii proizvodstva // Stanovlenie proizvodstva v epoxu eneolita i bronz.* – M.: Nauka, 1977. – S. 9-34.

²⁷² Sarianidi V.I. *Drevnie zemledeltsi...* – S. 152.

²⁷³ Asqarov A. *Drevnezemledelcheskaya kultura ...* – S. 132-134.

²⁷⁴ Asqarov A. *O'sha asar ...* – S. 135.

²⁷⁵ Shirinov T. *Djarkutan – ranniy gorod epoxi bronz yuga Uzbekistana // Zoni i etapi urbanizatsii.* – T.: Fan, 1989. – S. 43-44; O'sha muallif. *Srednyaya Aziya vo II tisyacheletii do n.e. i protozoroastrizm // IMKU.* – Samarkand, 2000. Vip. 30. – S. 35-48; Askarov A.A., Shirinov T.Sh. *Rannyya gorodskaya kultura...* – S. 54-56.

Xuddi shunday ibodatxona qoldiqlari Janubiy Turkmanistondagi Murg'ob daryosining quyi oqimida Togolok-21 yodgorligi o'rnida topib tekshirilgan²⁷⁶.

V.I. Sarianidining xulosasiga ko'ra, Togolok-21 bronza davrida Marg'iyona dehqonchilik vohalarining markaziy ibodatxonasi vazifasini bajargan bo'lib, unda asosiy diniy marosimlar amalga oshirilgan. Ushbu yodgorlikning o'rganilishi natijasida V.I. Sarianidi Zardusht va zardushtiylik vatani to'g'risidagi muammoni tahlil qilishga harakat qilgan²⁷⁷.

XX asr adabiyotlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bronza davrida O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida e'tiqod, diniy marosimlar aholining hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, maxsus kohinlar guruhi paydo bo'lgan. Natijada ushbu yo'nalishda ham kasbiy boshqaruv faoliyati vujudga kelgan.

A.S. Sagdullaev ijtimoiy mansablar va boshqaruvning vujudga kelishi masalasini tahlil qilar ekan, boshqaruvning paydo bo'lishi asoslari ishlab chiqarish, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalash, ijtimoiy masalalarni hal qilish zaruriyatidan kelib chiqqanligini ta'kidladi²⁷⁸. Bularning barchasi rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish, nazorat qilish vazifalarini yuzaga chiqarib, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turishni talab etgan. Boshqaruv tizimida funksiyalarning kengayishi natijasida dastlabki ijtimoiy foydali boshqaruv kasbiy faoliyatga aylangan²⁷⁹.

A.S. Sagdullaev ushbu funksiyalarning mazmun-mohiyatini ham ochib berdi. Tadqiqotchining yozishicha, iqtisodiy funksiyalar tizimida dehqonchilik ishlarini, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo'jaliklarida yer va suvni taqsimlash, qurilish, sug'orish-irrigatsiya ishlarini tashkil etish, qishloq xo'jalik, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, savdo-sotiq aloqalari muhim o'rin tutgan²⁸⁰. Boshqaruvning iqtisodiy funksiyalari bilan bog'liq

²⁷⁶ Sarianidi V.I. *Drevnosti strani Margush*. – Ashxabad: Ilim, 1990. – S. 102.

²⁷⁷ O'sha joyda. – S. 151.

²⁷⁸ Sagdullaev A.S. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari // *Jamiyat va boshqaruv*. – 2004. – № 1. – B. 9-10; Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi ... – B. 35.

²⁷⁹ Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi ... – B. 35.

²⁸⁰ Sagdullaev A. *Menejmentning shakllanishi tarixi. Innovatsion menejment asoslarining shakllanishi tarixidan* // *Innovatsion menejment (darslik)*. – T.: Akademiya, 2005. – B. 5.

tashkiliy hamda ishlab chiqarish elementlari va tamoyillari mavjud bo'lganligi quyidagicha qayd etilgan:

- ishlab chiqarishning turli sohalaridagi iqtisodiy munosabatlarni boshqarish va nazorat qilish;
- texnologik yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish;
- mahsulot ishlab chiqarishni zaruriy ashyo va uskunalar bilan ta'minlash;
- iqtisodiyotning tashkiliy sohalariga yangiliklarni tatbiq etish²⁸¹.

Shu bilan birga, boshqaruvning ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy funksiyalariga maxsus izoh berilgan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, "ijtimoiy funksiyalar jamoalardagi o'zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish, bahsli masalalarni hal qilish" kabi vazifalar bilan bog'langan. "Harbiy-siyosiy funksiyalar tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanih, harbiy qurollarni ishlab chiqarish, qurollangan qo'shnlarni tashkil etish, makon va tumanlar hududida mudofaa ishlarini amalga oshirish, tuman va viloyatlar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish, munozarali masalalarni hal qilish kabi vazifalar asosida rivoj topgan"²⁸².

Adabiyotlarda o'z aksini topgan ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda kasbiy boshqaruv faoliyatiga o'tish jarayoni bronza davrida boshlangan. Iqtisodiyot sohalarida bunga ixtisoslashgan hunarmandchilikning vujudga kelishi sabab bo'lgan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi, metallchilik, kulolchilik, to'qimachilik va boshqa sohalarida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarilishini talab etardi. Bu borada rejalashtirish va tashkillashtirish vazifalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyotning tashkiliy-boshqaruv tizimining rivojiga ta'sir ko'rsatgan.

XX asr tarixshunosligida kasbiy boshqaruvning vujudga kelishi O'rta Osiyoda ilk shaharlarning paydo bo'lishi bilan bog'langan. Ma'lumki, ilk shaharlar turli ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy hamda madaniy funksiyalarni (shahar-ishlab chiqarish, iqtisodiy va harbiy markaz, bosh ibodatxonalar joylashgan maskan, yirik

²⁸¹ Sagdullaev A. Menejmentning shakllanishi tarixi ... – B. 5, 22.

²⁸² Sagdullaev A. Menejmentning shakllanishi tarixi ... – B. 5-6.

inshootlar - saroy va qal'alar mavjud markaz) bajargan²⁸³. Ushbu funksiyalarni amalga oshirish kasbiy boshqaruv faoliyatini talab qilgan.

E.V. Sayko kasbiy boshqaruvning kelib chiqishi masalasini mehnat taqsimotining ajralishi va ijtimoiy tabaqalanishining vujudga kelishi bilan bog'lagan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ushbu tarixiy vaziyat turli ko'rinishdagi boshqaruv vazifalarini amalga oshirishni talab etardi²⁸⁴.

V.M. Masson Janubiy Turkmanistondagi Oltintepa misolida ilk shaharlarda yuqori tabaqa yashaydigan uy-joylar ("yo'lboshchi uyi", "kohin uyi") va hunarmandlar guzarlari mavjudligiga o'z e'tiborini qaratgan²⁸⁵. Shaharlarning turli funksiyalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy, harbiy) amalga oshirish paytida boshqaruv muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday vaziyat ilk davlatlarning shakllanishi davrida paydo bo'lgan.

Mustaqillik yillarida ushbu mavzuga murojaat etgan E.V. Rtveladze yozma manbalarga tayangan holda boshqaruvni harbiy-siyosiy jihatdan ahamoniylar davrigacha O'rta Osiyoda mavjud hukmdorlarning faxriy unvonlari bilan bog'ladi. Ushbu unvonlar "Avesto"da –"kavi" (hukmdor, podsho), "daxiyupati" (viloyat hokimi), "sastar" (harbiy yo'lboshchi hamda viloyat hokimi), "daxiyusasti" (barcha viloyatlar hududiy birlashuvining hukmdori), yunon tarixchilari asarlarida – "vasilevs", ya'ni podsho (saklarning podshosi Amorg, Baqtriya hukmdori Oksiart) shakllarida keltirilgan²⁸⁶.

E.V. Rtveladzening fikriga ko'ra, "kavi" unvonining kelib chiqishi mahalliy bo'lib, milodiy VI-VII asrlarga oid Buxoro hukmdorlari –buxorxudotlar tanga pullarida ham uchraydi. Demak, ushbu unvon "Avesto" davridan boshlab hatto ilk o'rta asrlarda ham dastlabki ahamiyatini saqlab kelgan²⁸⁷.

²⁸³ Ushbu masalaga tegishli qarang: Litvinskiy B.A. Drevniy Sredneaziatskiy gorod (mestnie traditsii i inozemnie modeli) // Drevniy Vostok. Goroda i trgovlya. – Erevan, 1973. – S. 99-125; Masson V.M. Gorodskie sentri ranneklassovix obshestv // Istoriya i arxeologiya Sredney Azii. – Ashxabad: Ilim, 1978. – S. 20-29; Shirinov T.Sh. Teoreticheskie problemi urbanizatsii v sredneaziatskoy arxeologii // Markaziy Osiyoda urbanizatsiya jarayonining paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari. – Samarkand, 1995. – S. 114-116; Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – T., 2004. – B. 38-54.

²⁸⁴ Sayko E.V. Predposilki i usloviya formirovaniya drevnego goroda // Drevnie goroda. – L., 1977. – S. 15.

²⁸⁵ Masson V.M. Ekonomika i sotsialniy stroy ... – S. 145-147.

²⁸⁶ Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – T., 2005. – S. 58-61.

²⁸⁷ O'sha joyda. – S. 61.

Mavzu yuzasidan bildirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, kasbiy boshqaruvning shakllanishi bilan ma'muriy - hududiy boshqaruv tarixi boshlanadi, ya'ni tuman boshlig'i, viloyat hokimlari va davlat hukmdorlari paydo bo'ladi. Ibtidoiy - ijtimoiy boshqaruv o'rniga siyosiy hokimiyat vujudga keladi.

III Bob bo'yicha xulosa

Yuqorida keltirilgan dalillardan kelib chiqib, xulosa sifatida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

- sovet davri tarixshunosligida qadimgi kasbiy boshqaruv faoliyati tarixi yozma manbalar, etnografiya va arxeologiya manbalariga tayangan holda o'rganilgan bo'lib, shu davr mafkurasi talabiga ko'ra, mavzu mulkiy, ijtimoiy tabaqalanish masalasi bilan bog'lanib, ilmiy-uslubiy jihatdan chegaralangan holda yoritilgan;

- tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida muammoga tegishli ayrim fikr-xulosalar bildirilgan bo'lsa-da, biroq masala tarixshunoslik nuqtai nazaridan yaxlit tarzda ishlanmagan;

- XX asr tarixshunosligida, O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy omillarga asoslangan kasbiy boshqaruvning ajralib chiqishi bronza davrida, ya'ni mil. avv. II ming yillikda sodir bo'lgan;

- kasbiy boshqaruv faoliyatining vujudga kelishi sabablari va omillari tarixiy adabiyotlarda ziroatchilik, ixtisoslashgan hunarmandchilikning paydo bo'lishi, diniy-mafkuraviy funksiyalarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq holda tahlil qilingan;

- umuman olganda sovet tarixshunosligida muammo tahlili juda kam adabiyotlarda yoritilgan va ayrim masalalar o'z yechimini topmagan;

- mustaqillik davrida ushbu yo'nalish bo'yicha ayrim yangi tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa ham, mavzuning tarixshunosligi hanuzgacha to'liq o'rganilmagan, chop etilgan maqolalarning miqdori kam. Shuning uchun mavjud muammolarni yangi asoslarda o'rganish va tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xorazm yozma merosida o'zbek xalqining davlatchiligi tarixi masalalari keng yoritilgani barcha mutaxassislariga ma'lum. Uch ming yillik davlatchilik an'alariga ega bo'lgan xalqimiz o'tmishini turli til va davrlarda bitilgan yozma manbalar orqali o'rganilishi manbashunos olimlar va tarixchilarning muhim ilmiy yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Xorazmda bitilgan tarixiy yozma manbalar qadimda, o'rta asrlar, yangi davrda yaratilgan bo'lib, ular qadimiy tillardan pahlaviy, fors, arab va turkiy tillarda yetib kelgan. Davr o'tishi bilan ko'pgina manbalar yo'qolib ketgani ham ma'lum. Shu davrlarda yozilgan manbalar islomgacha va islom davri, Xorazmshohlar, Xiva xonligining tashkil topishidan to 1920-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasida yaratilgan shu yozma manbalardagi faqat Xorazmda shakllangan davlatlar va davlatchilik masalalari, ma'muriy boshqaruviga ahamiyat berildi. Mavzuning tarixshunosligi va manbashunosligiga bag'ishlangan adabiyotlar va tadqiqotlar mingdan ham ko'pdir. Manbalardagi ma'lumotlar ham minglab varaqlarni tashkil qiladi.

Xorazmda bitilgan yozma manbalarda davlatchiligimiz haqidagi ma'lumotlarning o'rganilishi hamda tahlili quyidagi xulosalar va natijalarni olishga sabab bo'ldi:

- Eng qadimiy yozma manba bo'lgan va O'rta Osiyo hududida yaratilgan "Avesto" o'zining ko'p qatlamli va murakkabligi bilan e'tiborga loyiq. Unda aks etgan jamiyat va davlat doirasidagi rusum va qonun-qoidalar ma'lum bir tartibda izchil berilmasligi tabiiydir. Birinchidan, biz "Avesto"ning asliy matniga ega emasmiz. Ikkinchidan, hozirgi kunda fanga ma'lum bo'lgan va jahonning ko'pgina tillari o'girilgan "Avesto"da qonun-qoidalarining asosiysi "Vendidod"da jamlanganiga ko'ra, bu tartib asliy matnda saqlangan bo'lsa kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

- "Avesto"da ijtimoiy tabaqalar xususida gap ketishi, aholining turli kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi jihatidan guruhlariga ajratilishi unda ilk davlatchilik atributlarining aks etganidan darak beradi.

- Mazkur yodnomada juda uzoq tarixga oid huquqiy atamalarning uchrashi unda davlat huquqi anchayin mukammal aks etganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, unda aks etgan qonunlar avvalo Aleksandr Makedonskiy, keyinchalik islom fathigacha zardushtiylik dini yetakchi bo'lgan hududlarda qonunlar majmui vazifasini ham o'tagani ma'lum.

- "Avesto"da davlat chegaralari masalasi mifologik tasavvurlar asosida bo'lsa ham, ayrim o'rinlarda undagi joy nomlarini lokalizatsiya qilish imkoni tug'iladi. Uch ming yillik yodnomada bu kabi masalalarning ko'tarilishi qadim ajdodlarning siyosiy tafakkuri yuksak rivojlanganidan darak beradi.

Qadimgi Sharq hududlariga nisbatan O'rta Osiyoda davlatlar biroz kech vujudga kelgan. Mintaqaning bronza davri tarixiga tegishli yozma manbalar mavjud emas. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, hunarmandchilik va qishloq xo'jalik mahsulotining miqdori, uning ishlab chiqarilish darajasi arxeologiya ma'lumotlariga asosanib o'rganiladi. Lekin ushbu ma'lumotlar to'liq emas, shuning uchun ham qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi yuzasidan ma'lum holatlarda nisbiy xulosalar chiqarilgan.

Ilk davlatlardan hisoblanadigan Xorazm davlati dastlab qaysi hududda (janubda "Katta Xorazm" yoki quyi Amudaryodagi Xorazm) paydo bo'lganligi muammosi bahslarga sabab bo'lib, hanuzgacha aniq yechimini topmagan. Ayrim tadqiqotchilardan tashqari, qadimgi Xorazm davlatining rivojlanganligi ko'pchilik tarixchilarda shubha uyg'otmaydi.

XX asrning 90-yillari adabiyotlarida "quldorlik davlatlar", "quldorlik jamiyati", "quldorlik tuzum" kabi tushunchalar kamdan-kam ishlatila boshladi. Lekin "ekspluatatsiya munosabatlari", "ijtimoiy sinflar", "jamiyatda qarama-qarshilik", "sinfiy tuzum" va boshqa tushunchalar turli adabiyotlarda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'rta Osiyoda ilk davlatchilik tarixini yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlar asosida yoritilishi, zamonaviy uslubiy-konseptual talablar ushbu tushunchalardan to'liq voz kechish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqotchilarning mintaqada ilk davlatlar quldorlik davlatlar shaklida vujudga kelmagan degan fikrlariga qo'shilish mumkin.

Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmi, XX-XXI asr boshlari tarixshunosligidagi ko'plab nazariyalar va yondashuvlarning izohida unga tanqidiy baholar berish, ayniqsa, "sinfiy" nazariyadan voz kechish bilan birga, ayrim yondashuvlar va tadqiqotlarning ijobiy jihatlarini ajratib ko'rsatish lozim. Misol uchun, XX asr adabiyotlarida asl manbalar asosida fanga tadbiq etilgan ilk davlatlarning arxeologik belgilarining ishlab chiqilishi, ilk yozma manbalar va tarixiy geografiya masalalarining tahliliga va o'rganilishi tarixiga yondashuv, ilk davlatlar va ilk shaharlar tarixini bir-biri bilan o'zaro bog'langan jarayon sifatida talqin qilish tamoyillari, shular jumlasidandir.

Tarixshunoslikda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni va ilmiy qarashlarni umumlashtirilgan holda, O'rta Osiyodagi ilk davlatchilik tarixini tadqiqotchilar tomonidan quyidagi davrlar va shakllarga ajratib yoritilishi, tarixiy haqiqatga ancha yaqin:

- bronza davri, "voha-davlatlar" (markaziy ibodatxona va mudofaa devorlar bilan o'ralgan saroy atrofidagi ziroatchilarning uy-joylari, ishlab chiqarish inshootlari va qishloq xo'jaligi uchun foydalanilgan yerlar);

- mil. avv. I ming yillikning boshlari, "voha-davlatlar" va dastlabki siyosiy uyushmalar;

- ilk temir davri, hududiy jihatdan o'rtamiyona davlatlar (Baqtriya, Xorazm, So'g'd).

Tadqiqotning natijalariga asoslanib, quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin:

- O'rta Osiyoda ilk davlatlar muammosining o'rganilishi tarixi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. XX asrning 30-40-yillari oxirlari va 50-60-yillarda muammoning o'rganilish natijalari alohida monografiyalarning tarixshunoslikka oid boblarida va turli maqolalarda o'z aksini topgan. Bu vaqtga kelib, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik tarixshunosligi to'g'risida boshlang'ich nazariyaga asos solingan;

- XX asrning 70-80-yillarida, keng arxeologik tadqiqotlar tufayli ilk davlatchilik xronologiyasi va tipologiyasi borasida fanda mavjud ilmiy qarashlar

va yondashuvlar o'zgarib, O'rta Osiyoda davlatchilikning vujudga kelishi xronologik jihatdan qadimiylashtirilib, bronza davri bilan bog'langan;

– tarix fanida sinfiy nazariya ustunlik qilganligi tufayli, davlatchilik vujudga kelishining obyektiv omillari, xususiyatlari va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, ilk davlatchilikning sinfiy mohiyati asosiy ko'rsatkich sifatida belgilangan;

– O'rta Osiyo hududlarida siyosiy institutlar va hokimiyat vujudga kelishidan avvalgi ibtidoiy davrlarda o'zlashtiruvchi va ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarga asoslangan jamoalardagi boshqaruv xususiyatlarini o'rganilishi tarixi maxsus umumlashtiruvchi tadqiqotga aylanmagan;

– sovet davri tarixshunosligida ibtidoiy-ijtimoiy boshqaruvning kasbiy va ma'muriy-hududiy boshqaruvga aylanishi sabablari va omillari masalasi yaxlit tarzda ishlanmagan bo'lib, kam sonli adabiyotlarda yoritilgan;

– yangicha yondashuvlar, davlatning vujudga kelishi jarayonlari, eng avvalo, aholi va jamiyatning umumiy manfaatlarini amalga oshirish zaruriyati bilan bog'lanishi va talqin qilinishi mustaqillik davri O'zbekiston tarixshunosligida muhim o'rin tutgan, lekin shu bilan birga ayrim tadqiqotlarda sinfiy nazariyaga asoslangan yondashuv ham qo'llaniladi, mavzuni o'rganishda biryoqlama yondashuvdan voz kechish lozim;

– XX asrning 90-yillaridan boshlab, Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlarida davlatchilik tarixi sof ilmiy muammolarni asl manbalarga tayangan holda o'rganish doirasidan chetga chiqa boshladi va mavzuga noxolis yondashuvning vujudga kelishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent, «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- T. O'zbekiston. 2011.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
6. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. J. 8. – T.: O'zbekiston, 2000. –525 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston, 2000. – 351b.
8. Karimov I.A. Jamiyatimizning erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. – T.: O'zbekiston, 2007. – 318 b.

II.Asosiy adabiyotlar

9. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., Sharq. 2000.
- 10.Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
- 11.Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2004.
- 12.Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.-T., 2006.
- 13.Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent, Uzbekistan. 2009.

14. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). – Toshkent, Ma'rifat, 2009.
15. O'zbekiston tarixi. Toshkent, Universitet 1997.
16. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas'ul muharrirlar D.A. Alimova., E.V. Rtveladze. T., 2001.
17. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. Tanlanma asarlar I jild, T., «Fan», 1968.
18. Avesto / Asqar Maxkam tarjiması. – Toshkent: Sharq, 2001. – 383 b.
19. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., 2007.
20. Axmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari.-T., O'qituvchi, 1991.
21. Axmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. T., «O'qituvchi», 2001.
22. Boys M. Zoroastriysi. Verovaniya i obichai. M., 1987.
23. Vaynberg B.I. Etnografiya Turana v urevnosti. M., 1999.
24. Vorobyova M.G. Problema «Bolshogo Xorezma» i arxeologiya. Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. M., 1979.
25. Gerodot Istoriya. V devyati knigax. M.; 2004.
26. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilishi tarixi. T., 1959.
27. Gerodot. Istoriya. V devyati knigax / Per. s grecheskogo i komment. G.A. Stratanovskogo. – M.: OLMA-PRESS Invest, 2004. – 639 s.
28. Dyakonov I.M. Vostochniy Iran do Kira. Istoriya iranskogo gosudarstvo i kulturi. M., 1971.
29. Kabirov A., Sagdullaev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi T., 1990.
30. Ksenofont. Kiropediya. M., 1976.
31. Ksenofont. Anabassis / Perevod i primechaniya G. Genkelya. Kommentarii G. Dovgyalo, V. Fedosika. – M.: LADOMIR, 2003. – 246 c
32. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., 2008.
33. Masson V.M. Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi. M., 1966.
34. Maxmudov T. «Avesto» haqida. T. «Sharq» , 2000.

35. Musayev N.U. O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan (Tosh davri oxiridan - XX asr boshlariga qadar). – Toshkent: Fan, 2005.
36. Pardayev A. Davlat va davlatchilik g'oyasi. – Toshkent, Fan, 2007.
37. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. T., 2001.
38. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. T., 2005.
39. Rtveladze E.V., Sagdullaev A.S. Sovremennie mifi o dalekom proshlom narodov Sentralnoy Azii. T., 2007.
40. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixshunosligidan lavhalar. T., 1993.
41. Sagdullaev A.S. Usadbi drevney Baktrii. T., 1987.
42. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., 1996.
43. Sulaymonova F. Sharq va g'arb. T., "FAN", 1991.
44. Shaydullaev Sh.B. Severnaya Baktriya v epoxu rannego jeleznogo veka. T., 2000.
45. Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001.
46. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. T.. 2004.
47. Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. T., 2005.
48. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida: terma parchalar/ Tuzuvchi va tarj. Zohir A'lam. – T., 2008

III. Internet saytlari

49. [www. ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
50. [www. edu.uz.](http://www. edu.uz)
51. [www. google.uz.](http://www. google.uz)
52. [www. fvat.uz.](http://www. fvat.uz)
53. [www. turklib.uz.](http://www. turklib.uz)
54. [www. mirknig.ru.](http://www. mirknig.ru)

